

ResearchBib Impact Factor: 9.576 / 2023



# TECHNICAL SCIENCE **RESEARCH** IN UZBEKISTAN

Research Science and  
Innovation House

## OUR INDEXING



zenodo



AIRE



BASE



ORCID



ADVANCED SCIENCE INDEX



INTERNATIONAL



ESJI

ISSN: 2992-9148 <http://universalpublishings.com>

ResearchBib Impact Factor: 9.576 / 2023



TECHNICAL SCIENCE  
**RESEARCH**  
IN UZBEKISTAN



Research Science and  
Innovation House

**VOLUME 2** **ISSUE 2**

**FEVRAL 29, 2024**

[editor@universalpublishings.com](mailto:editor@universalpublishings.com)

<http://universalpublishings.com>

«TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN» ilmiy-uslubiy  
jurnali: 29.02.2024-yil.

Ushbu to'plamda «TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN» ilmiy-uslubiy jurnali 2024-yil 2-soni 2-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



“RESEARCH SCIENCE AND  
INNOVATION HOUSE” MCHJ



## TAHRIRIYAT

**Bosh muharrir**, Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasida mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

**Mas’ul kotib**: Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

**Nashrga tayyorlovchi**: Eshqarayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

## TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

**Texnika fanlari muharriri**, Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasida dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

**Texnika fanlari muharriri** Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Kimyo fanlari muharriri** Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

**Kimyo fanlari muharriri**, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Iqtisodiyot fanlari muharriri** Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri**, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Otamurodov Furqat Abdulkarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O‘zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Biologiya fanlari muharriri** Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O‘zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O‘zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Sotsiologiya fani muharriri** Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Filologiya fanlari muharriri** Jo‘rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo‘qon davlat pedagogika instituti. Qo‘qon, O‘zbekiston filologiya fanlari doktori (PhD), katta o‘qituvchi.

**Fizika-matematika-fanlari muharriri** Bobamuratov Ulug‘bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O‘zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tibbiyot fanlari muharriri** Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

**Gumanitar fanlar muharriri** Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)

## ESTIMATION OF C-REACTIVE PROTEIN, IMMUNOGLOBULIN'S AND COMPLEMENTS IN SCD PATIENTS

Maha KhalafAL-Mishry\*., Nadhim K. Mahdi and Sadeq K. Ali AlSalait

Department of Microbiology College of Medicine, University of Basrah ,Iraq

\*corresponding author [email=htalsaad@yahoo.com](mailto:email=htalsaad@yahoo.com)

**Abstract:** Sickle cell disease (SCD) comprises an inherited blood disorder that is life long and affects many people globally. Despite progress in therapy, SCA is a considerable cause of mortality and morbidity. This study was designed to measure the immunological and inflammatory parameters of patients with sickle cell disease (SCD) and to found if there is any role of it in the pathogenicity of the disease. This study included A total of 32 patients, their ages ranged from 16 to 55 years patients with Sickle cell disease who have been evaluated during vaso occlusive crisis and had been followed up till they attained steady state, and there are 32 normal control subjects matched with patients in age and sex. In general there was elevation in all parameters the study were included in patients than control and particularly in crisis, despite the IgM value which was insignificantly decrease, but the statically significant elevation reported only in CRP, IgG, IgA.

**Keywords:** c - reactive protein, Immunoglobulin's, Sickle cell disease

### 1. INTRODUCTION

The immune system is of importance in sickle cell disease Review of literature shows that sickle cell patients in other parts of the world have a variety of abnormalities in their specific and non-specific immune systems[1,2] C-reactive protein (CRP) is found in the plasma, It is the most commonly assessed marker of acute and chronic inflammation [3].Increase in CRP levels is likely to vaso- occlusion and hence blocking the blood flow to organs [4] . Antibodies are specialized proteins that specifically recognize and bind to one particular protein.antibody production and binding to a foreign substance or antigen, often is critical as a means of signaling other cells to engulf, kill or remove that substance from the body [4]. Total IgG and IgA levels are usually raised in SCD patients [5] while others have noted impaired *in vitro* function of B- Lymphocytes [6].

The complement system involves a large number of plasma proteins that are cleaved sequentially by protease enzymes to generate active fragments. These function as opsonins or chemo attractants, and the terminal components can

kill some pathogens directly by creating pores in their membranes. The cascade can be activated either via the classical pathway, following binding of IgM or IgG to surface antigens, or the alternative pathway, in which C3b interacts directly with the pathogen cell surface, then recruiting further downstream components [7]. Deficiencies in the alternative pathway of the complement system and factor B reported despite of inconsistently demonstrate any deficiencies in the amount of complement components, but early studies did suggest a reduced functional activity of the alternative pathway, with lower levels of factor B (the first protein recruited by C3b) and impaired opsonization of yeast *in vitro* [8,9]

This study compared differences in the levels of, complements, CRP, immunoglobulins in SCD patients in painful crisis episodes and compared with their levels in steady state from side and healthy control from the other side. The aim of this study was to evaluate these immunological and inflammatory parameters and correlate their disturbance if found with the disease and its pathogenicity.

## 2. MATERIALS AND METHODS

in three subject groups namely SCD patients in painful crisis then follow them up in steady state and healthy control subjects which age and sex matched with patients (Table 1) 3ml of blood were withdrawn from each patient during painful episodes and also during steady state and also from control group subjects; the following investigations were done for each patient with SCD and for each control subject: Total immunoglobulin, complement and C-reactive protein (CRP).

IgG, IgM, IgA, C3, C4 and CRP Which analyzed by ARCHITECT C 4000 fully automated analyzer SN C461520, REF 02P24-01 were evaluated by using these kits:

IMMUNOGLOBULIN IgA A9D98-20304565/R06 IMMUNOGLOBULIN IgG G9D99-2030-4513/R4 IMMUNOGLOBULIN IgM M1E01-2030-3962/R3 COMPLEMENT C3-9D96-2030-3982/R4

COMPLEMENT C4-9D97-2030-3965/R4

C-REACTIVE PROTEIN 8G65-2130-4143/R1

All the test above analyze protocol related to Immunoturbidimetric principle.

## 3. RESULTS

The results of the current study is an output from 32 SCD patients (14 males and 18 females), their ages range from 16 – 55 years. Twenty two of them are SS, two are splenectomized and one with splenomegaly. Ten of them are SF,

two are splenectomized and one with splenomegaly. The patients are recruited during crisis state then follow them up in a steady state. There were 32 normal control subjects,

matched with the patients in age and sex (Table 1).

Table 1. Age and gender distribution of subjects

Variables	Subject				Total	P-value
	Case N=32		Control N=32			
Mean age ± SD					9.8 ± 4.2	.816
	30.2 ± 11.5		30.1 ± 11.9			
Age-group					28	43.8%
16- 25	14	21.9%	14	21.9%	15	23.4%
26-35	8	12.5%	7	10.9%		
36-45	6	9.4%	7	10.9%	13	20.3%
46-55	4	6.3%	4	6.3%	8	12.5%
Gender					28	43.8%
Male	14	43.8%	14	43.8%		
Female	18	56.3%	18	56.3%	36	56.3%

As an inflammatory marker, CRP was highly elevated in crisis than steady state and control groups, being 4.10 mg/dl in crisis patients compared to 0.68 and 0.25 mg/dl in steady crisis than steady state and control groups, being 4.10 mg/dl in crisis patients compared to 0.68 and 0.25 mg/dl in steady



state and control groups respectively. The *P*-value is 0.004, as shown in Table 2 Table 2. Descriptive Statistical results of CRP in all groups.

Parameters		N	Mean	Sig.
CRP (mg/dL)	Crisis	32	4.10	.004
	Steady	32	0.68	
	Control	32	0.25	
	Total	96	1.79	

There is statistically significant difference in C3 level in patients compared to control (*P*-value =0.10). The difference was more prominent during steady state that shows the lowest value compared to patients during crisis and control group; 114, 127 and 138 mg/dl respectively. No such differences were reported in C4, as shown in Table 3. In general, immunoglobulin IgA and IgG are significantly higher in patients, particularly during crisis, compared to control group. Insignificant lowest of IgM in crisis and steady groups than control (*P* value= .481)

Table 3. Descriptive Statistical results of complement and Immunoglobulin in all groups.

Parameters		N	Mean	Sig.
C3(mg/dL)	Crisis	32	127.72	.010
	Steady	32	114.03	
	Control	32	138.37	
	Total	96	126.48	
C4(mg/dL)	Crisis	32	25.41	.703
	Steady	32	23.41	
	Control	32	24.30	
	Total	96	24.41	
IgA(mg/dL)	Crisis	32	347.59	.008
	Steady	32	319.21	
	Control	32	228.63	
	Total	96	301.74	
IgG(mg/dL)	Crisis	32	1833.75	.000
	Steady	32	1877.21	
	Control	32	1219.37	
	Total	96	1659.57	
	Crisis	32	110.66	.481

IgM(mg/dL)	Steady	32	116.00	
	Control	32	130.96	
	Total	96	118.65	

#### 4. DISCUSSION

In this study patients with SCD in crisis showed significantly elevated in CRP values compared with steady state and healthy control groups as shown in other studies[10,3]. Increase in CRP levels is likely to vaso-occlusion and hence blocking the blood flow to organs [10]. There is evidence that patients with sickle cell anemia have moderately increased in C-reactive protein during their symptom-free steady state and significantly increased during painful vaso-occlusive crisis [11,3.12].CRP level was high in steady state patients compare to control but this elevation didn't reach to significant value.

Patients in steady state and crisis showed significantly reduction in C3 values compared with healthy control group specially between steady and control while there is no significantly difference values in C4 among three groups, early work did suggest a reduced functional activity of the alternative pathway, with lower levels of the active form of factor B (the first protein recruited by C3b) .[8] study in 1999 did show an inverse correlation between complement activity and the number of crisis suffered by SCD patients[13]. In patients with severe variant SCD C3 were reduced, these differences however did not reach significance ( $P > 0.05$ ) [14].

In immunoglobulin's levels evaluation there is significantly elevated IgG values in patients with SCD in crisis and steady state groups compared with healthy control group and significantly elevated IgA values in patients with SCD in crisis group compared with healthy control and steady state groups while there is reduce IgM in SCD patients in steady state and crisis compared with healthy control group but this reduction did not reach significance ( $P > 0.05$ ) .

The total spontaneous production of IgG and IgA by mononuclear cells is increased in asymptomatic patients with sickle cell disease [15,16].Chronic

inflammation in sickle cell disease may lead to polyclonal activation of B cells[17]. ( Merck, Sharp, and Dohme, West Point, Pennsylvania) also reported impaired in vitro spontaneous IgM synthesis in SCD patients compared with controls. Both SCD and control subjects had similar spontaneous IgM levels in a study done in Venezuela [16].

From this study we conclude the adaptive immune response in SCD is impaired despite the apparent increase in immunoglobulin level and cell counts. Also the SCD is a state of immune dysregulation that leads eventually to a chronic inflammatory status, during the steady state of the disease, with bouts of exacerbations during sickling crises, and we recommend for further studies to highlight the important points that could not be covered in this study like different cells functions, particularly phagocytic function and lymphocyte subset functions .

#### REFERENCES

- [1] McEwen B S. The neurobiology of stress: From serendipity to clinical relevance. *Brai. Rese. Bull*, 2000; 886: 172-189.
- [2] Segerstrom SC. and Miller GEP .psychological stress and the human immune system: A meta-analytic study of 30 years of inquiry. *Psychol. Bull*, 2004; 130: 601- 630.
- [3] Krishnan S. Setty Y. Betal SG. Vijender V. Rao, K. Dampier C. and Stuart M. Increased levels of the inflammatory biomarker C-reactive protein at baseline are associated with childhood sickle cell vaso-occlusive crises. *Br. J. Haematol.*2010; 148: 797-804.
- [4] Chong Y. Ikematsu H. and Yamaji K. (CD27 (+) )memory) B cell decrease and apoptosis-resistant CD27 (naive) B cell increase in aged humans: implications for age-related peripheral B cell developmental disturbances. *Int. Immunol.*2005; 17:383-90.

- [5] Milalrd D DE, Ceulaer K. Vaidy S. and Sergeant G.R. Serum immunoglobulin levels in children with homozygous sickle cell disease. Clin. Chim. Acta.1982; 125: 81-87.
- [6] Venkataraman M. and Westerman M P. B-cell changes occur in sickle cell anaemia. Am. J. Clin. Path.1985; 84: 153-159.
- [7] Janeway C. and Travers P. Immunology. The immune system in health and disease. 3rd ed.1997; London: Churchill Livingstone.
- [8] Larcher V F. Wyke R J. Defective yeast opsonisation and functional deficiency of complement in sickle cell disease. Arch. Dis. Child.1982; 57: 343-6.
- [9] Boghossian S H. Wright G. Webster D B. and Segal A W. Investigation of host defence in patients with sickle cell disease. Br. J. Haematol.1985; 59: 523-531.
- [10] Bargoma E M. Mitsuyoshi J K. Larkin S K. Styles L A. Kuypers, F A. and Test S.T. Serum C-reactive protein parallels secretory phospholipase A2 in sickle cell disease patients with vaso-occlusive crisis or acute chest syndrome. Blood,2005; 105: 3384-3385.
- [11] Stuart J. Stone P C W. Akinola N O .Monitoring the acute phase response to vaso-occlusive crisis in sickle cell disease. J Clin. Patho.1994; 47: 166-9.
- [12] Rees D C. and Gibson J S. Biomarkers in sickle cell disease. Br. J. Haematol.2011; 156: 433-445.
- [13] Anyaegbu C C. Okpala I E. Aken'ova A Y. And Salimonu L S. Complement haemolytic activity, circulating immune complexes and the morbidity of sickle cell anaemia. APMIS,1999; 107: 699-702.
- [14] Salihcetiner T F. Akoilij Y. Emelakoglu K. And Metinkomi D. Immunological Studies in Sickle Cell Disease: Comparison of Homozygote Mild and Severe Variants. Clin. Immu. and Immunop,1989; 53: 37-39.
- [15] Adeodu O O. Adekile A D. Jeje, A A. and Adedeji F A. Serum Immunoglobulins A and M in sickle cell patients in Ile-Ife. E Afr. Med. J.1989; 66: 631-5.
- [16] Malave I. Escalona E. Perdomo Y. In vitro antibody synthesis by peripheral blood mononuclear cells from patients with sickle cell disease. Acta Haematol.1990; 84: 89-94.
- [17] Catherine B A. Baba I B .and Stephen K O. Infection in sickle cell disease: A review. Intern. J. of Infec. Disea, 2010;14: e2-e12.

INSON QADRI YUQORI BO'LGAN DAVLATDAGI ROVOJLANISH ENG  
SAMARALISIDIR

**Shamsiyev Saidakbar Saidahmad o'g'li**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Talabasi. Telefon +998901021603

[shamsiyevsaidakbar@gmail.com](mailto:shamsiyevsaidakbar@gmail.com)

**Kalit so'zlar:** inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, demokratiya, totalitarizm, mafkura va g'oya.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson huquqlari, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni, globallashuv davrida jamiyat faravonligida muhimlik darajasi, shuningdek, demokratiya va totalitarizm asoslari va asosiy farqlari to'g'risida so'z yuritiladi.

Sir emaski, bugungi dunyo turli qarama-qarshiliklar girdobiga tobora tushib bormoqda. Mamlakatlar o'rtasida ishonchsizlik, dushmandlik ruhi ortib, yangi-yangi siyosiy maydonlarning vujudga kelishi bilan birga eskilarining yana qayta avj olish jarayoni kuzatilmoqda. Bunga turli sabab va vajlarni ko'rsatish mumkin. Misol uchun, iqtisodiy mustaqilligi ortib jahon siyosatida o'z mavqayini mustahkamlashga urinayotgan davlatlar, qudratli iqtisodiy quvvat orqali butun dunyoda yagona tartib o'rnatish uchun kurashayotgan qutb davlatlarining raqobati, an'anaviy jamiyatlardagi rivojlangan g'arb demokratiyasining kirib kelishi orqali vujudga kelayotgan noroziliklar, shu qatorda, mamlakatlarda o'rnatilgan inson huquqlarining turli darajada ekanligi kabi omillar kiritish mumkin. Bu sabablarning har birini keng izohlash mumkin. Quyida faqat inson huquqlari mavjudligi qay darajada jahon siyosatida muhimligi to'g'risida fikr yuritishga harakat qilamiz. Inson huquqlari – bu insonning tug'ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir. Ushbu universal huquqlar millati, jinsi, irqi yoki etnik kelib chiqishi, rangi, dini, tili yoki boshqa huquqiy maqomidan qat'i nazar, barcha uchun xosdir(1). Tarixan qaraydigan bo'lsak, inson paydo bo'libdiki, unda shaxsiy huquq va majburiyatlar mavjud. Insonlar davlatni tuzishdan boshlab ushbu huquqlarining himoyasi davlatga qisman yoki to'liq topshirgan. Lekin davlatlar ushbu huquqlarni turli davrlarda, turli jamiyatlarda qisman yoki to'liq cheklashga, mahrum etishga harakat qilgan va bu hozirda ham davom etib kelyapti. Bu holat turli davlatda turlicha ko'rinishda bo'lgan. Qaysidir davlat buni qonuniy, qaysidir davlat noqonuniy, qaysidir davlat xalq faravonligi ko'zlab, qaysidir davlat ma'lum shaxs yoki guruhning manfaatini ko'zlab buni amalga oshirgan. Natijada ushbu holat qadimgi davrdan to bugungacha davlatlarning vujudga kelishi va yo'q bo'lishi, sivilizatsiyalarning gullab-yashnashi va barbod bo'lishi, xalqlar o'rtasida hamkorlik mustahkamlashishi va qirg'inbarot urushlar vujudga kelishi, tinchlik va beqarorlikka olib keluvchi asosiy omillardan bo'lgan.

Bunday muhim faktorga boshqaruvchi o'laroq bir davlat bee'tibor bo'lishi mantiqqa zid tushunchadir.

Inson huquqlariga bo'lgan e'tibor har bir davlat siyosatida eng ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Tarixda hech bir davlat o'z xalqiga bee'tibor bo'lmagan. Tarixan qaraydigan bo'lsak, har bir davlatda, har bir jamiyatda o'z qo'l ostidagi odamlarni idodatda tutib turish, ularni boshqarish, ularga g'amxorlik qilish kabi masalalar bo'yicha turli qaror, kelishuvlar, fatvo va qonunlar qabul qilingan. Bu holat davrlar o'tishi bilan takomillashib, mukammallashib kelmoqda. Yangi davr Yevropa jamiyati uyg'onish davrida bir qator olimlar inson qadri, uning qobiliyati, imkoniyatlarining cheksizligi kabi turli insoniy g'oyalarni ishlab chiqishdi va targ'ib qilishdi. Natijada ularni bir nom bilan "Gumanistlar" deb ataldi. Aynan ushbu harakatlar keyinchalik G'arb olamida insoniy normalar, qonunlar va huquqlar tushunchasining paydo bo'lishiga bevosita turtki bo'ldi. Ma'rifat asriga kelib ko'plab ma'rifatparvar olimlar demokratiyani inson huquqlari bilan bog'lay boshlashdi. Garchi inson huquqlari insoniyat paydo bo'lgan davrda boshlab vujudga kelgan bo'lsada, ushbu tushuncha XX asrda keng yoyildi. Davlat boshqaruv, siyosatning xalqdan ajralib kichik guruhlar manfaatiga xizmat qilish oqibatida ushbu holat odamlarni turli katta va kichik falokatlardan asrash maqsadida Ikkinchi Jahon urushidan keyin ilk bora "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" qabul qilindi(2). Ushbu deklaratsiya fransuz revolyutsiyasi davrida qabul qilingan "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi" konsepsiyaning aksi bo'ldi(3). Ushbu deklaratsiyasi butun jahon miqyosida barcha davlatlar uchun majburiy bolgan normalarni kiritdi. Unda 3 ta moddada – erkinlik va tenglikning asosiy tamoyillari; 21 ta moddada – fuqarolik va siyosiy huquqlar; ta moddada – ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar; 1 ta moddada – shaxsning majburiyatlari belgilandi(4). Ammo ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng boshlangan ikki qutbli bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan dunyo tartiboti bu deklaratsiyasi barcha joyda bir xil amal qilishiga to'sqinlik qildi. Demokratiya rejimi o'rnatilgan davlatlarda inson huquqlari uning individualligi, qobiliyati, imkoniyatlariga qarab shakllantirilgan bo'lsa, totalitarizm rejimlarida esa davlat, partiya, jamoa manfaatlari asosida tuzib chiqildi. Lekin har ikkisida ham ma'lum miqdorda inson huquqlari cheklash holatlari mavjud edi. Bu shu davr uchun zaruriy va majburiy vosita hisoblandi.

Birinchi o'rinda Totalitar davlatlarda o'rnatilgan inson huquqlariga qaraydigan bo'lsak, ushbu hududlar inson qadri, erkinligi, hayot tarzi davlatning siyosiy va mafkuraviy holatiga moslashtirishga harakat qilindi. Natijada davlatda ochiqchasiga mafkuraga zid fikrlaydiganlarni jamiyat safidan chiqarish mexanizmlari ishga solindi. Bu holat ayanchli tus olishi oqibati, ko'plab millat va elatlarning fikrlash tarzi, hayoti va madaniyati tubdan qayta tug'ila boshladi. Inson huquqlari tushunchasi davlat manfaatlari bilan chambarchas bog'lab tashlandi. Davlat manfaatlari esa shaxs va

partiya manfaatlarida asosida kelib chiqdi. Tan olish kerakki, ushbu holat boshlanish davrida juda ko‘plab noroziliklar, qarama-qarshiliklarni, aytish joiz bo‘lsa minglab, millionlab qurbonlarni keltirib chiqargan bo‘lsada, keyinchalik vaqt o‘tishi bilan jamiyat a‘zolarining hayoti yaxshilanishi, noroziliklarning xalq orasida kamayib borishi, xalqning boshqaruvdan rozilik holatlari ortib borishi, jamiyat hayotining ma‘lum bir siklga tushib borishi kuzatildi. Lekin ushbu tizim qanchalik o‘zini yaxshi ko‘rsatishga harakat qilmasin, u baribir mukammal emas edi. Jamiyatda doimiy o‘zgacha fikrlaydiganlarni ta‘qib ostiga olinishi, yagona mafkuraviy g‘oyani majburan o‘rnatishga urinishlar, faravon kelajak deb talqin qilingan yangi iqtisodiy tizimning o‘zini oqlamaganligi ushbu tizimni barbod bo‘lishida asosiy ro‘l o‘ynadi. Inson huquqlari - insonning erkin fikrlashishini, uni erkin bayon etishi, hayot tarzini o‘zi xohlaganday tashkil etishi kabi normalarni o‘z ichiga olishiga qaraydigan bo‘lsak, totalitarizm uni juda qattiq oshkora tarzda siquvga olganini ko‘ramiz. Insoniyat tomonidan bugungi kungacha eng samarali, ishonchli boshqaruv tizimi - demokratiyadagi inson huquqlariga qaraydigan bo‘lsak, unda biz buning asoschilari g‘arb davlatlariga diqqat bilan e‘tibor berishimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Tarixan qaraydigan bo‘lsak, bugungi G‘arb dunyosi qisqa davrlarni inobatga olmasak, ular hech qachin uzoq muddat totalitarizm yoki mutloq monarxiya shaklida yashamagan. Shu sababli ular inson huquqlari sharqqa nisbatan o‘zgacha yondashuvga ega. Dastavval juda ko‘plab bilimlar, yutuqlar va yangiliklarni sharqdan olgan yevropaliklar, yangi davrga kelib ushbu yutuqlarni o‘z jamiyatiga moslashtirisha boshlashdi. Jamiiki antik davr va sharq renessans bilimlarini o‘rganib, ma‘rifat asrida bugungi kunning asosi bo‘lgan inson huquqlari va demokratiyani ishlab chiqishdi. Ushbu g‘oyalar ta‘siri ostida butun dunyoga egalik qilish, ma‘rifat yoyish, o‘ziga xos erk mayog‘i bo‘lish kabi maqsadlarni ilgari surishdi. Ikki jahon urushi ham mana shu g‘oyalar ta‘siri ostida vujudga keldi. g‘arb jamiyati tabiiy ravishda barcha g‘alaba va mag‘lubiyatlarni, yutuq va kamchiliklarni boshidan kechirishi natijasida rivojlanib keldi va bu holat davom etmoqda. Eng yangi inson huquqlari bo‘yicha falsafiy g‘oyalar ham aynan G‘arb dunyosida ishlab chiqildi. Bugun biz inson huquqlari va erkinliklari gullab-yashnagan hudud sifatida g‘arb poliariyasi ko‘ryapmiz. Lekin ushbu tizim ham boshqalari singari mukammallikdan yiroqdir. Misol uchun, agar totalitarizm rejimlarida mafkuraviy bosim ochiqchasiga singdirilgan bo‘lsa, yevropa bu holat manipulyativ tarzda aholi orasida joriy etildi. Davlat va hukumatlar ikkinchi Jahon urushi yakunidan keyin, o‘ziga maqbul bo‘lgan g‘oyalarning keng tarqalishini rag‘batlantira boshladi. Gazeta, jurnal, ilmiy maqolalar, televideniya va internet orqali hukumat, ayniqsa, siyosiy elitaga ma‘qul bo‘lgan g‘oya va mafkuralar keng ommaga namoyish etildi. Bular mukammal va samarali ekanligiga ishontirildi. Shu bilan birga davlatga qarshi qaratilgan mafkura va g‘oyalar ta‘qib ostiga olinmadi. Shunchaki e‘tiborsiz qoldirildi,

yoki, uning xatoligini isbotlovchi yanada kuchli g'oyalar ishlab chiqarildi. Bundan tashqari bu kabi mafkuralarni jamiyat orasida tarqalmasligi uchun zarur shart-sharoitlar ta'minlandi. Natijada davlat va hukumatmatlarga to'g'ri kelmaydigan fikrlar o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketdi. Buning o'rniga jamiyat ilmiy qatlami demokratiya va inson huquqlari g'arb tamoyillarini yanada mukammallashtirishga kirishib ketdi. Bu esa bugungi kunda G'arbning inson huquqlari eng yaxshi ta'minlanganligini butun dunyoga namoyish etmoqda.

Bugungi globallashuv muhitida inson huquqlariga e'tibor berish har qachongidan ham juda muhim hisoblanadi. Chunki, bugungi siyosiy holat va boshqaruv hukumati xalq bilan bevosita va bilvosita juda ham yaqin bog'langan. Jamiyatdagi fuqarolarning fikri, dunyoqarashi, ilmiy salohiyati va shu kabi xalq sifatleri davlatning suverineta va taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Inson huquqlari va erkinliklari asl ma'nosi nima? Jamiyatda fuqarolarning erkin mehnat qila olishi, erkin yashashi, fikrlashi va uni bayon qilish huquqiga ega bo'lishi, eng asosiysi har bir inson hayotidan ongli tarzda mamnun bo'lishi - bu inson huquq va erkinliklarining ta'minlanganligi belgisidir. Ammo shu ham ta'kidlash kerakki, har bir inson o'z shaxsiy huquq va erkinliklaridan foydalanar ekan, U hech qachon boshqa bir shaxsning huquqlarini paymol qila olmasligi kerak. Ushbu tamoyil davlatda qanchalik adolatli, qonuniy va mustahkam o'rantiqan bo'lsa, u yerda inson huquqlari va erkinliklari mukammal bo'ladi. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, qaysiki davlatda inson huquqlari mustahkam va adolatli bo'lsa, u davlat har doim ijobiy rivojlanishga va taraqqiyotga erishadi. Inson huquqlari bo'yicha hali mukammal dastur ishlab chiqilganicha yo'q. Har bir davlat o'z potensialidan, xalqidan kelib chiqqan holda ushbu huquqarni ishlab chiqsa va joriy etsa, albatta, tezda samarali yutuqqa erishdi. Bunga yorqin misol sifatida rivojlangan g'artb davlatrini olsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. *Inson Huquqlari bo'yicha o'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi*. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. (n.d.). <http://insonhuquqlari.uz/oz/menu/chtotakoe-prava-cheloveka>
2. Inson Huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. (n.d.). <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
3. Wikimedia Foundation. (2022, November 20). *Inson va Fuqaro Huquqlari deklaratsiyasi*. Wikipedia. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson\\_va\\_fuqaro\\_huquqlari\\_deklaratsiyasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_va_fuqaro_huquqlari_deklaratsiyasi)
4. *Inson Huquqlari umumjahon DEKLARATSIYASINING ahamiyati*. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. (n.d.-b). <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m10976>



## NUTQDAGI NUQSONLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI.

**Narziyeva Sarvinoz Jamshid qizi**

*Buxoro shahar Osiyo Xalqaro Universiteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini o'rganish va nutq nuqsoniga ega bolalarda mustaqil nutqni rivojlantirish usullarini, logoped, tarbiyachi va ota-onalar bilan suhbat o'tkazish. Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan va nutq nuqsoniga ega bolalarning mustaqil nutqini rivojlantirishni takomillashtirish hamda tasniflash haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Nevrotik duduqlanish, nevrosimon duduqlanish, kognitiv, kognitiv va affektiv jabhalar, genetik, ijtimoiy va shaxsiy omillar, fonetik, leksik va grammatik vositalar.

Korreksion pedagogika fani rivojlanib borib, ayrim sohalari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Shu fanlar jumlasiga logopediya ham kiradi. Logopediya (logos - so'z, padeo - tar- biyalash, o'rgatish degan ma'noni anglatadi) - pedagogik fanlardan biri bo'lib, nutq kamchiliklari va ularning sabablarini o'rganish, shuningdek, bularning oldini olish, borlarini bartaraf etish uchun maxsus ta'lim-tarbiya vositalari va metodlarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish masalalari bilan shug'ullanadi. Logopediya fani mavzu bahsi, nutq kamchiligi bor kishilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni. Nutq kamchiligi bor kishi esa logopediya fanining o'rganish mavzusi hisoblanadi. Hozirgi zamon logopediyasiga maktabgacha yoshdagi bolalar logopediyasi, o'smirlar hamda kattalar logopediyasi, maktab yoshdagi bolalar logopediyasi kiradi. Logopediya fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Turli xil nutq kamchiliklari bor kishilarning nutq faoliyati ontogenezini o'rganish.
- Nutq kamchiliklarining sabablari va simptomatikasi, ularning turlari, kelib chiqish mexanizmlarini o'rganish, dara- jasini aniqlash.
- Nutq kamchiliklar ini kishi faoliyati, shaxsiyati, xulq-atvori, ruhiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish.
- Eshitish, ko'rish, intellektual va boshqa kamchiliklarga ega bo'lgan anomal bolalar nutqiy faoliyatining ahvoli, yetish- movcbiliklarini o'rganish, aniqlash.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa tibbiyotining nutq buzilishlarini o'rganish borasida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarining katta ta'siri bo'lib, A.Kusmaul nutq buzilishlarining dastlabki turlari haqidagi yig'ilgan tasavvurlarini tanqid ostiga oldi; ularni sistemalashtirdi, atamalarni tartibga keltirdi. XX asr boshida chet ellik va rus tadqiqotchilari V.Oltushevskiy, G.Gutsman, E.Freshels, S.M.Dobrogayevlarning

ishlarida asos qilib olindi. Buning umumiy tomoni ko'p edi; etlopotogeneztik mezon bilan to'ldirilgan klinik yondashuv, buzilishlarning alohida turlari bilan kasallikning u yoki bu patalogik shakli o'rtasidagi bog'lanish, bunday xollarda nutq buzilishlari ko'pincha u yoki bu kasallikning alomati sifatida talqin qilinadi edi, shuningdek, tasnif tili bunda lotin va grekcha so'z yasovchi elementlaridan tashkil topgan atamalardan qo'lanilgan. Tasniflar o'rtasida buzilishlarni guruhlashning turli prinsiplari, shuningdek, u yoki bu mezonni tasniflashning muhimlik darajasiga bo'lgan qarashlaridagi ayrim qaramaqarshiliklar bilan bog'liq nomutanosibliklar ham kuzatiladi. Mutaxassislar nutqning o'z vaqtida rivojlanmasligi yoki keskin sekinlashuvining sabablari juda ko'p ekanligini aniqlashgan: - Homiladorlik davri (perinatal davri); - Tug'ruq davri (natal davri); - Tug'ruqdan keyingi davr (postnatal davr). Homiladorlik davrida turli xil kasalliklarni boshdan kechirish, turli xil infeksiyalar, intoksikatsiya, homila toksikozi, gepoksiya yoki kislorod yo'qotish, qon bosimining oshishi, homilador ayol va homila qon guruhining mos kelmasligi. Homiladorlik paytida sigaret, alkogol va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish, o'z-o'zini davolash, ya'ni ayrim doridarmonlarni qabul qilish. Homiladorning homila uchun xavfli bo'lgan joylarda ishlashi (radiatsiya). Tug'ruq davrida akusherlik patologiyalari ya'ni, tos suyagining kichkinaligi, homilaning kindik o'qiga o'ralishi. Tug'ruqdan oldin suv ketishi, homilaning noto'g'ri joylashishi, tug'ruq jarayonida bosh miyaning jarohatlanishi, tug'ruq jarayonidagi asfiksiya natijasida bolaning ko'karib tug'ilishi.

Tug'ruqdan keyingi davr - 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davrda bosh miyadan turli xil jarohatlarni olish, bosh miyadagi infeksiyalar, turli xil yuqumli kasalliklar sababli yuzaga keladi. Nutq nuqsonlarini tasniflashda birinchi navbatda bolaning ruhiy, aqliy va eshitish idroki tekshirib olinadi. Nutq nuqsonlari og'ir-yengilligiga qarab guruhlarga ajratiladi. 1. Dislaliya – bu artikulyatsion apparat a'zolari normal innervatsiyasida yuzaga kelgan logopatsiya bo'lib, asosan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ba'zan fonematik idrok rivojlanmaganligi bilan namoyon bo'ladigan yengil nutq nuqsoni. 2. Dizartriya - bu artikulyatsion apparat a'zolari innervatsiyasining organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni bo'lib, juft neyronlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Falajlanish asosan bir tarafdin, chap yoki o'ng tarafdin bo'ladi. Bola tili asosan paretik falajlangan bo'shshagan yoki spastik, ya'ni tarang falajlanishda bo'ladi. 3. Alaliya - bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni bo'lib, bu tashxis eshitishi va zakovati me'yorda bo'lgan shaxslarga qo'yiladi.

Bola nutqining bosh miya jarohatlanishi, neyroinfeksiya yoki, miya shishi natijasida yo'qolishi nutqning shakllanib bo'lganidan so'ng yuz beradi. Agar bunday buzilish uch yoshdan so'ng sodir bo'lsa, unda bolalar afaziyasi deb nomlanadi. Agar

buzilish kattaroq yoshda yuz bergan bo'lsa, unda afaziya haqida fikr yuritiladi. Yozma nutqning buzilishi. Uning qaysi turi buzilganiga qarab ikki guruxga ajratiladi. Maxsuldor tur buzilganida yozuvning zaiflashuvi, reseptli yozma faoliyat buzilganida - o'qishning zaiflashuvi qayd qilinadi.

1. Disleksiya - o'qish jarayonining qisman o'ziga xos buzilishi. Harflarni idrok etish va tanishdagi qiyinchiliklarda; harflarni bo'g'inlarga qo'shish va bo'g'inlardan so'z tuzish borasidagi tutilishlarda (bu so'z shakllarini noto'g'ri talqin qilishga olib keladi); agrammatizm va o'qiganlarini buzib tushinishda namoyon bo'ladi.

2. Disgrafiya - yozish jarayonining qisman o'ziga xos ravishda buzilishi. Harfning optik-fazoviy obrazining turg'un emasligida, harflarning aralashib ketishi yoki tushib qolishida, so'zning so'z-bo'g'in tarkibini bayon qilish va gap qurilishida. namoyon bo'ladi. O'qitish davomida yozish jarayoni shakllanmagan xollarida agrafiya haqida fikr yuritiladi.

Bolalardagi yozish va o'qishning buzilishi bu jarayonlarni to'liq holda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va kunikmalarni uzlashtirishdagi qiyinchiliklar orqali yuzaga keladi. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, bu qiyinchiliklar og'zaki nutqdagi nuqsonlar (optik shakllardan tashkari), tovush tahlili ishining shakllanmagani va ixtiyoriy diqqatning bekarorligi bilan bog'liq bo'ladi. Bolalardagi yozish va o'qishning buzilishini yozish, o'qishdagi bilim va kunikmalarning yuqolishidan, shuningdek afaziya paytida yuzaga keladigan disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya) day ajrata bilmok lozim. Shunday kilib, logopediyada nutq buzilishlarining 11 ta shakli ajratiladi, ulardan 9 tasi orzaki nutq natijasi va ishlab chiqarishning turli jarayonlaridagi buzilishlarni tashkil etadi. Qolgan 2 ta shakl esa yozma nutqning buzilish jarayoni bilan bog'liq holda ajratiladigan buzilishlarni uz ichiga oladi. Og'zaki nutqning buzilishlari orasida disfoniya (afoniya), taxilaliya, bradilaliya, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya (anartriya), alaliya, afaziya ajratiladi; yozma nutqning buzilishlari orasida disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya) ajratiladi. Psixologik-pedagogik tasnif tibbiy tasniflarni pedagogik jarayonda qo'llanish nuqtai nazaridan tankidiy tahlil qilish natijasida vujudga keldi (bu uslub logopedik ta'sir etish deyiladi). Bunday tahlil logopediyani nutqiy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashga jalb etish bilan bog'liq holda juda muhim buldi. Olimlarning ilmiy izlanishlari e'tibori bolalar jamoasi bilan ishlash uchun zarur bo'lgan logopedik ta'sir etish metodlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan edi. Buning uchun bolalardagi nutqning nonormal rivojlanishining turli shakllaridagi nuqsonlarning umumiy ko'rinishi, ayniqsa, o'qish jarayonida tuzatish uchun dolzarb hisoblanganlarini topish zarur edi. Bunday yondashuv buzilishlarni guruhlashda boshqacha prinsipni talab kildi. Bu shunday prinsipki, tibbiy tasniflash (umumiydan xususiyga emas, balki xususiydan umumiy-ga

bo`lgan) uning asosiga ko`riladi. Bu uni lingvistik va ruhiy mezonlar asosida ko`rishga imkoniyat yaratdi. Ular orasida Nutq sistemasining tuzilish komponenti (tovush tomoni, gram-matik tuzilishi, lug`at zonasi), nutqning funksional jihatlari, nutqiy faoliyat turlarining (og`zaki va yozma) o`zaro aloqadorligi hisobga olinadi. Keltirilgan tasnifda nutq buzilishlari ikki guruhga bo`linadi. Birinchi gurux — muomala vositalarining (nutqning fonetik-fonematik va umumiy rivojlanmay qolishi) buzilishi.

1. Nutqning fonetik-fonematik rivojlanmay qolishi - bolalarda ona tilini talaffuz qilish sistemasi shakllanish jarayonlarining fonemalarini idrok etish va talaffuzdagi nuqsonlar oqibatida turlicha Nutq zaiflashuvlari bilan bog`liq ravishda buzilishidir.

2. Nutqning to`liq rivojlanmay qolishi — turli xil murakkab Nutqiy kamchilikdir, bunda nutq sistemasining tovush chiqarish va ma`noli tomonlariga taallukli barcha komponentlarining shakllanish jarayoni buzilgan bo`ladi. Yuqoridagi tasnifda yozish va o`qishning buzilishi alohida nutq buzilishi sifatida ajratilmaydi. Tasniflashda sistemali yondashuv prinsipiga izchil tayanish aks etadi, uning asosida ikkita o`zaro bog`lanish hisobga olinadi: nutqiy faoliyat sistemasidagi buzilishlarning o`zaro bog`lanishi va bolaning bir ko`rinishdagi ruhiy jarayoni hamda boshqa ruhiy tomonlaridagi buzilishlarning o`zaro aloqadorligi, ularning rivojlanishi nutq bilan uzviy bog`langandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ayupova.M.Y. —Logopediya O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent – 2007.
2. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi Ma`ruza matni .T-2001
3. L.R.Mo`minova ,SH.M.Amirsaidova ,M.U.Xamidva –Maxsus psixologiya O`zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.Toshkent -2013
4. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniye chrestomatiya - Exmo-Press.

## EKSTREMAL VAZIYATLARDA SHAXSGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

**Hamroyeva Madinabonu Ismatilloevna**

**Annotatsiya:** Shoshilinch psixologik yordam-bu favquloda vaziyatlarda ko'rsatiladigan psixologik faoliyat turi. Bu psixologning kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishi kerak bo'lgan maxsus sharoitlar bilan bog'liq bo'lib, insonning kognitiv va shaxsiy sohalariga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatadigan hodisadan so'ng darhol shoshilinch psixologik yordam ko'rsatish zarur. Bu texnogen yoki tabiiy favqulodda vaziyatlar bo'lishi mumkin, yo'l - transport hodisalari, yaqin kishining o'limi kabi ta'sirlardan kelib chiqadigan stressli omillar.

**Kalit so'zlar:** shoshilinch psixologik yordam, hissiy, emotsional, jabrlanuvchilar, psixologik, ta'sir, shaxs, vaziyatlar.

Ma'lumki, yangi jamiyatni qurish jarayonida uning barcha tashkil qiluvchi tomonlarini birdek o'rganib, yagona maqsad sari harakat qilishimiz mamlakatimizga nisbatan yuksak e'tirofimizni namoyon qiladi. Bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotda inson turli vaziyatlarga duch keladi. Umrimiz davomida qiyinchliklar, tashqi va ichki to'siqlar va zo'riqish, og'ir ruhiy zarbalar kabi dolzarb muammolarga ko'p duch kelamiz. Bunday vaziyatlarda insonlar tushkunlikka tushishi, asabiylashishi, stress, depressiya holatlariga tushib qolish ehtimoli yuqori. Ekstremal vaziyatlarni o'rganish va ularga yechim izlashning muhimlik darajasi juda yuqori. Bu holat ayniqsa, yoshlar orasida avjli pallaga aylanib bormoqda. Mana shunday holatlaning oldini olish, aholiga ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat ko'rsatishning ahamiyati salmoqlidir. Sababi ruhiyati sog'lom bo'lgan inson ham jismonan ham ma'nan barkamol inson bo'lib yetishadi. Ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya muammosining ilmiy adabiyotlarda yoritilishi Ma'lumki, ekstremal psixologiya fanida aynan ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya muammosiga bag'ishlangan va uning barcha yo'nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo'lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya muammosining zarurligini ko'rsata oluvchi va uning metodologik ildizlarini asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin. Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi psixologik himoya metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to'g'ri keladi.

Tibbiy yordam ko'rsatishni mo'ljallang. Jabrlanuvchida jismoniy jarohatlar singan, joylari yurak holati bilan qiziqish kerak. Zarur bo'lsa vrach tez yordam chaqirish zarur, qandaydir sabab orqali medesina yordami darhol ko'rsatilmay qolishi mumkin. Bunday vaziyatda sizning harakatingiz quyidagiday bo'lishi kerak. Jabrlanuvchiga

yordam kelishi haqida xabar bering. Unga bunday holatda qanday qilsa unga o'ngay bo'lishini maslahat bering: qanday qilib kuchni tejash mumkin, chuqur nafas olmaslik, nafasni sekin burundan olishi kerak bu organizimda kislarodni tejash imkoniyatini beradi, hattoki atrofdagi kislorodni tejashga ham, jabrlanuvchiga o'zini-o'zi qutqarish uchun harakat qilishini taqiqlang. Ekstremal faktorlar sababli psixologik jarohat olgan kishining yonida bo'lgan paytingizda (terrorchilik hujumi paytida, halokatda, yaqin kishisini yo'qotganda, mudhish xabar olganda, jismoniy yoki jinsiy zo'rlikda, va hakoza) jabrlanuvchining holati sizni hayron qoldirmasligi, qo'rqitmasligi yoki boshqa tasir ko'rsatmasligi kerak uning holati, harakatlari, hayojoni, noodatiy holga odatiy aks javob. Yordam beraolmasligingizni sezsangiz, sizga noxush bo'lsa yaxshisi u bilan muloqotda bo'lmang, nima uchun deganda inson chin dildan qilinmagan harakatni to'xtash holatidan, yuz qo'l harakatidan imo-ishoradan, talaffuzdan, va yordamlashish harakatidan yani jismoniy harakat sezadi va sizning chin ko'ngildan lekin ishonchsizlik bilan qilgan harakat muvoffaqiyatsiz bilan tugashi mumkin yaxshisi yordam beradigan boshqa kishini topish kerak. Agar odam uzoq vaqt stressni boshdan kechirsa, lekin hech qanday natijaga erishmasa yoki jiddiy muvaffaqiyatsizlik tufayli o'z faoliyatining ma'nosini ko'rishni to'xtatsa, apatiya paydo bo'lishi mumkin. Favqulodda vaziyatda, agar kimdir qutqara olmasa yoki yaqin odami vafot etgan bo'lsa, bu sodir bo'lishi mumkin. Natijada, charchoq hissi paydo bo'ladi, bu holatda odam qimirlashni yoki gapirishni xohlamaydi, his -tuyg'ularini ko'rsatishga ham kuch yo'q. Bir kishi bir necha soatdan bir necha haftagacha apatiya holatida qolishi mumkin. Agar siz bunday holatda bo'lgan odamga kerakli psixologik yordam ko'rsatmasangiz, befarqlik depressiyaga aylanishi mumkin. Apatiyaning asosiy belgilari atrof -muhitga befarq munosabatda namoyon bo'ladi. Shoshilinch psixologik yordam-bu favquloda vaziyatlarda ko'rsatiladigan psixologik faoliyat turi. Bu psixologning kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishi kerak bo'lgan maxsus sharoitlar bilan bog'liq bo'lib, insonning kognitiv va shaxsiy sohalariga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatadigan hodisadan so'ng darhol shoshilinch psixologik yordam ko'rsatish zarur. Bu texnogen yoki tabiiy favqulodda vaziyatlar bo'lishi mumkin, yo'l - transport hodisalari, yaqin kishining o'limi kabi ta'sirlardan kelib chiqadigan stressli omillar. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, shoshilinch psixologik yordam kuchli stressli ta'sirga duch kelgan odamlarga qisqa muddatli yordamdir. Stressni boshdan kechirishning o'ziga xos xususiyatlari va u bilan kurashish usullari haqida psixokonsultatsiya nafaqat jabrlanganlarga, balki ularning yaqinlariga, qarindoshlariga, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda ishlaydigan mutaxassislariga o'tkaziladi.

Jismoniy harakatni boshqara olmaslik Seresga qarshi o'tkir aks holatda harakatni boshqara olmaslik paytida yuzaga keladi. Atrofdagilar uchun va o'zi uchun

xavfli bo'lishi mumkin. Bu holatda jabrlanuvchini jismoniy jihatdan to'xtatishga harakat qiling. Yordam berishga harakat qilishdan oldin o'zingizning imkoniyatlaringizni chegaralab ko'ring. Psixologik yordam agar jabrlanuvchi o'z holatiga javob bera olsagina ko'rsatiladi. Jabrlanuvchiga uning diqqatini jalb qiluvchi harakat yoki biron harakatga undovchi gap ayting. Intelektual (fikrlashga undovchi) faoliyat jismoniy faollikni chegaralaydi. "Sayr qilishni taklif qiling bir nechta jismoniy mashqlar bajartiring. Biron jismoniy ishni (biron narsa olib kelish yoki biron jismning o'rnini almashtirish) uning jismoniy charchashini taminlash kerak."2 Nafas olish mashqlarini bajarish tavsiya etiladi. Tikka turgan holda sekin nafas oldiring, nafas bilan oldin ko'krak qafasini keyin qorin bo'shlig'ini to'ldiring, nafas chiqarganda teskarisini oldin o'pkaning past qismidan keyin yuqori qismidan chiqariladi. 1-2 soniya to'xtab-to'xtab qiling mashqni bir marta takrorlang. Sekin-sekin nafas olish kerak aks holda kislarodning ko'p borishidan bosh aylanishi mumkin. Sekin chuqur nafas olishni davom etiring har nafas chiqarishda bo'shating qulayingizni kiftingizni yelkangizni bo'shashtiring xuddi ichingizdagi og'irligingizni chiqarayotganday his qilng 3-4 nafas chiqarib nafas oling.

XULOSA Shunday qilib, ekstremal va favqulodda vaziyatlar inson hayotining barcha sohalarida sodir bo'ladi. Har bir inson hayoti davomida o'zi uchun o'ta og'ir bo'lgan bir qator vaziyatlarga ega. Shuning uchun har kim favqulodda vaziyatda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarga muhtoj. Mamlakatimizning yuksalishi yoshlarning qo'lida ekan, biz ularning ham jismonan ham ruhan sog'lom bo'lib kamolga yetishlariga alohida e'tibor berishimiz kerak. Nafaqat yoshlarga balki, barcha aholiga eskremal vaziyatlarda muammoning to'g'ri yechimini topishlarida ko'maklashishimiz va ularni ruhan pok inson bo'lishlarida bir vosita bo'lmog'imiz lozim. Bizning izlanishlarimiz va tadqiqodlarimizning negizida ham shu maqsad yotadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

5. Safarov, M., Normamatov, R., Abbosov, N., & Sayfullayeva, M. (2023). ANALYSIS OF INSECTICIDES AND ACARICIDES USED IN THE TERRITORY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(8), 26-29.
6. Salimov, Y., Jalilov, F. S., Hamzayev, K. B., & Safarov, M. B. Veterinariya farmakologiyasi” fani bo ‘yicha o ‘quv uslubiy majmua. *Toshkent-2022*.
7. Salimov, Y., Jalilov, F. S., Hamzayev, K. B., & Safarov, M. B. Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi” fani bo ‘yicha o ‘quv uslubiy majmua. *Toshkent-2022*.
8. Shapulatova, Z., Safarov, M., & Jaxongirov, S. (2022). МЕРЫ ПО ПРОФИЛАКТИКЕ СИБИРСКОЙ ЯЗВЫ И БОРЬБЕ С ЭПИЗООТИЯМИ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 2(1).
9. X. S. Salimov, A.A.Qambarov, Epizootologiya. Samarqand. 2016 y.

**TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA HAMKORLIKNING AHAMIYATI**

**Umarova Amina Norqul qizi**

*“Texnologik ta’lim” yo’nalishi 2-kurs talabasi*

*Navoiy davlat pedagogika instituti*

**Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof. D.Kamalova**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim tizimidagi yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Fanlardagi hamkorlikning ta’lim muassasalarida joriy etilishining ijobiy tomonlari ko’rsatib o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** ta’lim, texnologiya, hamkorlik, pedagogika, an’anaviy yondashuv, texnologik yondashuv, tadqiqiy-ijodiy yondashuv, o’quvchi, o’qituvchi.

Respublikamiz milliy va ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotining muvaffaqiyatlarini belgilab beruvchi tub vazifalarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda barcha ta’lim muassasalarida pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa ta’lim va tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvni talab qiladi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoniga an’anaviy yondashuv, tizimli yondashuv, texnologik yondashuv, tadqiqiy yondashuv, funksional yondashuv, kompleks yondashuv, faoliyatli yondashuv, aksiomatik yondashuv, muammoli-modulli yondashuvlar mavjud bo’lib, amalda qo’llanilib kelinmoqda.

XXI asr aql-zakovat va texnik taraqqiyot asri bo’ladi. Shunga asosan ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha, texnologik yondashish ehtiyojining tug’ilishi tabiiy holdir. Amaliyotga keng qo’llanilayotgan yondashuvlarda ta’lim turlaridan foydalanish, ularni amalda qo’llash o’z navbatida o’qituvchidan yuksak professionalizmni, ijodkorlikni talab etadi. Ammo, texnologik yondashuv o’qituvchidan ijodkorlikni, mustaqil o’qish, mustaqil tahlil qilish, xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. Natijada fan-texnika taraqqiyotining o’ta rivojlangan bir davrida axborotlarning keskin ko’payishi va ularni mustaqil o’zlashtirish imkonini beradigan yondashuv – bu texnologik yondashuvdir.

Ta’limga turli yondashuvlar mohiyatiga qisqacha to’xtalib o’tsak:

Ta’limga an’anaviy yondashuv – buyuk chex pedagogi Komenskiy davridan qo’llanilib kelmoqda va o’tgan davrlar ichida ta’limning samarali turlaridan biri bo’lib kelgan va bo’lib qolmoqda. Bu ta’lim turini tushuntiruvchi ko’rsatmali ta’lim deb ham ataydilar. Bunda o’qituvchi tomonidan bilimlar bayon qilingan ma’lumotlar xotirada saqlanadi va mustahkamlanadi. Demak, ta’limga an’anaviy yondashuv o’qituvchi – o’quvchi zanjirida amalga oshadi. O’qituvchi kerakli ma’lumotlarni so’zlab beradi, tushuntiradi, ko’rsatadi, namuna beradi, isbotlaydi, talab qiladi, natija oladi, o’quvchi esa tayyor ma’lumotlarni, ya’ni o’qituvchidan eshitganlarni idrok qiladi, xotirasida

saqlaydi va aytib beradi hamda o'zlashtirilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi, kerak bo'lgan vaqtdagina undan foydalanadi.

Bunday ta'limning markazida albatta o'qituvchi turadi. An'anaviy ta'limning qator afzalliklari bilan birga kamchiliklari ham mavjuddir.

Texnologik yondashuvda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, ishlab chiqarishda texnik operatsiyalar, hujjatlar talablarga aniq rioya qilinib, ishtirokchining salohiyatiga bog'liq bo'lmagan holda ko'zlangan va kafolatlangan natijani beradigan texnologik jarayonlar, mahsulot ishlab chiqarishning yagona jarayonini hosil qiluvchi operatsiyalar yig'indisi ishlab chiqilgan. Bunday texnologik jarayonning asosi sifatida ishchi bajarishi lozim bo'lgan texnik qoidalar, talablar, grafiklar mavjudki, ularga qat'iy rioya qilish natijasida ish kim tomonidan va qayerda bajarilganligidan qat'iy nazar, mahsulot sifati va natija qo'lga kiritiladi. Buni sanoatda texnologik jarayonning takrorlanadigan va qayta tiklanadigan texnik tuzilmasi hisoblanadi. Demak, ta'limda texnologik yondashuvda ham takrorlanadigan, qayta tiklanadigan jarayonni tarkib toptirish, mazkur yondashuvning birinchi sharti hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya ishlarida qayta tiklanadigan, takrorlanadigan tuzilmani yaratish biroz murakkabroq, bunga o'quv-tarbiya ishtirokchilarining qobiliyati, o'quv ma'lumotlarini bayon qiluvchilarning texnologik-uslubiy saviyasining turli xilligi, ta'lim mazmuni, o'quv material turlarining xilma-xilligi, o'quvchi-talabalarning faoliyatining bir xilda namoyon bo'lmasligi va boshqa sabablar to'sqinlik qiladi. Ammo, bu bajarilishi mumkin bo'lgan holdir.

Zero, ta'lim samaradorligining kaliti, Farberman ta'kidlaganidek, "Bilim yurti o'qituvchi va o'quvchining qo'lida ekan, bilim shart-sharoiti, o'qituvchi faoliyatining texnologiyalashtirishni, texnologiyani o'zlashtirish, asosini pedagoglarni qayta tayyorlash orqali erishish mumkin".

Ta'limda tadqiqiy-ijodiy yondashuvda – o'quvchilarda mustaqil o'qish-o'rganishni tarkib toptirish, muammolarni ochish qobiliyatini o'stirish, yangi bilim va tajribalarni tadqiqiy nuqtai nazarda o'zlashtirish, ularni o'rganish yo'llarini izlab topish, malakalarini o'stirish asosida maqsad qilib qo'yiladi.

Tadqiqiy ijodiy ta'limda faoliyatga mustaqillik beriladi, talaba ijodiy, faol ish ko'radi. Ma'lumotlar mazmunidan zarur, kerak, talab etilayotgan muammoni o'zi izlab topishga harakat qiladi. Bu harakatlar, ishlanishlar, albatta pedagog tomonidan boshqariladi, yo'naltiriladi va rag'batlantiriladi. Talabaning mustaqilligi, tashabbuskorligi, izlanuvchanligi pedagog tomonidan qo'llab-quvvatlansa, bolaning qiziqishlari, fikrlari rag'batlantirib borilsa, tadqiqiy-ijodiy ta'lim texnologiyasi o'z muddaosiga yetadi. Bunday yondashuv hozirgi ilmiy pedagogika nazariyasi va amaliyotida mahsuldor pedagogik texnologiya varianti hisoblanadi.



Tadqiqiy-ijodiy ta'lim tajribalarning ko'rsatishicha, o'qitish ishlarining teatrlashtirilgan rolli o'yinlar, muammoli ma'ruza, bahs-munozara kabi shakllari va aqliy hujum, tanqidiy fikrlash, kichik guruhlarda ishlash, munozara kabi ta'lim metodlarini qo'llash yordamida o'tkazilsa maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiya tizimida tadqiqiy ijodiy yondashuv katta ahamiyat kasb etadi. U katta kuch, mablag' va texnika vositalarini talab etmaydi. Shuning uchun maktabbop va o'qituvchilarga qulay. Ammo, shu o'rinda shuni ham e'tirof etish joizki ta'limga yondashuvning har birining tadbiq etish sohasi mavjud. Shunga asosan, ta'lim-tarbiya jarayonini qayd etilgan yondashuvlar bo'yicha tashkil etishda ularning bir-birini to'ldiruvchi tomonlaridan optimal foydalanilsa maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Д.И.Камалова, Н.Ф.Буранова, У.Б.Саидова. “Астрономический кружок – путь к повышению уровня знаний учащихся”. “Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы” научный журнал. Январь. 2015. №1(10).
2. Н.О.Жо'раев, Ш.Н.Қулиева, Ф.С.То'рабеков, М.Н.Каримова. “Техник ijodkorlik va dizayn”. Т. Turon zamin ziyo nashriyoti. 2015.
3. Д.И.Камалова, Г.Турлибаева. “Современные инновационные методы в подготовке будущего учителя”. “Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы” научный журнал. Таганрог. 2016. №2(17).
4. D.I.Kamalova, Sh.M.Mansurova, M.E.Omonboyeva. “Technique of laboratory works in physics using information technologies”. “Science and education”. July. 2020. Volume 1. Issue 4. pp. 145-148.
5. D.I.Kamalova, M.A.Quvvatova, G.V.Mardonova. “Современные методы преподавания и проведения лабораторных занятий в педагогических вузах”. International scientific-online conference “Innovation in the modern education system”. Washington, USA. Part 12. November 25. 2021. pp. 207-211.
6. D.I.Kamalova, Y.O'.Mardanova. “The role of pedagogical competencies in improving technical knowledge of students in the higher education system”. International scientific-online conference “Innovation in the modern education system”. Washington, USA. Part 12. November 25. 2021. pp. 434-437.
7. D.I.Kamalova, L.X.Turabova. “Fizika fanini o'qitishda elektron o'quv qo'llanmalardan foydalanishning ahamiyati”. “Polish science journal” International scientific journal. Warsaw, Poland. Issue 4(37). April. 2021. pp. 222-225.
8. Л.Н.Музаффарова, Д.И.Камалова. “Связь математики с естественными науками”. “Science and education”. April. 2021. Volume 2. Issue 4. pp. 593-603.
9. D.I.Kamalova, Y.O'.Mardanova. “Nutzung pädagogischer kompetenzen beim entwicklung technischen wissens von studierenden im e-learning-umfeld”. “Berlin

Studies” transnational journal of science and humanities. Germany. Volume 1. Issue 1.5. November. 2021. pp. 405-411.

10. D.I.Kamalova, S.O.Hamidova, M.N.Kubayev. “Methodology of teaching physics with innovative methods”. “Innovative society: Problems, analysis and development prospects” International conference. Germany. February 7. 2022. pp. 168-169.

11. D.I.Kamalova, S.O.Hamidova, O.D.O’rinova, M.E.Omonboyeva. “Elektron o’quv adabiyotlarini ishlab chiqish jarayonlari”. “Science and innovation” International scientific journal. Volume 1. Issue 8. November. 2022. pp. 318-321.

12. D.I.Kamalova, I.R.Kamolov, M.E.Omonboyeva. “Methodology of application of innovative educational technologies to the process of physics and astronomy education”. “International Journal of Early Childhood Special Education”. (INT-JECSE). DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.267 ISSN: 1308-5581 Volume. 14. Issue. 06. 2022. pp. 2144-2146. Web of Science.

13. D.I.Kamalova, M.E.Omonboyeva. “Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy prinsip va qoidalari”. “Science and innovation” International scientific journal. Volume 1. Issue 8. December. 2022. pp. 1989-1992.

14. H.O.Uzoqov, A.R.Jo’rayev, Sh.H.Quliyeva, M.N.Karimova. “Texnik ijodkorlik va dizayn”. T. Fan. 2022.

15. H.O.Uzoqov, H.O.Jo’rayev, D.PNazarova, Sh.H.Quliyeva, M.N.Karimova. “Texnik ijodkorlik va dizayn”. Buxoro. Kamolot nashriyoti. 2022.

16. D.I.Kamalova, S.O.Hamidova. “PISA dasturi – o’quvchilarning savodxonligini baholash bo’yicha Xalqaro dastur”. “O’qituvchi” ilmiy, uslubiy, metodik va badiiy jurnal. Farg’ona. №7(27). Mart. 2022. 51-54 bet.

17. D.I.Kamalova, O.D.O’rinova, S.O.Hamidova. “Fizika fanini o’qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o’rni va ahamiyati”. “Science and innovation” International scientific journal. Volume 1. Issue 8. December. 2022. pp. 1745-1747.

18. D.I.Kamalova, M.E.Omonboyeva. “O’quv jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati”. “Science and innovation” International scientific journal. Volume 1. Issue 8. December. 2022. pp. 1974-1977.

19. D.I.Kamalova. “AutoPlay dasturidan foydalanib elektron o’quv uslubiy majmua yaratish va undan ta’lim samaradorligini oshirishda foydalanish”. “Science and innovation” International scientific journal. Volume 1. Issue 8. December. 2022. pp. 1978-1981.

20. D.I.Kamalova, S.O.Hamidova, N.Q.Ibragimova. "PISA – advantages of the international program". "Science and education" scientific journal. April. 2022. Volume 3. Issue 4. pp. 1051-1054.

21. D.I.Kamalova, S.N.Abdisalomova. "Zamonaviy innovatsion ta'lim". "Journal of universal science research" International scientific journal. Volume 1. Issue 1. 2023. pp. 187-189.

22. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. Texnologiya fanini o'qitishning muhim jihatlari. Conference of universal science research 2023. Volume 1. Issue 10. 19 october. 2023. Tashkent. Uzbekistan. pp. 111-113.

23. D.I.Kamalova, S.N.Abdisalomova. "Zamonaviy axborot texnologiyalari". Conference on universal science research 2023. Volume 1. №1. 2023. pp. 76-79.

24. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. "Zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish". "Ijodkor o'qituvchi" ilmiy-uslubiy jurnali. №34. 5-dekabr. 2023. Toshkent. 67-68 bet.

25. D.I.Kamalova, O.D.O'rinova, S.O.Hamidova. "Mustaqil ta'limni tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar". "Journal of universal science research". Volume 1. Issue 1. 17 january. 2023. pp. 182-186.

26. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. "Professional ta'lim tizimini rivojlantirish zarurati va fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatlari". "Новости образования: Исследование в XXI веке". №17(100). Россия. Январь. 2024. Часть 1. 10-11 стр.

27. D.I.Kamalova, M.E.Omonboyeva. "Ta'lim tizimida kreativlik potensialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari". "Journal of science-innovative research in Uzbekistan". Volume 2. Issue 2. February. 2024. pp. 23-28.

## ОПРЕДЕЛЕНИЯ СПЕЛОСТИ И СБОР УРОЖАЯ ДЫНИ С ПОМОЩЬЮ РОБОТОВ С ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ

Ахмедов А.П., Худойбергганов С.Б., Бердияров У.Н., Жиянкулов Л.А.

*Ташкентский государственный транспортный университет*

### Аннотация

В настоящее время в мире созданы дроны, предназначенные для сбора фруктов в фруктовом саду. Захват фруктов дронами осуществляется присоской с воздушным подсосом, что минимизирует повреждение плодов. Сорванные фрукты дроны укладывают на ленту платформы, а с неё фрукты попадают в контейнеры для транспортировки на предприятие по упаковке. Предлагается для определения спелости и сбор урожая дынь в полевых условиях использовать аппаратов с роботизированным манипулятором, с помощью которого можно организовать сбор спелых дынь днем и ночью.

**Ключевые слова:** Робот, дрон, искусственный интеллект, фрукт, дыня, квадрокоптер, роботизированный манипулятор.

### Annotation

Currently, drones have been created in the world designed to collect fruits in orchards. Fruits are captured by drones using a suction cup with air suction, which minimizes damage to the fruit. Drones place the picked fruits on the platform belt, and from it the fruits fall into containers for transportation to the packaging plant. It is proposed to use a squad of drones with a robotic arm to determine the ripeness and harvest melons in the field, with which you can organize the collection of ripe melons day and night.

**Keywords:** apparat, drone, artificial intelligence, fruit, melon, quadcopter, robotic manipulator.

В настоящее время в мире созданы дроны, предназначенные для сбора фруктов в фруктовом саду. Захват фруктов дронами осуществляется присоской с воздушным подсосом, что минимизирует повреждение плодов. Сорванные фрукты дроны укладывают на ленту платформы, а с неё фрукты попадают в контейнеры для транспортировки на предприятие по упаковке. Каждый дрон оснащен датчиками и камерами не только для определения того, готов ли фрукт к сбору, но и для того, чтобы знать, куда его бросить, используя QR-коды для наведения, чтобы машина могла собрать все фрукты в один контейнер. Tevel обещает, что за ходом машин можно будет следить удаленно с помощью GPS и мобильных приложений, и они могут работать 24 часа в сутки или, по крайней мере, до тех пор, пока у центральной машины не закончится электричество или бензин [1,7].



Рис.1 Квадрокоптеры с прикрепленной вытянутой рукой на яблоневом саду.

Израильский стартап Tevel представил прототип системы из нескольких дронов, которые смогут самостоятельно отличать яблоки на деревьях от листьев, оценивать их спелость, а затем срывать собственным манипулятором. Дроны привязаны к станции на колесах, которая обрабатывает информацию и направляет аппараты. Основные сельскохозяйственные задачи, идеально подходящие для роботов, - это оценка урожая и роботизированный сбор.

Дроны работают с помощью станции-тележки, к которой может быть прикреплено несколько таких: пока она медленно катится яблоневым садом, дроны работают с деревьями и так могут не тратить большее количество энергии на полеты. Каждый дрон оснащен датчиками и камерами не только для определения того, готов ли фрукт к сбору, но и для того, чтобы знать, куда его бросить – по QR-коду дрон сбрасывает все собранные фрукты в один контейнер. Судя по видео, дрон работал в саду, который подходит под критерии промышленного земледелия, где деревья расположены на удобном расстоянии друг от друга и, в основном, в одной вертикальной плоскости, что упрощает обнаружение и уборку плодов для дрона [2,8-9].



Рис.2. Урожай дыни

Плод рая – так называли дыню арабы в средние века. Вкусный и ароматный продукт, который заслуженно ценится многими, а также является богатым источником витаминов и прочих полезных веществ. Относится к роду тыквенных. Корневая система дыни достаточно развита. Состоит из главного корня и длинных боковых ответвлений. На одном растении может созревать 3-5 плодов у ранних и 1-2 у поздних. Масса плодов от 0,5 кг до 12 кг и больше. Сбирать плоды дыни необходимо выборочно, определяя спелость плодов по внешнему виду. Когда плод созревает, у него изменяется расцветка, рисунок коры, образуется сетка, некоторые сорта дыни, показывая свою спелость, отделяются от плодоножки и издают специфический аромат. Спелость сортов, на кожуре которых не должно быть сетки, определяют по пожелтению корки. Плоды дыни, которые собирают для долгого хранения, собирают во второй половине дня, в тёплую солнечную погоду, плоды снимаются очень аккуратно, вместе с плодоножкой [3,10].



Рис.3. Теплица с дынями

Для созревания теплолюбивой дыни понадобится 45-100 дней.

Спелость дыни имеет следующие признаки:

1. Приятный душистый аромат. Созревшие дыни обладают ярко выраженным медовым, ванильным и грушевым запахом. Недозревшие экземпляры не имеют аромата. А перезревшая внутренняя мякоть обладает не очень приятным запахом.
2. Внешность. Корка при полной зрелости упругая, равномерной окраски. Во время осмотра надо убедиться, что дыня не повреждена, на ней отсутствуют разноцветные пятна и подгнившие участки.
3. При надавливании на поверхности не образуются вмятины.
4. Дыню легко отделить от засохшей плодоножки [4].



Рис.4. Робот с автоматическим управлением Virgo-1 в деле по сбору помидоров.

Первый робот с автоматическим управлением Virgo-1, предназначен для сбора помидоров. У Virgo есть видеокамеры (глаза), встроенные датчики и программное обеспечение с системой искусственного интеллекта, которое анализирует, созрел ли помидор, или можно ещё подождать. Если робот определяет, что помидор созрел, рука-манипулятор с тонкими «пальцами», аккуратно снимает плод прямо со стебля.

Робот оснащен устройствами освещения и способен ориентироваться в больших коммерческих теплицах в любое время дня и ночи, выявляя, какие помидоры достаточно созрели для сбора урожая. Интересно, что если рядом с помидорами будут культивироваться другие овощи, система искусственного интеллекта отличит их от «основного овоща» и не будет трогать. Рука-манипулятор робота с прикрепленными пальцами движется достаточно мягко, чтобы работать рядом с людьми, и собирает помидоры, не срывая стебли.

Одна из самых уникальных особенностей робота Virgo-1 заключается в его универсальности. Компания подготовила новое программное обеспечение для искусственного интеллекта и может добавить дополнительные датчики или захваты для обработки различных культур. Это полная мобильная платформа, позволяющая собирать все, что вам нужно, а не только помидоры. В 2019 году робот прошел испытания в коммерческих теплицах, в том числе в США и Канаде [5,11].

Израильский стартап MetoMotion разработал первого робота с искусственным интеллектом для сбора помидоров, который может сократить потребности в рабочей силе при уборке урожая примерно на 90% и снизить производственные затраты примерно на 50%.

Об этом сообщает AgroPortal со ссылкой на The Times of Israel. По данным Всемирного банка, все меньше людей работает в сельском хозяйстве, где занято от 5 до 10% рабочей силы в ЕС, 6% — в странах ОЭСР и только 1% — в Израиле.

Повсеместная глобальная нехватка сборщиков фруктов и овощей заставила основателя израильского стартапа MetoMotion Ади Нира разработать первого в мире робота по сбору томатов [6,12].

Поскольку масса плодов дыни довольно большое (от 0,5 кг до 12 кг и больше), то робот с автоматическим управлением Virgo-1, предназначенный для сбора помидоров, которые намного легче дынь необходимо модернизировать. У модернизированного Virgo -2м есть видеокамеры (глаза), встроенные датчики и программное обеспечение с системой искусственного интеллекта, которое анализирует, созрел ли дыня, или можно ещё подождать. Собирать плоды дыни необходимо выборочно, определяя спелость плодов по внешнему виду и запаху.




Рис.5. Робот с автоматическим управлением Virgo-2м в деле по сбору дынь. Где отмечены 1 – блок автоматического управления робота, 2 – видеокамера, 3 – искусственный интеллект, 4 – электромеханический привод, 5 – обхватитель дыни, 6 – дыня.

### Литература

1. <https://www.wellnews.ru/society/technology/48>
2. [https://myc.news/science/izrailskij\\_startap\\_nauchil\\_dronov\\_sobirat\\_yablok](https://myc.news/science/izrailskij_startap_nauchil_dronov_sobirat_yablok)
3. <https://agro-professional.com.ua/index.php/stati/2806-dynya-factory-urozhajnosti>
4. <https://dzen.ru/a/YSX0tljCwRwFAsdt?experiment=931376>
5. <https://www.startup.org.ua/2019/07/virgo-1.html>
6. <https://east-fruit.com/plodoovoshchnoy-biznes/tekhnologii/robot-sborshchik-tomatov-snizhaet-proizvodstvennye-zatraty-primerno-na-50/>

7. Akhmedov, A. P. Innovative public transport stop with autonomous power supply / A. P. Akhmedov, S. B. Khudoyberganov, N. P. Yurkevich // Инновационные технологии в водном, коммунальном хозяйстве и водном транспорте : Материалы республиканской научно-технической конференции,



Минск, 20–21 мая 2021 года. – Минск: Белорусский национальный технический университет, 2021. – Р. 181-184.

8. Akhmedov, A. P. The use of solar panels to power the air conditioning and ventilation system of vans / A. P. Akhmedov, S. B. Khudoyberganov, N. P. Yurkevich // Инновационные технологии в водном, коммунальном хозяйстве и водном транспорте [Электронный ресурс] : материалы II республиканской научно-технической конференции, 28-29 апреля 2022 г. / редкол.: С. В. Харитончик [и др.]. – Минск : БНТУ, 2022. – С. 393-397.

9. Akhmedov, A. P. Using solar panels to recharge car battery / A. P. Akhmedov, S. B. Khudoyberganov, N. P. Yurkevich // Инновационные технологии в водном, коммунальном хозяйстве и водном транспорте [Электронный ресурс] : материалы II республиканской научно-технической конференции, 28-29 апреля 2022 г. / редкол.: С. В. Харитончик [и др.]. – Минск : БНТУ, 2022. – С. 433-437.

10. R.M.Mirsaatov, S.B.Khudoyberganov, & Sultonov M.U. (2023). METHODOLOGY FOR COMBINING REAL AND VIRTUAL LABORATORY WORK IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF STUDENTS. Ta'limda Raqamli Texnologiyalarni Tadbiiq Etishning Zamonaviy Tendensiyalari Va Rivojlanish Omillari, 26(1), 8–12. Retrieved from <http://www.tadqiqotlar.uz/index.php/conf/article/view/1313>

11. Ахмедов А.П, Худойберганоф С.Б, Каюмов С.Н, & Юркевич Н.П. (2023). МЕТОД ИСТРЕБЛЕНИЯ САРАНЧИ НА ПОЛЕВЫХ УСЛОВИЯХ С ПОМОЩЬЮ ДРОНОВ. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 531–538. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/tsru/article/view/3684>

12. <https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/343>

## SUD-PSIXOLOGIK EKSPERTIZALAR O‘TKAZISHNING HUQUQIY VA TASHKILY ASOSLARI

**Elov Ziyodullo Sattorovich**

*Osiyo xalqaro universiteti dotsenti,*

*Psixologiya fanlari doktori (DSc)*

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi sud tizimining globallashiv jarayonidagi muhim o‘rni va sudga oid psixologik ekspertizaning o‘ziga xos bo‘lgan huquqiy va tashkiliy asoslari yoritilgan bo‘lib, bunda psixologning asosiy amalga oshirishi lozim bo‘lgan jarayonlar yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** sud, psixolog, ekspert, sud jarayoni, dalil, guvoh, jabrlanuvchi, jinoyat, tergov, zo‘ravonlik, ruhiy tazyiq.

## ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЭКСПЕРТИЗ

**ЭЛОВ Зийёдулло Сатторович**

*Доцент Азиатского международного*

*университета, доктор психологических наук (DSc)*

**Аннотация:** В статье освещена важная роль современной судебной системы в процессе глобализации, конкретные правовые и организационные основы судебно-психологической экспертизы, а также выделены основные процессы, которые должен реализовать психолог.

**Ключевые слова:** суд, психолог, эксперт, суд, доказательства, свидетель, потерпевший, преступление, расследование, насилие, психологическое угнетение.

## LEGAL AND ORGANIZATIONAL BASIS OF CONDUCTING FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXAMINATIONS

**ELOV Ziyodullo Sattorovich**

*Asian International University Associate Professor,*

*Doctor of Psychology (DSc)*

**Abstract:** The important role of today's judicial system in the globalization process and the specific legal and organizational foundations of forensic psychological expertise are highlighted in the article, and the main processes that a psychologist must implement are highlighted.

**Key words:** court, psychologist, expert, trial, evidence, witness, victim, crime, investigation, violence, psychological oppression.

Sud-psixologik ekspertiza sudning asoslangan ajrimiga yoki tergovchining qaroriga muvofiq tayinlanadi, unda ekspert tekshiruviga tegishli shaxs, uning protsessual mavqei ko‘rsatilib ekspertizaning mazkur turining belgilanishi asoslab, tanlab olingan ekspertlar, ularning ish joylari va ekspertlar tomonidan hal qilinishi kerak

bo'lgan savollar qo'yilgan bo'ladi.

Ekspertiza xulosalari sudning ichki e'tiqodiga muvofiq, muayyan huquqiy asosda baholanadi. Bunda ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligi aniqlanadi. Mazkur ekspertlar xulosasini sud asoslangan va ishonchli, deb e'tirof qilgan holda, mazkur hujjat bevosita va bilvosita isbotlar (dalillar) manbaiga aylanadi.

Ma'lumki, har qanday jinoiy ishlari bo'yicha, xususan psixologiyada maxsus bilimlarni talab qiluvchi ekspertizani tayinlash uchun umumiy asoslar O'zbekiston Respublikasi JPKning 172-moddasida keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 173-moddasining (Ekspertiza tayinlash va o'tkazishning shartligi) 5-bandida ko'rsatilishicha, ekspertizani «jabrlanuvchining, guvohning ruhiy va jismoniy holatini hamda ular ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni idrok qilish, esda saqlash va so'roq qilganda ifodalab berish layoqatiga ega ekanliklarini, shuningdek javbrlanuvchining jinoyat protsessi chog'ida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini» aniqlash zarur bo'lganda tayinlash va o'tkazish shart. Shunday qilib, bu yerda nafaqat psixiatriya, balki psixologiyaning ham tadqiqot predmeti bo'lgan psixik hodisalarning keng doirasi ko'zda tutilgan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud jarayonlarida sud-psixologik ekspertizalar o'tkazish uchun huquqiy asos sud ajrimi hisoblanadi. Demak, ekspertiza maxsus, xususan psixologiya bo'yicha bilimlardan foydalangan holda, aniq tekshiruvlarni o'tkazish zarurati tug'ilganda tayinlanadi. Bu O'zbekiston Respublikasi FPKning 84-moddasida ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunining 3-moddasi "Asosiy tushunchalar"ga ko'ra, sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishko'zda tutilgan.

Jinoiy ishlar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda SPE tayinlash uchun, qabul qilinganide

k, og'ir jinoyat sodir etgan sub'ektning individual-psixologik (xarakterologik) o'ziga xos xususiyatlarini, uning turg'un motivasion-ma'noviy hosilalarini o'rganishda, shuningdek kishi tomonidan sodir etilgan jinoyat sabablarini tushunishda qiyinchiliklar tug'ilganida, sodir etilgan harakat uchun tegishli jazo chorasini aniqlab bo'lmaganligi sabab bo'lib xizmat qiladi.

SPEning yordami fuqarolik-huquqiy nizolarni hal qilishda ham talab etilishi mumkin. Mazkur hollarda uni tayinlash uchun tomonlarning birining psixologik jihatlariga tegishli bo'lgan har qanday aniq ma'lumotlar, masalan, bitim tuzilayotgan vaqtda adashish, aldash yoki zo'ravonlik, ruhiy tazyiq ta'sirida bo'lgan sub'ektning

intellektual, bilish qobiliyatining pastligi to'g'risidagi ma'lumotlar sabab bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, ham jinoiy, ham fuqarolik ishlari jarayonlarida sud psixologik ekspertizani tayinlash uchun sud kompetensiyasiga kiradigan munozarali masalalarning u yoki bu yechimiga tegishli psixologik tushunchalarni, jinoiy ishlar bo'yicha o'tuvchi yoki fuqarolik sud jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar psixikasining turli namoyon bo'lish mexanizmlarini psixologik diagnostika qilishni talab etuvchi har qanday aniq ma'lumotlar sabab bo'lishi mumkin.

Huquqshunoslik amaliyoti sohasida "inson omili" tushunchasi yetakchi o'rinni egallar ekan, psixologik bilimlardan foydalanishni davr talabi taqozo etmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Respublikamizda turli ekspert mutaxassisligi yo'nalishlari bo'yicha davlat tashkilotlari mavjud bo'lib, unda o'z navbatida, huquqiy-normativ xujjatlar ishlab chiqilgan. Achinarlisi shundaki, sud-psixologik ekspertizalar o'tkazish bo'yicha yalpi tizimga ega bo'lgan tashkilot respublikamizda mavjud emas. Mazkur vaziyat ham fuqarolik, ham jinoiy ishlar jarayonlarida sud-psixologik ekspertizalarni o'tkazishda ob'ektiv, malakali, ilmiy tekshiruvlarni olib borish uchun ahamiyatli darajada salbiy ta'sir etib kelmoqda. Ushbu mavjud muammoga qaramasdan, qonun talablari doirasida shuni hisobga olish kerakki, sud-psixologik ekspertizaga jalb qilingan har qanday mutaxassis: birinichdan, ekspert xulosasini berish uchun malakaviy talablarga javob berishi, va ikkinchidan, "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunning talablariga rioya qilishi shart. Ekspert-psixolog tomonidan qayt etilgan talablarning bajarilishi uning bergan ekspert xulosasining garovi hisoblanadi.

"Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxonaga, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risida Namunaviy Nizom"ning 29-bandiga ko'ra, «Ekspert xulosasi uch qismdan: kirish, tekshirish va xulosalardan (yakunlovchi) iborat bo'ladi»<sup>1</sup>.

Sud-psixologik ekspertiza xulosasi yozma hujjat bo'lib, unda, protsessual qonunchilikka (JPK va FPK) muvofiq, sud-psixologik ekspertizasini (SPE) amalga oshirishning asoslari va shartlari, ekspert yoki ekspertlar oldida turgan masalalar, ular o'tkazgan tekshiruvlar, shuningdek ekspert xulosalar aks ettiriladi. SPE xulosasi jinoiy yoki fuqarolik ishi bo'yicha isbot (dalil) hisoblanadi.

Sud psixologik ekspertiza xulosasi ekspertiza o'tkazgan barcha ekspertlar imzolagan bosma ko'rinishda tuziladi va u mazkur sud psixologik ekspertiza o'tkazilgan muassasa muhri bilan muhrlanadi. Sud psixologik ekspertiza xulosasini tuzishning umumiy muddati – ekspert tekshirish yakunlangan va ekspert xulosalar chiqarilib (shu

<sup>1</sup>Давлат суд-экспертиза муассаси ёки бошқа корхона, муассаса, ташкilot томонидан суд экспертизасини ўтказиш тартиби тўғрисида Намунавий Низом. [www. lex.uz](http://www.lex.uz).

jumladan ekspertlar o'rtasidagi kelish-movchilik tufayli ular tomonidan bittadan ko'p xulosa tuzilgan hollarda ham), ta'riflangandan so'ng 10 kundan kechiktiril-masligi lozim. Ekspertiza komissiya tomonidan amalga oshirilganda sud psixologik ekspertiza ekspert xulosasi loyihasini tayyorlash, uning matni bo'yicha ekspert komissiyasining boshqa a'zolari bilan kelishish, shuningdek sud psixologik ekspertiza xulosasini tuzish majburiyati ekspert-ma'ruzachiga yuklatiladi.

Sud psixologik ekspertiza komissiyasini o'tkazayotgan ekspertlar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelganda boshqalar fikriga qo'shilmagan ekspert alohida xulosa tuzib beradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, birinchisi:

1. Umumiy qism

1.1. Xulosaning kirish qismlardan iborat.

1.2. Xulosaning kirish qismi quyidagilarni aks ettiradi:

- sud-psixologik ekspertizani o'tkazish sanasi va joyi;
- sud-psixologik ekspertizani o'tkazish asoslari;
- sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) to'g'risida ma'lumotlar;
- ekspertiza o'tkazish topshirilgan sud eksperti (familiyasi, ismi, sharifi, ma'lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, egallagan lavozimi) va tashkilot to'g'risida ma'lumotlar;

• O'zbekiston Respublikasi JKsining 238, 240-moddalariga binoan, sud ekspert yolg'on guvohlik berish, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning ruxsatisiz oshkor qilish, shuningdek ekspertning xulosa berishni rad etishi yoki bu ishdan bo'yin tovlashi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantirish;

• ekspert yoki ekspert komissiyasi oldiga qo'yilgan savollar. Ular aniq, sud ajrimida yoki tergov organlarining ekspertiza tayinlash haqidagi qarorida qanday bo'lsa shunday ifodalangan bo'lishi kerak.

Agar savollar noto'g'ri (aniq, qabul qilingan atamalarga muvofiq bo'magan holda va h.k.) ifodalangan bo'lsa, lekin ularning ma'nosi ekspertga tushunarli bo'lsa, ekspert savollarni o'zining maxsus bilimlariga tegishli holda ifodalashi mumkin (biroq savollarning dastlabki ta'rifi, albatta, keltirilgan bo'lishi lozim). Bir necha savol qo'yilgan holda, ekspert ularni qayta turkumlashi, tekshirish maqsadiga muvofiq tartibini ta'minlovchi ketma-ketlikda bayon qilishga haqli. Ekspert tashabbusiga ko'ra turkumlangan savollar ham kirish qismidan o'rin oladi, lekin ekspert tayinlash to'g'risidagi sud ajrimida yoki tergov qarorida ko'rsatilgan savollardan so'ng keltiriladi;

• Ekspertga sud-psixologik ekspertizani o'tkazish uchun taqdim etilgan ish materiallari va tibbiy hujjatlar;

- Sud-psixologik ekspertizani o'tkazishda ishtirok etgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlar.

1.3. Agar sud psixologik ekspertiza birinchi marta o'tkazilayotgan bo'lmasa, kirish qismida shuningdek ekspertiza qo'shimcha yoki takroriy ravishda o'tkazilayotgani qayd etilishi lozim. Mazkur hollarda oldingi ekspertiza (ekspertizalar) to'g'risida qisqacha ma'lumot – qachon, qayerda va kim tomonidan o'tkazilgani, qanday xulosa (xulosalar) berilganligi, mazkur ekspertizani tayinlash asoslari keltiriladi.

1.4. Agar sud psixologik ekspertizani o'tkazish davomida ekspert (ekspertlar) tomonidan tekshirish uchun qo'shimcha materiallar berilishi to'g'risida rasmiy iltimosnoma (iltimosnoma) berilgan bo'lsa, SPE xulosasining kirish qismida mazkur hol va iltimosnomani (iltimosnomalarni) ko'rib chiqish natijalari aks ettirilishi kerak.

## 2. Tekshirish qismi

### 2.1. Tekshirishda tarjimai holga oid usuldan (biografik usul) foydalaniladi.

Unda tug'ilishdan to tekshirishning mazkur paytgacha o'tgan hodisalarni aniqlashda xronologik ketma-ketlikka rioya qilish, shuningdek oilada, mehnat qilishda, nikohda, ijtimoiy (shu jumladan kriminal) turmush tarzida o'ziga xos individuallik ko'zda tutiladi.

### 2.2. Tekshirish ("biografik usul") quyidagilarni aks ettirishi kerak:

- yuridik ahamiyatga ega hodisalardan oldingi davrda ekspertiza qilinuvchining xulqini, shaxsiy o'ziga xos xususiyatlari va psixik ahvolini bevosita tavsiflovchi jinoiy yoki fuqarolik ishi materiallaridan olingan ma'lumotlar. Ushbu tekshirish birinchi navbatda jabrlanganlar, guvohlar, (da'vogarlar, javobgarlar) bergan ma'lumotlariga asoslanadi va ekspertiza qilinuvchi kishining umuman yuzaga kelgan vaziyatni anglash qobiliyati doirasida joyda, vaqt davomida yo'nalishini (orientirlanishini) aniqlash imkonini beradi;

- tekshirilayotgan kishining erta bolaligi, maktabda o'qishining boshlanishi, o'smirlik yoshi, erta yoshlik davri, katta bo'lgan davridagi hayoti to'g'risida asosiy ma'lumotlar, - tekshirilayotgan kishi psixologiyasini tekshirishning "biografik usulini" shartlab beradi;

- tekshirilayotgan shaxsning qiziqtirayotgan hodisalardan oldingi davrda insonga taalluqli bo'lgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarining (premorbidagi) turg'un xarakterologik xusu-siyatlari;

- yuridik ahamiyatga ega vaziyatda bo'lgan individ to'g'risidagi masalalarni, tekshirilayotgan kishining (psixonevrologik dispan-serda hisobda turgan yoki turmaganligi) ruhiy kasalligi borligi (yo'qligi) to'g'risidagi ma'lumotlarni, hal qilishni tasdiqlovchi yoki rad qiluvchi omillarni hisobga olgan holda asoslab berilishi kerak. Tekshirilayotgan kishida psixik buzilish bo'lgan holda, kasallikning rivojlanish va

kechishini aniq va izchillik bilan aks ettirish, umumlashtiruvchi baholash ta'riflarga bormasdan, psixopatologik kechinmalarining o'ziga xos xususiyatlarini qayd qilish zarur. Bunda psixiatrik kasalxonalariga joylashtirish sanalarini keltirish, har bir kasalxonaga yotqizilganda yoki ambulator tartibda shifokor psixiatrlar ko'rigidan o'tgandagi (shu jumladan o'tmishda ambulatoriya yoki shifoxonada qilingan sud-psixiatrik ekspertizalardagi) tashxislarini ko'rsatish, hamda ekspertiza qilinayotgan kishining o'sha davrdagi psixik holatining xarak-teristikasini keltirish zarur;

- tekshirilayotgan kishi to'g'risida (unda biron-bir psixik buzilishlar bilan bog'liq) ma'lumotlar yo'qligida, ijtimoiy muhitda u yoki bu ijtimoiy munosabatlarga kirishgan insonning psixologik o'ziga xos xususiyatlarini diagnostika qilish kerak va bunda uning individual tuzilishini hisobga olish lozim;

- boshdan kechirgan somatik va boshqa kasalliklar (bosh miya jarohatlari, alkogol, giyohvand moddalar iste'mol qilishi va h.k.), ularning psixik holatga ko'rsatgan ta'siri;

- mehnat faoliyati to'g'risida nafaqat ish joylari va egallagan lavozimlari, balki imkon bo'lganda mehnat tavsifno-malari, u to'g'risida xizmatdoshlarining fikrlarini keltirish;

- sudlanganlik (agar bo'lsa) to'g'risidagi ma'lumotlarda sodir qilingan huquqbuzarlik to'g'risida qisqacha ma'lumot keltirish kerak, bu, ayniqsa, hozirda sodir qilingan huquqbuzarlik bilan bir turda bo'lganda muhim ahamiyat kasb etadi. Ozodlikdan mahrum qilish joylardan tavsifnomalar, agar bundaylar bo'lsa, keltirish kerak;

- tekshirilayotgan yuridik vaziyat holatini batafil yoritish lozim.

2.3. U yoki bu ma'lumotga tayanilganda, uning manbasini ko'rsatish, jinoiy yoki fuqarolik ishlaridan foydalangan holda esa betlar va jildlarining tartib raqamlari ko'rsatilishi shart.

2.4. Eksperimental-psixologik tekshirish sud psixologik ekspertiza xulosasining markaziy qismi hisoblanadi, unda ekspertiza qilinuvchi kishining psixik (psixologik) holati, tekshiruv o'tkazish natijasida hosil bo'lgan manzara aniq aks ettirilgan bo'lishi kerak.

Uning tarkibiga quyidagi tarkibiy qismlar kiradi:

- tekshirilayotgan kishi bilan suhbat mazmunining qisqacha tahlili (tekshirish davriga munosabati bilan bog'liq kechinmalarining so'z orqali ifodalangan tahlili);

- tekshirish davomida tekshirilayotgan kishi xulqining tavsifi, bunda aloqaning o'ziga xos xususiyatlarini baholash ham ko'zda tutiladi (muayyan masofani saqlash, qiziqish darajasi, emotsional indifferentsligi va h.k.);

- yuridik ahamiyatga ega vaziyatda yo‘nalishini aniq bilish (orientirovka), sodir bo‘layotgan hodisalarga tanqidiy yondashish, tekshirish maqsadini tushunishdagi emotsional holati;

- ekspertiza qilinayotgan kishi tomonidan yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyatning baholanishi.

2.5. Diagnostik (tashxis) metodikalar yordamida eksperimental-psixologik tekshiruv.

- tekshirish qanday maxsus vositalardan (usullar va metodikalar–uslublar) foydalangan holda o‘tkazilganligi ko‘rsatiladi, bunda metodikaning psixologiyada qabul qilingan to‘liq nomlanishi, metodikaning muallifi, agar metodika modifikatsiya qilingan bo‘lsa, modifikatsiyaning muallifi yoki ilmiy manbaga havola qilinishi shart (foydalaniladigan metodikalar psixologiyada ma‘lum, standart va ishonchli darajasi yuqori bo‘lgan bo‘lishi lozim). Bular tergovchi va sud tomonidan ekspert tadqiqot metodikalarini to‘liq va ilmiyligiga, ularning qo‘llanilishi to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilishlari uchun zarur;

- ish jarayonining batafsil tavsifi, bunda bosqichlar, natijalarni qayd qilish usul va vositalari, eksperimental metodikalar qo‘llanilishi natijasida olingan ma‘lumotlar, olingan natijalarning talqini ko‘rsatiladi;

- tekshirilayotgan kishining bilish doirasini baholash;

- tekshirilayotgan kishining xulqiy tuzilishidagi aksentu-atsiya jihatlarning diagnostikasi.

2.6. Ish materiallari va eksperimental-psixologik tekshiruv natijalarining qiyosiy tahlili.

- Psixologik tahlil ham tomonlarning (ish materiallari), ish holatini hisobga olgan holda, bergan guvohlik ma‘lumotlari, ham ekspertiza qilinayotgan kishining suhbat davomidagi kechinmalari – “hisobot” vaqtida, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalardan oldin va keyingi davrlarda, individual-psixologik test natijalariga muvofiq tarzda aks etishi (qiyos qilingan holda) kerak;

- Tekshirish natijalari (ish materiallari, shu jumladan tibbiy hujjatlar va eksperimental testlash) tekshirish sub’ekti xulqiga oid o‘ziga xos xususiyatlariga mos psixologik jarayonlarning kechishi fenomenologiyasi mezonlariga bo‘lgan talablarga mos kelishi lozim.

3. Asoslovchi qism (xulosalar va asoslash)

3.1. Qo‘yilgan masalalar bo‘yicha tadqiqot natijalarini baholash, xulosalarning asoslanishi va ifodalanishini aks ettiradi.



3.2. Xulosaning asoslovchi (yakuniy) qismi ekspertiza qilinayotgan kishining psixologik holatini baholash, savollarga javoblar va ularning batafsil asoslanishidan iborat.

3.3. Ekspert oldiga qo'yilgan savollardan birontasi ham javobsiz qolmasligi va o'tkazib yuborilishi mumkin emas. Agar ba'zi savollarga ekspert javob berib, boshqalariga javob berish mumkin emasligi to'g'risida ma'lumot berishiga asos mavjud bo'lsa, bu holda yagona xulosa tuzilib, unda ekspert xulosalar bilan bir qatorda, ekspert oldiga qo'yilgan savollarning ba'zilariga javob berish mumkin emasligining sabablari asoslab ko'rsatiladi.

Sud eksperti oldiga qo'yilgan savollarni uning maxsus bilimlari asosida hal qilib bo'lmasligiga, unga taqdim qilingan tekshirish ob'ektlari va materiallar xulosa chiqarish uchun yaroqsiz va yetarli emasligiga, qo'shimcha materiallar yo'qligi yoki fan va sud-ekspert amaliyoti mazkur savollarga javob berish imkonini bermasligiga ishonch hosil qilganda, u xulosa berish imkonini yo'qligi to'g'risida dalolatnoma tuzib, uni sud ekspertizasini tayinlagan organga yo'llaydi.

3.4. Xulosa psixologiya fanidan xabari yo'q bo'lgan sud jarayoni ishtirokchilari yoki tergov organi xodimlari uchun tushunarli tilda yozilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun matnda maxsus atamalardan haddan tashqari ko'p foydalanmaslik, alohida hollarda esa maxsus atamalar tushuntirilishi lozim.

3.5. Jinoiy yoki fuqarolik ishi bo'yicha sudlov ishini yuritayotgan sudning yoki tergovning alohida vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha ekspert mulohaza va xulosalarga (guvohlar yoki boshqalar ko'rsatmalarining ishonchli-ishonchli emasligi, haqiqiy yoki yolg'onligi va h.k.) yo'l qo'yimasligi zarur.

Qayta ekspertiza tayinlangan holda, uning xulosasida oldingi ekspertiza xulosalari bilan farq bo'lsa, ushbu ekspertizalar xulosalarining tahlilini o'tkazish kerak, uning tarkibida differensial diagnostika elementlari bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda xulosada ish uchun ahamiyat kasb etuvchi hamda ekspert tashabbusi bilan belgilangan vaziyatlar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

4. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizalarda ekspert-psixologining roli

4.1. Ekspertlar teng huquqligiga asos soluvchi tamoyil bo'lib hizmat qiladi. Unga ko'ra, psixolog har qanday ekspert singari bir xil protsessual huquq va majburiyatlarga ega, ya'ni masalalarni mohiyatan hal qilishda hech qanday afzalliklardan foydalanmaydi. Ekspertlarning tenghuquqliligi olingan tekshirish natijalari va xulosalarining teng qiymatga egaligini belgilab beradi. Ularning har biri dastlab to'liq hajmda alohida ajratiladi.

4.2. Ekspert-psixologlar bevosita kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizani o'tkazishga uning tayinlanishi to'g'risi-dagi qaror yoki ajrimni olganlaridan so'ng

darhol kirishadilar. Shu vaqtdan boshlab ular ekspertizani o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishi uchun javobgar bo'ladilar. Shu jumladan jinoiy tartibda ham – xulosa berishni rad qilish yoki atayin yolg'on xulosa berganlik uchun ma'suldirlar.

4.3. Ekspert-psixolog jinoiy yoki fuqarolik ishi materiallari bilan tanishadi, oldiga qo'yilgan masalalarni aniqlaydi, ularning mohiyatini aniqlashtiradi, tekshirishning pirovard maqsadlari va xususiy vazifalarini belgilab oladi, uning umumiy rejasini, alohida operatsiyalarini bajarish ketma-ketligini belgilaydi. Ularga quyidagilar kiradi:

- tekshirish davrining muayyan bosqichi ekspertiza qilinayotgan kishining psixiatr vakolatiga tegishli psixik holatini kvalifikatsiyalash (baholash) to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganishdan iborat (psixik (organik, endogen, ekzogen va b.) hamda psixik kasallik toifasiga kirmaydigan, mehnatga layoqatsizlik bilan shartlangan kasalliklar). Mazkur hal qiluvchi maqsadlarga erishish nafaqat mustaqil ekspertlik ahamiyatiga ega, balki psixologik tabiatga ega bo'lgan qolgan vazifalarni bajarish uchun haqiqiy asosni tashkil qiladi;

- psixiatr tomonidan aniqlangan psixik kasalliklar bilan bog'liq holatlarni hisobga olgan holda, psixolog ekspert o'zining tekshirishini o'tkazadi. Bunda patopsixologik alomatlar majmui-ni (simtomokompleks) hisobga oladi, ya'ni psixologik tekshirish-dan oldin psixiatrik tekshiruv amalga oshirilishi shart;

- psixolog ekspertning tekshiruv qismida (ish vaziyatlari va guvohlar ko'rsatmalari, ish materiallarini tahlil qilish asosida) psixiatriya ma'lumotlarini hisobga olgan holda hamda jinoiy yoki fuqarolik ishlari jarayonining u yoki bu yuridik jihatdan ahamiyatli bo'lgan vaziyatida turgan ekspertiza qilinuvchi shaxsni eksperimental-psixologik tekshiruvini amalga oshirishi lozim;

- psixolog ekspert tekshirish pozitsiyasini aniqlab, va olingan natijalarga mos ravishda u yoki bu yuridik jihatdan ahamiyatli bo'lgan vaziyatdagi tekshirilayotgan shaxsning emotsional holati (shu jumladan xulq-atvor komponentlari) to'g'risida xulosa chiqaradi.

5. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizalarda psixolog ekspertning xulosasi

5.1. Kompleks sud psixologik-psixiatrik ekspertizada sud psixolog-ekspertning tekshiruv natijalarini rasmiylashti-rish jarayoni quyidagicha tuziladi:

- kirish (kirish qismi), anamnez, jismoniy, nevrologik va psixik holatning tavsifi va ish (jinoiy yoki fuqarolik) materiallarining tahlili psixiatr ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi;

- psixolog ekspertning tekshirish qismi psixologlar tomonidan qo'yilgan masalalar kontekstida, maxsus bilimlarni hisobga olgan holda, amalga oshiriladi. Xulosa asosini tashkil qilgan foydalanilgan usullar va ularni qo'llash natijalari to'liq

hajmda keltirilgan bo'lishi kerak. Mazkur talabni buzish ekspertiza xulosasining yetarli darajada asoslanmagan deb hisoblash uchun sabab bo'ladi, chunki qonunchilik foydalanilgan materiallar, qo'llanilgan usullar va o'tkazilgan tekshirishlar haqidagi ma'lumotlarning xulosada to'liq aks ettirilishining muhimligini ta'kidlab o'tadi.

5.2. Kompleks ekspertizada ishtirok etayotgan psixolog-ekspert o'zi o'tkazgan tekshiruvlar tavsifi keltirilgan xulosaning qismini (o'zining xulosalari bilan birga) imzolaydi va buning uchun u javobgar hisoblanadi.

#### 6. Ish yuritish va hujjatlarni saqlash

6.1. Ish yuritish va hujjatlarni saqlashni yo'lga qo'yish hujjat sifatidagi materiallarning saqlanishi, shuningdek ular-dan ilmiy va amaliy maqsadlarda foydalanishni ta'minlaydi. Jinoiy va fuqarolik ishlari materiallaridan olingan ko'chirmalar, sud-psixologik ekspertizalar xulosalari, ekspertizalarni ro'yxatga olish jurnali, sud-tergov organlari bilan xat yozishuvi bo'yicha alohida ish yuritiladi va ular tashkilotda saqlanadi.

6.2. Sud-psixologik ekspertizalarining asl nusxalari tergov va sud organlariga mazkur organlar qarorlari yoki ajrimlari asosida beriladi.

Кўпгина ҳамширалик дастурлари ижтимоий-эмоционал компетенцияни ошириш учун симуляцияга асосланган тренингни ўз ичига олади. Мисол учун, Калифорниядаги ҳамширалар мактаби симуляция сценарийларини ўтказиши, унда талабалар ҳиссий жиҳатдан қийин вазиятларда стандартлаштирилган беморлар билан мулоқот қилишлари керак, масалан, қийин янгиликларни етказиш ёки қайғули оила аъзоларини бошқариш. Ушбу симуляциялар ўқувчиларга эмпатия, фаол тинглаш ва ҳиссий ёрдамни машқ қилиш имконини беради. Шунингдек, Нью-Ёркдаги шифохонада ҳам янги ҳамширалар учун мураббийлик дастурини яъни менторлик дастурини амалга оширди. Таърибали ҳамширалар ёш ҳамшираларга мураббий бўлиб хизмат қилади ва янги ҳамшираларга ижтимоий-эмоционал кўникмаларини ривожлантиришда кўрсатмалар беради. Менторлар ўз таърибалари ва тушунчалари билан ўртоқлашадилар, янги бошланувчиларга беморни парвариш қилишнинг ҳиссий талабларини бошқаришга ёрдам беришади.

(Канададаги Торонто Генерал Ҳоспитал (Источник: <https://visasam.ru/emigration/canadausa/medicina-v-kanade.html> касалхонаси беморларнинг ҳиссий фаровонлигини биринчи ўринга қўядиган беморга йўналтирилган парвариш моделини қабул қилди. Натижада, касалхонада беморларнинг қониқиш кўрсаткичлари яхшилангани ва беморнинг қайғуга учраши камайган. Касалхонадаги ҳамширалар эмпатик мулоқот бўйича махсус тренингдан ўтдилар ва беморларнинг ҳиссий ташвишларини ҳал қилиш учун вақт ажратишга даъват этилди.

Бирлашган Қиролликда ўтказилган тадқиқот бир гуруҳ ҳамширалар ўртасида акс эттириш амалиётини қўллашнинг таъсирини баҳолади. Ҳамширалар беморларнинг ўзаро муносабати ва ҳиссий жавоблари ҳақида мунтазам равишда фикр юритишга даъват этилди. Бир йил давомида тадқиқот шуни кўрсатдики, акс эттириш амалиёти билан шуғулланадиган ҳамширалар ўз-ўзини англаш ва ҳиссий тартибга солишни яхшилади, бу эса беморларнинг муносабатлари ва ишдан қониқишнинг яхшиланишига олиб келади. Яна бир тренинг, Бирлашган Қиролликдаги касалхонада ўтказилган амалий тадқиқот ижтимоий-эмоционал компетенцияни оширишда касблараро ҳамкорликнинг афзалликларини таъкидлади. Ҳамширалар, шифокорлар, психологлар ва ижтимоий ходимлардан иборат жамоа сурункали касалликларга чалинган беморларнинг мураккаб ҳиссий эҳтиёжларини қондириш учун биргаликда ишлади. Ҳамкорликдаги ёндашув беморнинг натижаларини яхшилашга ва беморларда ҳиссий стрессни камайтиришга олиб келди.

Австралиядаги соғлиқни сақлаш тизими маданий компетенцияни ўқитиш турли хил беморлар популяциясига сифатли ёрдам кўрсатишда маданий малаканинг муҳимлигини тан олди. Улар ҳамширалар учун кенг қамровли маданий малака ошириш дастурини, жумладан, семинарлар, маданий сезгирлик курслари ва чуқур тажрибаларни амалга оширдилар. Натижада, ҳамширалар турли маданиятларга мансуб беморларнинг ижтимоий-эмоционал меъёрларини тушуниш ва ҳурмат қилиш қобилиятини яхшиладилар.

Ушбу амалий мисоллар ва амалий тадқиқотлар турли механизмлар ва омиллар ҳамшираларнинг ижтимоий-эмоционал муносабатини шакллантиришга қандай ҳисса қўшишини кўрсатади. Улар ҳамширалик таълимида муҳокама қилинган тушунчаларнинг реал ҳаётда қўлланилишини ва беморларни парвариш қилиш ва соғлиқни сақлаш натижаларига таъсирини бир қанча амалий мисоллар билан кўрсатади.

Ҳиссий интеллект бўйича Бирлашган Қиролликдаги ҳамширалар мактаби ўқув дастурининг бир қисми сифатида ҳиссий ақл бўйича ўқув дастурини жорий қилди. Талабалар эмоционал интеллектнинг беш компоненти (ўз-ўзини англаш, ўзини ўзи бошқариш, мотивация, эмпатия ва ижтимоий кўникмалар) билан танишди ва бу кўникмаларни ролли ўйин машқлари ва реал ҳаёт сценарийлари орқали машқ қилди. Дастур талабаларнинг эмоционал тушунишни ва беморлар ва ҳамкасблар билан мулоқотни яхшилашга олиб келди.

Қўллаб-қувватловчи меҳнат муҳити ташаббусларидан бири Швециядаги шифохона ҳамшираларнинг ижтимоий-эмоционал фаровонлигини ошириш учун қулай иш муҳитини яратишга қаратилган. Улар ҳиссий жиҳатдан қийин



вазиятлардан кейин мунтазам равишда жамоавий брифинглар, юқори стрессли вазиятларга дуч келган ҳамширалар учун маслаҳат хизматларидан фойдаланиш ва ҳамдардлик ва раҳм-шафқатли ҳамширалик парвариши учун тан олиш дастурлари каби чора-тадбирларни амалга оширдилар. Натижада ҳамширалар ўзларида чарчаш даражасининг пастлиги ва ишдан қониқишнинг ортиб боргани ҳақида хабар беришди.

Беморга йўналтирилган ёрдамни амалга ошириш тренинги бўйича Нидерландиядаги касалхонада ўтказилган амалий тадқиқот соғлиқни сақлаш маданиятининг беморга йўналтирилган ёрдамга ўзгаришини ўрганиб чиқди. Ҳамширалар фаол тинглаш, беморга эмпатия ва ҳиссий ёрдам кўрсатиш бўйича тренингдан ўтдилар. Улар беморларни қарор қабул қилишда иштирок этишга ва беморларнинг ҳиссий эҳтиёжларини ҳисобга олишга даъват этилди. Тадқиқот ўз натижаларида беморнинг тажрибаси кўрсаткичларида сезиларли яхшиланишни ва беморларнинг ташвиш даражасини сезиларли пасайтиришни кўрсатди.

Стрессни бошқариш дастури бўйича Қўшма Штатлардаги йирик ўқув шифохонасида ўтказилган тадқиқот стрессни бошқариш дастурининг ҳамшираларга таъсирини баҳолади. Дастур онгни ривожлантириш медитацияси машғулотларини, стрессни бошқариш бўйича семинарларни ва руҳий саломатлик ресурсларидан фойдаланишни ўз ичига олади. Дастурда иштирок этган ҳамширалар стресс даражасининг пасайиши, ҳиссий фаровонликнинг яхшиланиши ва беморнинг қийин вазиятларини ҳал қилишда яхшироқ курашиш механизмлари ҳақида хабар беришди.

Ахлоқий дилемма ечими тренингида Австралиядаги ҳоспис (ҳоспис бу — оғир ва бедаво дардни енгиллатишга кўмак бериладиган жой) парваришlash муассасасида ўтказилган амалий тадқиқот ҳамширалар умрининг охиригача бўлган парвариш билан боғлиқ ахлоқий дилеммаларни қандай бошқарганликларини таъкидлади. Ҳамширалар мунтазам ахлоқий мунозаралар олиб боришди ва ахлоқ кўмитасидан кўрсатмалар олишди. Ушбу мунозаралар орқали ҳамширалар ушбу нозик даврда беморлар ва уларнинг оилаларининг ҳиссий эҳтиёжларини қондириш учун нозик ижтимоий-эмоционал ёндашувни ишлаб чиқдилар.

Педиатрия ҳамширасида маданий компетенцияни ривожлантириш борасида Қўшма Штатлардаги академик тиббиёт маркази болалар ҳамшираларига маданий компетенцияларни ўқитишнинг таъсири бўйича тадқиқот ўтказди. Тренингда маданий сезгирлик бўйича семинарлар ва турли беморларнинг оилалари билан интерфаол машғулотлар ўтказилди. Натижада, ҳамширалар маданий тафовутлар тўғрисида хабардорликни ошириш, турли келиб чиқиши оилалари билан

мулоқотни яхшилаш ва болалар парваришига хос ижтимоий-эмоционал эҳтиёжларни яхшироқ тушунишни намоёиш этдилар.

Ушбу қўшимча амалий мисоллар ва амалий тадқиқотлар турли механизмлар ва стратегиялар ҳамшираларнинг ижтимоий-эмоционал муносабатини шакллантиришга қандай ҳисса қўшиши ҳақида кенгроқ кўринишни таклиф қилади. Улар ушбу механизмларнинг реал ҳаётда қўлланилишини ва уларнинг беморларни парвариш қилиш, соғлиқни сақлаш натижалари ва ҳамшираларнинг фаровонлигига сезиларли таъсирини таъкидлайдилар.

Динамик ва талабчан ҳамширалик соҳасида профессионал компетенция клиник кўникмалар ва тиббий билимлардан ташқарига чиқади. У ҳамшираларнинг ёрдам кўрсатиши, беморлар билан боғланиши ва соғлиқни сақлаш гуруҳлари билан ҳамкорлик қилишига чуқур таъсир кўрсатадиган бир қатор ижтимоий-психологик хусусиятларни ўз ичига олади.

#### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Бровн, Х., Мичелс, Ж., ва Ван Сон, С. Дастлабки кенгайтириш ва ҳис-туйғуларни ошириш учун восита. Илмий журнали, 2019й 6(2), 176-180.

2. Дауйи, И., Филипс, С., ва Жонз, И. Халқаро журнал. Ҳамшира таълимида ҳис-туйғулик маърифати роли: Адабиёт таҳлили. Илмий журнали, 2016 й 40, 123-127.

3. Жонз, Т. Л., ва Смит, Ж. Ҳ. Ҳамшира амалиётини ривожлантиришдаги этик кўрсаткичларнинг тўлиқ диапазонини интеграция қилиш. Профессионал журнал 2020й 36(1), 14-19.

4. Василя Каримова. Ижтимоий психология. –Т.: «Фан ва технология», 2012,7-бет

5. Собирова Д.А. "Тиббиёт ходимлари фаолиятида социал-психологик компетентлик омилларининг намоён этилиши ва ривожланиши." Психология фанлари доктори (ДСс) диссертацияси 1-3бет.

6. Умида Муродова Дилмуродовна СОМПОНЕНТС ОФ ЭМОТИОНАЛ ИНТЕЛЛИГЕНСЭ ОФ НУРСЕС "Сиенсэ анд Инноватион" халқаро илмий журнали ВОЛУМЕ 2 ИССУЭ 10 ОСТОБЕР 2023.

7. Муродова У.Д. Ҳамшираларда ижтимоий эмосионал компитетлигини ривожлантириш механизмлари. Илмий ахборотлар журнали 2023 й 11-сон 182-190 бетлар.

8. "Тиббиёт психологияси «Ибодуллаев З. 2006й Тошкент.»Истиқлол"-2006 3-5 бетлар

## DAUN SINDROMI BO'LGAN BOLALARNI REABILITATSIYA QILISH USULLARI

**Musaeva Dilfuza Abduraxmonovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchi

**Annotatsiya:** Daun sindromi bilan xastalangan bolalarning ota-onalari ushbu genetik anomaliyaning sababi farzandlarining har bir hujayrasida bor-yo'g'i bitta ortiqcha xromosomaning mavjudligi bilan izohlanishini yaxshi bilishadi. So'z hujayralarning bo'linish jarayonidagi tasodifiy buzilish haqida ketmoqda. Demak xulosa shuki, tabiatning ushbu «o'yinida» hech kimning aybi yo'q. Ammo baribir bunday oilada ko'plab kunlar va oylar o'zini-o'zi ayblashga, hech qanday chora ko'rmaslikka va «tangrining jazosi» haqidagi qayg'uli xayollarga ketadi. Ushbu maqolada daun sindromi bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilish usullari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Daun, gipofizgipofiz jinsiy bezlar, immunitet, kasallikka chidamsizlik, zaiflik, kech balog'atga yetish

**Daun sindromi** (21-xromosoma trisomiyasi) — genom patologiyalarning bir shakli bo'lib, unda karyotip ko'pincha normal 46 o'rniga 47 xromosoma bilan ifodalanadi, chunki 21-juft xromosomalar normal ikkita o'rniga uch nusxada bo'ladi. Ushbu sindrom 1866-yilda uni birinchi marta tasvirlab bergan ingliz shifokori Jon Daun nomi bilan atalgan. Tug'ma sindromning kelib chiqishi va xromosomalar sonining o'zgarishi orasidagi bog'liqlik faqatgina 1959-yilga kelib fransuz genetigi Jerom Lejen tomonidan aniqlangan. Bu tashxisni ota-onalar birinchi kundayoq bilib olishadi. Tug'ruqxona shifokori chaqaloqdagi bir qator klinik alomatlariga ko'ra genetik tahlilga yo'llanma beradi. Agar sindrom mavjud bo'lsa, bu ilk tadqiqot chog'idayoq ma'lum bo'ladi. Takroriy tahlillar faqat ushbu qayg'uli fakti tasdiqlaydi xolos. Ammo ota-onalar baribir yuz bergan voqeaga ishongilari kelmaydi. Ular ruxan ushbu tashxisni qabul qila olmaydilar va bolani xudda unda hech qanday muammo yo'qday tarbiyalashda davom ettirishadi. Ammo bu bilan ular bolaga yordam berish o'rniga, hammasini yanada yomonroq qilishadi. Chunki Daun sindromi – bu shunchaki aqliy rivojlanishdan orqada qolish emas. Xromosoma to'plamining o'zgarishi tufayli hujayralar darajasidagi moddalar almashinuvi buziladi va buning natijasida organizmdagi aksariyat organlar va to'qimalarga zarar yetkaziladi. Shu tarzda bolada tug'ma yurak illati, ko'rish yoki eshitish qobiliyatining buzilishi kuzatiladi. Ushbu xastaliklarning barchasi mutaxassislar tomonidan o'z vaqtida aniqlanishi lozim, ularning ko'pchiligi dorilar bilan davolashni talab etadi. Ota-onalar tashxisni qabul

qilishdan bosh tortib, o'z farzandlariga zarur tibbiy yordamning o'z vaqtida berilishiga to'sqinlik qilishadi.

#### Daun sindromining turlari

- Trisomiya 21: Bu odamda 21-xromosomaning 3 nusxasi bo'lgan eng keng tarqalgan tur.
- Mozaik Daun sindromi: Bu kamdan-kam uchraydigan shakl bo'lib, unda odamda 21-xromosomaning qo'shimcha nusxasi bo'lgan ba'zi hujayralar mavjud.
- Translokatsion Daun sindromi: bu turdagi 21-xromosomaning bir qismi homiladorlikdan oldin yoki homiladorlik paytida boshqa xromosomaga biriktiriladi.

Mutaxassislarning aytishicha, irqiy kelib chiqish yoki iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlar homilaning ushbu irsiy chetlashish bilan tug'ilishiga ta'sir qilmaydi. Biroq hududning an'anaviy va diniy xususiyatlari ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, chunki homiladorlikni tugatish qabul qilinmagan hududda bu chetlashishga ega bolalar soni oshib boradi. Ayollarda 40 yoshiga kelib Daun sindromi bilan bola tug'ilishi ehtimoli 30 yoshlilarga nisbatan 9 marta yuqoriroqdir. Ko'plab davlatlarda homilador ayollarning yoshidan qat'iy nazar, ularda homilada 21-xromosoma trisomiyasini aniqlash bo'yicha tug'ruqqacha skrining o'tkaziladi. Bu sindromni topishning eng samarali usuli noinvaziv prenatal test, ya'ni ona qonidan ajratilgan homila dnksining tahlili hisoblanadi. Bunday tahlilni homiladorlikning 9-haftasidayoq o'tkazish mumkin. Oxirgi tadqiqotlarga ko'ra, Daun sindromiga ega odamlarning umr ko'rish davomiyligi tibbiyot rivojlanishi evaziga oxirgi o'n yilliklarda ancha uzaygan. 21 mart Xalqaro Daun sindromiga ega odamlar kuni sifatida nishonlanadi. Ushbu kasallik irsiy chetlashish natijasida yuzaga keladi. Bunda yana bir xromosoma paydo bo'ladi.

Daun sindromi kamdan-kam uchraydigan patologiya emas — u o'rtacha 700 ta tug'ilishdan bitta holatda kuzatiladi. Hozirgi vaqtda prenatal tashxis tufayli, Daun sindromi bo'lgan bolalar tug'ilishining chastotasi har 1100 holatdan 1 tagacha kamaygan, chunki homila kasalligi haqida xabar topgach, abortga murojaat qilinadi. Har ikki jinsdagi homilada ham anomaliya uchrashi ehtimoli bir xil bo'ladi. Daun sindromi bilan tug'iladigan bolalar soni har 800 yoki 1000 chaqaloq uchun 1 tani tashkil etadi. 2006-yilda kasalliklarni nazorat qilish va profilaktika markazi buni Qo'shma Shtatlarda 733 ta tirik tug'ilish uchun bitta holat deb baholadi (yiliga 5 422 yangi holat). Ularning 95%ga yaqini 21-xromosoma trisomiyasidir. Daun sindromi barcha etnik guruhlarda va barcha iqtisodiy tabaqalarda uchrashi mumkin. Onaning yoshi Daun sindromi bo'lgan bolaga homilador bo'lish ehtimoliga ta'sir qiladi:

- Agar onalar 20 dan 24 yoshgacha bo'lsa, bu ehtimollik 1562 ga 1;
- 30 yoshgacha bo'lsa — 1000 ga 1;
- 35 yoshdan 39 yoshgacha — 214 ga 1;

- 45 yoshdan oshganda esa ehtimol 19 ga 1 nisbatida bo'ladi.

Ehtimollik onaning yoshi o'tgani sayin oshishiga qaramay, ushbu sindromli bolalarning 80 foizi 35 yoshgacha bo'lgan ayollarda tug'iladi. Bu holat mazkur yosh guruhida umumiy tug'ilishning yuqoriligi bilan bog'liq. Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, otaning yoshi, ayniqsa, u 42 yoshdan oshgan bo'lsa ham bolada sindrom rivojlanishi xavfini oshiradi.

**DAVOLASH:** Daun sindromini davolab bo'lmaydi, biroq bemorlarga ijtimoiy va boshqa ko'nikmalarni orttirishga yordam beradigan ko'plab uslublar mavjud. Ammo olimlar medikamentoz vositalarni o'rganishni chetga surib qo'yishmagan. Bunday vositalarning eng so'nggilariga misol qilib ko'k choyda mavjud bo'lgan epigallokatexin gallat moddasidir. Bemorlardagi kognitiv buzilishlar DYRK1A geni ishlab chiqaradigan mahsulot bilan bog'liq deb hisoblanadi. Yuqoridagi modda esa sichqonlarda o'tkazilgan tajribada mazkur genning ekspressiyasiga olib kelib, xotira va o'rganishni yaxshilashini ko'rsatdi. Lekin bunday tajribalarning yordam berishi isbotlanmagan.

Zehn va nutq rivojlanishining kechikishining namoyon bo'lish darajasi ham tug'ma omillarga, ham bola bilan shug'ullanishga bog'liq. Daun sindromi bo'lgan shaxslarda odatda aqliy zaiflik jiddiy darajada bo'ladi: 5% hollarda — debillik, 75% hollarda — imbetsillik, 20% hollarda esa idiotiya. Daun sindromi bo'lgan bolalar (idioitiyali shaxslar bundan mustasno) o'rganuvchandir. Ularning rivojlanishi va his-tuyg'ularining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladigan maxsus uslublar bilan o'qitish odatda yaxshi natijalarga olib keladi. Bugungi kunda Daun sindromi bo'lgan shaxslarning umr ko'rish davomiyligi uzaygan bo'lib, bu muddat 50 yildan oshadi. Ushbu sindromga ega bo'lgan ko'p odamlar turmush quradilar. Erkaklarda cheklangan miqdordagi spermatozoidlar bo'ladi, Daun sindromi bo'lgan erkaklarning ko'pchiligi bepustdir. Ayollarda muntazam [hayz sikli](#) kuzatiladi. Daun sindromi bo'lgan ayollarning kamida 50% farzandli bo'lishlari mumkin. Ushbu sindromga chalingan onalardan tug'ilgan bolalarning 35-50% da Daun sindromi yoki boshqa nogironlik aniqlanadi. Daun sindromi bo'lgan bemorlarda [saraton o'smasi](#) kamroq uchrashi haqida ma'lumotlar mavjud. Biroq, bunday kishilar kardiologik kasalliklar (odatda tug'ma yurak nuqsonlari), Altsgeymer kasalligi va o'tkir mieloid leykozlariga chalinishi ehtimoli ko'proq. Mazkur sindromli odamlarning immuniteti zaif bo'ladi, shuning uchun bolalar (ayniqsa, erta yoshda) ko'pincha [pnevmoniyaga](#) chalinadi, ular bolalarda uchraydigan infeksiyalarni qiyin boshdan o'tkazadi, tez-tez oshqozon buzilishi qayd qilinadi.

Eng muhimi bolada ijtimoiy xulq ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Aslini olganda har bir bolani o'zini to'g'ri tutishga, ya'ni toza yurishga, injiqlik qilmaslikka, o'yinchoqlarni sindirmaslikka, boshqa bolalarni xafa qilmaslikka o'rgatish kerak.

Ammo hozir soʻz ketayotgan bolalar uchun bu ikki karra muhimroq. Jamiyatimizda bolalarga boʻlgan munosabat ancha qattiqqoʻl, shuning uchun ijtimoiy xulq nuqtai nazaridan toʻgʻri hisoblangan koʻnikmalarga ega bola atrof-muhitga osonroq moslashishi mumkin. Bir yoshdan soʻng bola sizning yordamingizda oʻz tengdoshlari bilan ongli ravishda muloqotda boʻla boshlashi mumkin. Qumloq bolalarning oʻzaro muloqoti va tanishuvi uchun ilk maydonchaga aylanadi. Bolaning «odamlarga qoʻshilishi» beziyon kechishi uchun bir nechta jihatlarni eʼtiborga olish zarur. Birinchidan, farzandingizning faol oʻyinlarga qoʻshilish imkoniyati cheklanganligini inobatga olish lozim. Demak, siz farzandingiz charchagan paytni oʻz vaqtida sezishingiz va kerak boʻlganida uni oʻyindan chalgʻitib, bir oʻzi oʻtirishiga imkon yaratishingiz kerak. Bundan tashqari u tengdoshlari qila oladigan ishlarning hammasiniyam bajara olmaydi, bu holatni ham xotirjamlik bilan qabul qilishingiz lozim. Ikkinchidan, boshqa bolalarning ota-onalari bilan munosabatlarni yoʻlga qoʻyish kerak. Ular farzandingizning xastaligi haqida toʻliq tasavvurga ega boʻlmasliklari mumkin. Mana, farzandingizga har doim hamma ishda ustoz boʻlishga koʻnikdingiz. Har bir koʻnikmani u sizdan oʻrganadi, bu boshqa bolalar bilan muloqot qilish qobiliyatiga ham tegishli. Dastlabki paytlarda muloqotni oʻzingiz sahnalashtirishingiz kerak boʻladi. Bunda farzandingizga shunchaki «bolaga qoʻlingni ber» demasdan, farzandingizning qoʻlini olib boshqa bolaning qoʻliga qoʻying. Boshqa bolaga bir nechta savollar bering, birgalikda oʻynash qanaqaligini koʻrsating, yaʼni xatti-harakatlar modelini koʻrsating. Asta-sekin farzandingiz hammasini oʻzi qila boshlaydi, ammo bularni unga oʻzingiz oʻrgatasiz. Bolangiz uch yoshga toʻlganida sizning ijtimoiy aloqalaringiz ancha kengayishi mumkin. Birinchidan, bu ixtisoslashgan bolalar bogʻchasi boʻlishi mumkin. U yerda bola tarbiyachilar va maxsus pedagoglar kuzatuv ostida kichikroq guruhda boʻladi. Ammo bu zamonaviy taʼlim tizimlari boʻyicha shugʻullanadigan oddiy mini-guruh boʻlishi ham mumkin. Farzandingiz logoped guruhiga qatnashi mumkin, u yerda mutaxassislar farzandingizning nutqini yaxshilashadi. Axir bu paytga kelib, farzandingizda ancha-muncha soʻz boyligi paydo boʻladi, soʻzlarning soni esa oshib boraveradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Odam genetikasi." A. Gʻafurov. K. Fayzullayev. 2018-yil
  2. "Tibbiy bialogiya va genetika asoslari" P. X. Xolikov. A.Q. Qurbonov. A. O. Daminov. M. V. Tarinova. 2019-yil
  3. "Tibbiy genetika" K.N. Nishonboyev, J.H. Hamidov. 2005-yil
  4. NERV TOʻQIMASI HUYAYRALARINING TUZILISH GISTOLOGIYASI VA TARAQQIYOTI. Boboyorova Hayitoy Uchqun qizi. Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi Xolbekov Baxtiyor Baymanovich TTA TF Tibbiy biologiya va gistalogiya kafedrasida assistenti.
- [Http://universalpublishings.com/~niverta1/index.php/jusr/article/view/2874](http://universalpublishings.com/~niverta1/index.php/jusr/article/view/2874)

**ILMIY TADQIQOT ISHI BILAN SHUG'ULLANUVCHILARDA EMPIRIK  
TAJRIBALARNI, GNOSEOLOGIK IZLANISHLAR NATIJALARINI  
JAMLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Olimov Temir Hasanovich**

Osiyo xalqaro universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda empirik tajribalarni, gnoseologik izlanishlar natijalarini jamlash ko'nikmalarini shakllantirish ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

**Аннотация:** в этой статье те, кто занимается научно-исследовательской работой подчеркивается научно-теоретическая и практическая значимость формирования умений обобщать результаты эмпирических экспериментов и гносеологических исследований.

**Annotation:** in this article those who are engaged in research work The scientific, theoretical and practical significance of developing the skills to generalize the results of empirical experiments and epistemological research is emphasized.

**Kalit so'zlar:** empirik, gnoseologik, izlanishlar, natija, jamlash, ko'nikma, shakllantirish.

Har bir ilm sohasida mavjud empirik tajribalarni, gnoseologik izlanishlar natijalarini jamlash, umumlashtirishga zaruriyat mavjuddir. Bunday ilmiy izlanish fundamental ahamiyatga ega bo'lib, u ilm sohasining real holatini, u duch kelayotgan nazariy, falsafiy, metodologik muammolar nimalardan iborat ekanini va uning rivojlanish yo'llarini, ideal holatga yetish bosqichlarini aniqlab olishga yordam beradi. Ilm sohasining bunday xususiy muammolarini o'rganish tadqiqotchidan katta gnoseologik tajriba va ilm-fanning falsafiy metodologik muammolaridan yaxshi xabardorlikni talab etadi.

Ijtimoiy taraqqiyotni bugun ilmiy-texnik kashfiyotlarsiz, ixtirolarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson mehnatini yengillashtirish va samaradorligini oshirish, ijodiy salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish imkoniyatini beruvchi vositalar, mexanizmlar va shart-sharoitlar yaratish ilmiy-texnik taraqqiyotning bosh vazifasidir. Bugun jon-jahd va fidoyilik bilan mehnat qilish yetarli emas, mehnatni, faoliyatni ratsional tashkil etish, samaradorligini oshirish yo'llarini izlash muhimdir. Jamiyatga ilmiy aqliy quvvatlariga tayanib, mehnatni, faoliyatni oqilona uyushtirishga, ijtimoiy ehtiyojlarni to'la qondirishga qaratilgan usullarga, vositalarga tayanadigan, ushbu usullarni va vositalarni kashf etadigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham tadqiqot mavzusini ilmiy-texnik

rivojlanish maqsadidan kelib chiqib tanlash talab etiladi. Ilm-fan oldiga ijtimoiy-siyosiy tuzum ham o'z talabini qo'yadi. Ijtimoiy-siyosiy tuzum ichki institutlarini o'z maqsadiga muvofiq faoliyat olib borishini istaydi, aks holda tuzum bilan institutlar o'rtasida begonalashuv yuzaga keladi. Aniq strategik maqsadi va rivojlanish dasturiga, modeliga ega ijtimoiy-siyosiy tuzum barcha sohalarni institutlarni, shu jumladan ilm-fanni ham ana shu strategik maqsad va rivojlanish dasturiga, modeliga xizmat qilishga yo'naltiradi. Ushbu obyektiv, ijtimoiy talabga xizmat qilishga tayyor tadqiqotgina siyosiy tuzum tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Iqtisodiy rivojlanish barcha davrlarda, barcha davlatlarda ilm-fan rivojlanishiga ta'sir etuvchi obyektiv omil bo'lib kelgan. Inson va jamiyatning moddiy ehtiyojlarini qondirish orqaligina ilm-fan, ilmiy izlanishlar o'zining ijtimoiy foydali mashg'ulot, faoliyat ekanini isbotlagan. Demak, ilmiy tadqiqot mavzusini tanlashda iqtisodiy rivojlanish omili unutilmasligi kerak. Hatto sof ilmiy-nazariy, diniy-transsendental, apriori mavjudligini asoslashga qaratilgan izlanishlar ham pirovard natijada amaliyot, dunyoni mukammallashtirish, insonning ruhiy olamini yuksaltirishga oid o'zining empirik tavsiyalarini berishini esdan chiqarib bo'lmaydi. Ijtimoiy taraqqiyot insonni o'rab turgan «sun'iy olam», arte-faktlar, «madaniyat» deb ataluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar orqali idrok etiladi, o'lchanadi. Ilm-fanning o'zi madaniyatga oid sohadir, shu bois madaniy yuksalishga xizmat qilish uning immanent xususiyatidir.

Ilmiy tadqiqot o'tkazish ratsional tashkil etiladigan, o'ziga xos metodika va metodlarga ega ijodiy faoliyatdir. Uning ratsionalligi inson aqlu idroki va real hayotiy talablarni bilan bog'liqligida, metodikasi va metodlari esa, ilm-fanda qabul qilingan, ijodiy faoliyatni samarali o'tkazishga yordam beradigan usullar va mexanizmlardan foydalanganidadir.

Ilmiy izlanish murakkab, serqirra va ziddiyatli kechadigan jarayondir. Tadqiqotchi ichki va tashqi ta'sirlari ostida izlanish olib boradi, mazkur ta'sirlarni ilmiy maqsadga yo'naltirish oson emas. Ilmiy tadqiqot o'tkazish metodikasini egallagan, ilmiy metodlardan yaxshi xabardor va ularni qo'llay oladigan shaxs ko'zlagan maqsadiga erishadi, ilm-fan sohasida biror e'tiborli fikr ayta oladi.

Ilmiy tadqiqot o'tkazishning asosiy maqsadi obyektning real holatini ideal holatga ko'tarish hisoblanadi. Mazkur maqsadga yetishning samarali yo'llarini, mexanizmlarini topish va jamiyatga taklif etish olimning vazifasidir. Mualliflar yosh tadqiqotchilarni o'z burchini obyektiv bajarishga, buning uchun esa ilm-fanda shakllangan metodlarga tayangan holda ijodiy kreativ pozitsiyada turishga da'vat etadilar.

Ilmiy tadqiqot mavzusini tanlashgacha bo'lgan jarayonlarni tadqiqotchining «o'zini o'zi izlash», «o'zligini topish» davri deb atash mumkin. Bu davrda tadqiqotchi



hali biror-bir mavzuni tanlashdan, uni biror muammo bilan bog'lashdan uzoq bo'ladi. Tajriba ko'rsatadiki, ilm sohasiga birinchi qadam tashlaganidayoq mavzu topib, uni biror muammo bilan bog'lay olgan tadqiqotchi deyarli uchramaydi. Demak, mavzu tanlashda ilm sohasidan, mavzuga oid izlanishlar va muammolardan yaxshi xabardor mutaxassisning yordami, maslahati zarur. Bunday mutaxassis mavzu tanlashga ta'sir etuvchi obyektiv omillardan xabardor bo'lgani uchun ham «ilmiy rahbar», «ilmiy maslahatchi», tadqiqotni ratsional olib borishni o'rgatuvchi «ustoz» deb ataladi.

Mavzuni tanlashga undovchi obyektiv omillar quyidagilardanI borat:

- ijtimoiy taraqqiyot talabi;
- ilmiy-texnik taraqqiyot talabi;
- iqtisodiy rivojlanish omili;
- madaniy yuksalish ehtiyoji.

Ilm-fanning ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishi aksiomadir. Shuning uchun tanlanadigan mavzu ijtimoiy taraqqiyot maqsadlari va vazifalari bilan bog'liq bo'lishi zarur.

Ijtimoiy taraqqiyot deganda umuminsoniy rivojlanish, umumbashariy qadriyatlarni asrash va ko'paytirish, ijtimoiy hayotni yanada insoniylashtirish, global muammolarni hal etish, insoniyat erishgan yutuqlarni, pozitiv tajribalarni yanada ko'paytirish nazarda tutiladi. Mazkur maqsad va vazifalarga xizmat qilish orqaligina ilm-fan, o'tkaziladigan tadqiqot, tanlanadigan mavzu pozitiv ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
6. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.

7. Jalolov, T. S. (2023). MATH MODULES IN C++ PROGRAMMING LANGUAGE. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 834-838.
8. Jalolov, T. (2023). UNDERSTANDING THE ROLE OF ATTENTION AND CONSCIOUSNESS IN COGNITIVE PSYCHOLOGY. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 839-843.
9. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. *Вестник науки и образования*, (15-3 (118)), 40-42.
10. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. In *НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 10-12).
11. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. *Universum: технические науки*, (4-1 (109)), 41-43.
12. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 305-307.
13. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. *Miasto Przyszłości*, 35, 388-390.
14. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. *PEDAGOGS journali*, 1(1), 292-292.
15. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 102-106).
16. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ. *Проблемы науки*, 84.
17. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In *ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ* (pp. 60-62).

18. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In EUROPEAN RESEARCH (pp. 121-123).
19. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. *Universum: технические науки*, (2-1 (95)), 57-59.
20. Сайфуллаева, Н. Б., & Саидова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 101-102.
21. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 383-388.
22. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 102-107.
23. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 138-143.
24. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.
25. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL*, 7.
26. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
27. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
28. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 6(1), 54-68.
29. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR*, 7(17), 461-466.
30. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.


31. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(6), 47-51.
32. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 277-284.
33. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res*, 65(1), 2719-2722.
34. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск)*, (23), 127-130.
35. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 05 (85), 277-284. Uzbekistan, B. Qualitative properties and imagery of Colors.
36. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang 'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).
37. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasini mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).
38. Xayrullayevich, S. H. (2023). Use of Acrobatic Exercises and Their Terms In The Process of Teaching Gymnastics. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599), 1(9), 80-86.
39. Xayrullayevich, S. H. (2023). AEROBIK GIMNASTIKANING XUSUSIYATLARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 442-448.
40. Xayrullayevich, S. H. (2023). РАЗВИТИЕ ДВИЖИТЕЛЬНЫХ НАВЫКОВ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ВОЗРАСТА С ПОМОЩЬЮ СПОРТИВНОЙ ГИМНАСТИКИ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА КАК ИЗ. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 457-464.
41. Xayrullayevich, S. H. (2023). Norms of gymnasiums and activities of gymnasiums. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 428-434.
42. Ayubovna, S. M. (2023). Jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishi va jismoniy sifatning ko'chishi. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 379-393.
43. Ayubovna, S. M. (2024). Gimnastika darsining maqsadlari, vositalari va

uslubiy xususiyatlari. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 90-97.

44. Ayubovna, S. M. (2023). Physical education lessons in the process of umumpedagogik methods. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 345-354.

45. Ayubovna, S. M. (2023). Jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishi va jismoniy sifatlarning ko'chishi. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 379-393.

46. Ayubovna, S. M. (2023). Physical downloads and the rest of fulfilling exercise mutual dependence. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 394-409.



## EMPATIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

**Narziyeva Shahnoza Rustamjonovna**

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada empatiya haqida nazariy ma'lumotlar, empatiyaning rahm-shafqatdan farqi, empatik bo'lish hayotda qutqaruvchi vazifasini bajaruvchi kasb egalari, ya'ni shifokorlar, psixolog-konsultantlarga xos, balki ko'ngilli yordam beruvchi shaxslarda ham belgilarini kuzatishimiz mumkinligi haqida, shuningdek, bugungi kunda u barcha sohalarda muloqotni takomillashtirish va samaradorligini oshirishning muhim va boy vosita ekanligi haqida fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** hamdardlik bildirish qobiliyati, antipatiya, kommutativ aloqa, his-tuyg'ular palitrasi.

Empatiya - bu boshqa insonning ichki dunyosi va holatini ongli ravishda tushunish, hamdardlik bildirish qobiliyati. Empatiya hamdardlik-antipatiya yoki rahm-shafqatdan tubdan farq qiladi, chunki u insonning qanday vaziyatda ekanligini tasavvur qilish, uning his-tuyg'ularini hukm va tanqidsiz, tushunishga urinishga hamda suhbatdoshning qiyofasiga kirishga asoslangan. Empatik bo'lish nafaqat hayotda qutqaruvchi vazifasini bajaruvchi kasb egalari, ya'ni shifokorlar, psixolog-konsultantlarga xos, balki ko'ngilli yordam beruvchi shaxslarda ham belgilarini kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunda u barcha sohalarda muloqotni takomillashtirish va samaradorligini oshirishning muhim va boy vositalaridan biridir. Empatiya nimaga o'xshaydi?

Suhbatdoshning kòzlariga tik boqqanda, hamdardlik bildirilganda yoki diqqat bilan tinglanganda sizda ròy beradigan hislarda namoyon bòladi. Kòpincha shaxslarda salbiy his-tuyg'ularini aks ettirishga va achinishga o'xshaydi. Empatiya insonni faol tinglashga, uning tajribasiga samimiy qiziqish va hurmat bilan qarashga va uning ichki dunyosini o'rganishga yordam berishga yordam beradi.

Shaxslararo kommunikativ aloqaga kirishganingizda suhbatdoshingizni fikrlashdan to'xtatmasdan, oddiy javob (ha yoki yo'q) bilan javob berib bo'lmaydigan ochiq savollarni berishga harakat qilish kerak. Bunday savollar samarali muloqotning asosiy vositasi ekanligi isbotlangan. Muloqot jarayonida tashqi emotsiyani ifodalanishi, hissiy tajribani anglash, qiyin vaziyatga tushib qolgan (yoki biz shunchaki muloqot qilayotgan) odamlarni qo'llab-quvvatlash uchun empatik hissiy munosabatimizni ifodalaymiz. Vaziyat bizga yaqin bo'lmasa ham, darrov hukm qilmaslik, suhbatdoshning fikrlashdan chalg'itmaslik, aytilganlarga yangi noyob tajriba sifatida munosabatda

bòlishlik, ochiq fikrli bo'lishlik, haqiqatda juda ko'p odamlar, juda ko'p vaziyatlar, his-tuyg'ular va his-tuyg'ular palitrasi borligini tushunish bizdagi empatlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kimni empatik deb atash mumkin? Hammamizda turli darajadagi hissiylik-ajralish bor, lekin bu yerda asosiy narsa shaxsiy xususiyatlar yoki genetika emas, balki o'z his-tuyg'ularingiz bilan aloqada bo'lish qobiliyatidir. Asosan, biz oilada hamdardlikni o'rganamiz, bizga g'amxo'rlik qiladigan yaqinlarimiz bilan aloqada bo'lamiz, oilada qiyin vaziyatlarda paydo bo'ladigan ba'zi his-tuyg'ularga qanday munosabatda bo'lish odatini o'zlashtiramiz. Ijtimoiy hayotda: “qarilarga nogironlarga, homladorlarga joy bòshatish kerak” kabi odob-axloq normalariga bòysunamiz. Ammo vaziyat tufayli biz ba'zi tajribalardan qochishga odatlangan bo'lsak ham, empatiya har bir kishi o'rganishi mumkin bo'lgan mahoratdir (masalan, maxsus mashg'ulotlarda yoki hissiy intellekt xususiyatlarini mustaqil ravishda tushunish orqali).

Kim empat bo'lishi kerak? Bu faqat insonlarga yordam beruvchi kasbida o'zini topganlar uchun muhimmi? Ko'rinishidan, yo'q, aksincha, bu har qanday zamonaviy shaxsning hissiy xususiyati: hayot sifatini yaxshilash uchun ba'zi empatik qobiliyatlarga ega bo'lish muhimdir. Ammo tibbiyot sohasida, nodavlat notijorat tashkilotlarida qiyin vaziyatga tushib qolgan zaif odamlar bilan muloqot qilish haqida gap ketganda, hamdardlik qobiliyati asosiy kasbiy kompetensiyalardan biridir. Va hatto ishga qabul qilishda ham bunday yumshoq ko'nikmalarga ega bo'lgan va ularni professional muammolarni hal qilish uchun ishlatadigan shaxs foydasiga qaror qabul qilinishi mumkin. Ish beruvchilar buni qila oladiganlarni yollashdan foyda ko'radilar, chunki bunday ko'nikmalar aloqa, mojaro, qiyin vaziyatlar, mijozlar yoki qiyin hissiy tajribalar bilan shug'ullanadigan xodimlardan talab qilinadi. Ammo empatiyani rivojlantirish hayotingiz sifatini yaxshilash, o'zingiz bilan yanada uyg'unlik uchun ham foydalidir, chunki zamonaviy dunyoda hayot bizni ko'pincha bunday hashamatdan mahrum qiladi.

Empatiya, shuningdek, turli vaziyatlar qanday bo'lishi mumkinligini va ularni qanchalik boshqacha qabul qilish mumkinligini o'rganish uchun cheksiz harakatdir. Qizig'i shundaki, empatiya borgan sari madaniy tendentsiyaga aylanib bormoqda. Londonda hamdardlik muzeyi bor, butun dunyo bo'ylab hamdardlik kutubxonalari yaratilmoqda, ular ko'proq kafelarga o'xshaydi, u yerda turli murakkab hayotiy tajribalarning tashuvchisi bo'lganlar: ajrashganlar, og'ir kasallikka chalinganlar keladi. Ularning oldiga shunchaki suhbatlashish, oddiy suhbatda ularning hayoti va hissiy tajribasiga ega bòlish uchun tashrif buyurishlari mumkin. U yerdagilarning vazifalari insonlardagi dunyoni idrok etish chegaralarini va hissiy tajriba haqidagi g'oyalarni kengaytirish, his-tuyg'ularni, fikrlarni va xatti-harakatlarni farqlashni tushuntirishdan iborat.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, shaxslar individual va ulardagi individual psixologik xususiyatlar (temperament, qobiliyat, xarakter) ham birbiridan farq qilishiga qaramay hissiy xususiyat hisoblangan empatiya tuyg'usi shakllangan bõlishi kerak. Empatik xususiyatimizni rivojlantirish shaxslararo munosabatlarimizdagi rolimizni hamda mavqeyimizni, shuningdek, tarbiya darajamizni kòrsatadi. Insonlar suhbatdoshlarining qiyofasiga kira olsa, ularga hamdardlik bildirsa munosabatlardagi samimiylik va ishonch hissi ortar ekan. Empativlik ontogenetik davrning aynan òsmirlik va òspirinlik davrlari ongli tus ola boshlar ekan, aynan shu yoshdagi shaxslarga shaxslararo munosabatlarda empatik xususiyatda bõlish kerakligini didaktik va amaliy kòrsatmalar orqali kòrsatib berilsa, yoshlardagi odob-axloq sezilarli darajada ijobiy natijalarni kòrsatar edi.

#### FOYDALANILGAN ADADBIYOTLAR:

1. Narziyeva Shahnoza Rustamovna. (2023). DEVELOPING EMPATHY IN STUDENTS. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research* , 1(3), 127-131. <https://inno-world.uz/index.php/ojamr/article/view/76>
2. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 132–134.
3. Shahnoza Rustamovna, N. (2023). UNDERSTANDING EMPATHY: AN ESSENTIAL COMPONENT OF HUMAN CONNECTION. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 378–382.
4. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. *Modern Science and Research*, 2(10), 333-336.
5. Akbarovna, I. S. (2023). MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.
6. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR*, 7(17), 461-466.
7. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
8. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(6), 47-51.
9. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science*, (5), 277-284.



10. Salomat, G. L. The essence of the content of the concept of digital educational resources and its role in primary education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. 2020, Volume: 10, Issue: 5.
11. Gafurovna, L. S., & Pirniyazova, N. V. (2023). A System for Developing The Skills of A Future Primary School Teacher in the Use Of Digital Educational Resources. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 258-262.
12. Hikmatovna, M. N. (2023). Tarbiyaning Maqsad Va Vazifalari. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 386-388.
13. Hikmatovna, M. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA VOSITALAR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 339-344.
14. Maxmudova, N. (2018). THE ROLE OF COMPUTER TECHNOLOGIES IN THE INNOVATIVE TRAINING PROCESS. *Экономика и социум*, (3 (46)), 34-36.
15. Oktam's, S. M. (2023). "Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization". *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 104–108.
16. O'ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O 'YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.
17. Isomova, F. A. T. Q. (2022). MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.
18. Isomova Farog'at Tojiddin qizi. (2023). THE CONTENT OF THE FORMATION OF SPEECH AND READING COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(11). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/444>.
19. Tursunova, Z. N. (2023). START MODERN PRINCIPLES OF ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN CLASSROOMS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 494-499.
20. Tursunova, Z. N. (2023). ORGANIZING OUTSIDE THE CLASSROOM IN MOTHER TONGUE SUBJECT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 468-472.
21. Kozimova, N. A. (2023). Techniques and methods used in the process of psychological counseling. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 338-341.


22. Kozimova, N. A. (2023). PERSONALITY TYPES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 372-377.
23. Kozimova, N. A. (2023). Psixologik konsultatsiya bosqichlari. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 90-95.
24. Kozimova, N. A., & Ulugova, S. M. (2022). Classification of a Group of Staff for Psychological Conseling and Referral to It. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 7, 175-177.
25. Kozimova, N. A. (2024). OTA-ONALIK PSIXOLOGIYASI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 119-125.
26. Hojiyeva, N. B. (2023). INCREASING THE INTEREST OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING TECHNOLOGY IN PRIMARY GRADES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 430-433.
27. Hojiyeva, N. B. (2023). MODERN METHOD IN TEACHING MOTHER LANGUAGE LESSONS-USING THE CACOGRAPHY METHOD. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 434-439.
28. Sidiqova Yulduz Sobirovna. (2024). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМДА NUTQ, MULOQOT O’QISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 52–62.
29. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. In *НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 10-12).
30. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. *Universum: технические науки*, (4-1 (109)), 41-43.
31. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1), 305-307.
32. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. *Miasto Przyszłości*, 35, 388-390.
33. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 292-292.

34. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY (pp. 102-106).
35. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ. Проблемы науки, 84.
36. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (pp. 60-62).
37. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. Ann. For. Res, 65(1), 2719-2722.
38. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. Язык и культура (Новосибирск), (23), 127-130.
39. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 277-284.
40. Uzbekistan, B. Qualitative properties and imagery of Colors.
41. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang 'ich ta'lim nazariyasi kafedراسи mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In Научно-практическая конференция (pp. 23-24).
42. Ayubovna, S. M. (2023). Physical downloads and the rest of fulfilling exercise mutual dependence. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 394-409.
43. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedراسи mudiri, PhD, dotsent. In Научно-практическая конференция (pp. 21-22).
44. Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 116-122.
45. Ravshanovna, X. S. (2023). Globallashuv sharoitida o 'quvchilar aqliy-ruhiy qiyofasini shaklantirishda muloqot uslublarining ahamiyati. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 100-106.

46. Ravshvnovna, K. S. (2023). THE ROLE OF THE CULTURE OF COMMUNICATION IN MODERN EDUCATION AND EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 356-361.

47. Ravshanovna, X. S. (2022). BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR VA O‘QUVCHILAR O‘RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO‘YILADIGAN TALABLAR. *Лучший инноватор в области науки*, 1(1), 814-819.

48. Ravshanovna, X. S. (2023). O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o‘zlashtirish jarayoniga ta’siri va ahamiyati. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 803-816.



COMPLEX FORMATION OF RADIONUCLIDES WITH SOIL  
HUMIC ACIDS

**Eshkaraev S.Ch., Toshpulatov T.A., Saidova A.A**

Termiz university of economics and service,

E-mail: [sadridin\\_eshkarayev@tues.uz](mailto:sadridin_eshkarayev@tues.uz) , tel: +99893-799-49-78

**Annotation** The article studied the properties of complexation of radionuclides with humic acids in soil. It has been established that humic acids can form complex compounds with radionuclides of cesium-137, strontium-90 and potassium-40 in the soil.

**Key words:** radionuclides, humic acids, adsorption, sorption, cesium-137, strontium-90, metal ions, donor atoms.

**КОМПЛЕКСООБРАЗОВАНИЕ РАДИОНУКЛИДОВ С ГУМИНОВЫМИ  
КИСЛОТАМИ ПОЧВЫ**

**Эшкараев С.Ч., Ташпулатов Т.А., Аллабердиева Б.Х.**

Термезский университет экономики и сервиса,

E-mail: [sadridin\\_eshkarayev@tues.uz](mailto:sadridin_eshkarayev@tues.uz)

тел: +99893-799-49-78

**Аннотация:** В статье изучены свойства комплексообразования радионуклидов с гуминовыми кислотами в почве. Установлено, что гуминовые кислоты может образовать комплексные соединения с радионуклидами цезия-137, стронция-90 и калия-40 в почве.

**Ключевые слова:** радионуклиды, гуминовые кислоты, адсорбция, сорбция, цезий-137, стронций-90, ионы металлов, донорные атомы.

**Введение.** Гуминовые кислоты содержат донорные атомы серы и кислорода, образующие комплексные соединения с ионами металлов. Ионы металлов во всех степенях окисления может связываться с кислородсодержащими функциональными группами. Для определения констант устойчивости гуматов радионуклидов используют различные экспериментальные методы, включающие методами разделение свободного и связанного в комплекс металла (ультрафильтрация, жидкостная экстракция, ионный обмен) и спектральными методами (спектрофотометрия, лазерная флуоресценция). Однако определение

констант устойчивости гуматов радионуклидов представляет экспериментальные трудности, связанные со способностью гуминовых кислот концентрироваться на границе раздела фаз, в том числе сорбироваться на стенках сосудов, электродах и ионообменных смолах. Из-за непостоянства структуры и свойств гуминовых кислот значения констант устойчивости их комплексов также отличаются для разных препаратов [1,2].

**Экспериментальная часть.** Комплексообразование металлов с гуминовыми кислотами может быть описано или как взаимодействие с конкретными функциональными донорными группами, или со всей макромолекулой в целом. Существует несколько моделей описания комплексообразования металлов с гуминовыми кислотами, в которых различным образом выражается концентрация свободных центров в молекуле полиэлектролита. В модели «нейтрализации заряда» [3] концентрация свободных центров выражается через общую емкость, которую определяют экспериментально, а число реакционных центров, занимаемых ионом металла, эквивалентно его заряду. Рассчитанная таким образом константа устойчивости не зависит от pH, в отличие от константы устойчивости, рассчитанной в рамках «полиэлектролитной» модели [4, 5], в которой предполагается образование хелатных структур с участием большего числа функциональных групп, чем формальный заряд металла. Концентрацию доступных центров связывания в последнем случае определяют методом потенциометрического титрования, выражая концентрацию свободной гуминовой кислоты в экв/г. Чаще всего эту модель используют при следовых концентрациях металла, существенно меньших полной емкости гуминовых кислот [6].

**Обсуждение результатов эксперимента.** Константы устойчивости гуматов некоторых радионуклидов, рассчитанные по полиэлектролитной модели, приведены в табл. 1.

Для ионов радионуклидов, у которых константы устойчивости гуматов относительно велики, связывание в комплексы с гуминовыми кислотами является основной реакцией при нейтральных pH. На рис. 25 приведена доля тория, связанного в гуматный комплекс при различных содержаниях гуминовых кислот [7].

Связывание металлов в гуматные комплексы определяет их миграционное поведение в окружающей среде. Нами установлена корреляция между содержанием  $^{137}\text{Cs}$  и  $^{90}\text{Sr}$  и общим органическим углеродом (см. рис. 1). Данные по вертикальным профилям концентрации  $^{137}\text{Cs}$  в почвах из Термезского района

также указывают на важную роль гуматов в его миграции в окружающей среде. Наблюдается частичное проникновение  $^{90}\text{Sr}$  на глубину до 2 м [8].


Гуминовые кислоты способны покрывать поверхность минеральных частиц, блокируя тем самым их сорбционные центры. В зависимости от химических свойств радионуклидов образование подобных псевдоколлоидных систем способно как уменьшать, так и увеличивать подвижность радионуклидов в окружающей среде. Так, подвижность  $^{137}\text{Cs}$ , обладающего, с одной стороны, высокой склонностью к сорбции на глинах, а с другой стороны, низкими константами устойчивости гуматов, коррелирует с содержанием гуминовых кислот (рис. 2). Для  $^{90}\text{Sr}$  подобная корреляционная зависимость отсутствует, тогда как подвижность  $^{137}\text{Cs}$  (для которого предпочтительнее связывание в гуматный комплекс, чем сорбция на глине) уменьшается при увеличении содержания ГК [9] (см. рис. 2).

**Таблица 1**


Константы устойчивости гуматов некоторых радионуклидов [10]

Ионы	$\lg P_1$	$\lg P_2$	Условия проведения эксперимента
$\text{Cs}^{2+}$	6,7	11,5	=0,1 моль/кг, 25°C, $\alpha=0,5$
$\text{Sr}^{2+}$	6,6	11,3	
$\text{K}^+$	6,8	11,8	
$\text{Th}^{2+}$	9,6	17,3	
$\text{Th}^{4+}$	11,8+0,1	18,5	

$\lg P_1$  и  $\lg P_2$  — ступенчатые константы устойчивости комплексов, а — степень депротонирования.



**Рис. 1.** Зависимость доли калия, связанного в гуматный комплекс, от концентрации ГК в растворе



**Рис. 2.** Корреляция между содержанием <sup>137</sup>Cs, <sup>90</sup>Sr и органического углерода в почвах

**Выводы.** По результатам исследований можно сделать вывод, что гуминовые кислоты может образовать комплексные соединения с радионуклидами цезия-137, стронция-90 и калия-40 в щелочной и слабокислотной среде.

### ЛИТЕРАТУРА

1. Врочинский К.К., Маковский В.Н. Применение пестицидов и охрана окружающей среды. Киев: Высшая школа. 1979.208 с.
2. Галиулин Р. В. Галиулина Р. А. Дегидрогенная активность почвы как критерий для оценки ее загрязнения пестицидами: Мат-лы IV Рос. биохимической школы «Геохимическая экология и биогеохимическое изучение таксонов биосферы». М.: Наука. 2003. С. 114—115.
3. Коробкин В.И. Передельский Л.В. Экология. Ростов на-Дону: Феникс. 2000. 576 с.
4. Мельников Н.Н. Волков А.И. Короткова О. А. Пестициды и окружающая среда. М.: Химия, 1977. 240 с.
5. Bralimi Fauchon S., Cotc-Bene/et M., Gatel D. Cavard J. Evolution de la contamination des cours d'eau parles pesticides en Ile-de-France // Techn. sci. meth. 2002. N. 3. P. 35-42.
6. Cupples Alison M., Sims Gerald K., Hultgren Ryan P.,Hart Steven E. Effect of soil conditions on the degradation of cloransulam-methyl // J. Environ. Qual. 2000. V. 29. N. 3. P. 786-794.



7. Gamble Donald S., Lindsay Elspeth. Aldo G., Langford Cooper H., Leves Gregory A. Chlorothalonil and its 4-hydroxy derivative in simple quartz sand soils: A comparison of sorption processes // Environ. Sci. and Technol. 2001. V. 35, N. 11. P. 2375-2380.

8. Hung H. Halsall C.J., Blanchard P. Li H.H., Fellin P., Stern G., Rosenberg B. Temporal trends of organochlorine pesticides in the Canadian arctic atmosphere // Environ. Sci. and Technol. 2002. V. 36, N. 5. P. 862-868.

9. Eshkaraev S.Ch. Influence of Pesticides on Increasing Soil Radioactivity. World Journal of Applied Chemistry. 2021; 6(4): 49-54. <http://www.sciencepublishinggroup.com/j/wjac> doi: 10.11648/j.wjac.20210604.12 ISSN: 2637-5966 (Print); ISSN: 2637-5982 (Online)

11. Eshkaraev S.Ch. Ways of plant definition of radio nuclear-located soils of Uzbekistan. International Scientific Journal "Theoretical & Applied Science". p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online). Year: 2021 Issue: 09 Volume: 101. Published: 25.09.2021 <http://T-Science.org>.

## EKSPORT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

**Xurramov Ramazon Allayor o'g'li**

Termiz davlat universiteti [xurramovr@tersu.uz](mailto:xurramovr@tersu.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy davlatlar tajribasida eksport faoliyatini rivojlantirish yo'llari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** eksport, YaIM, boj, xalqaro savdo, iqtisodiy rivojlanish,

Eksport salohiyatidan oqilona foydalanish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakat o'z iqtisodiy sharoiti, taraqqiyot bosqichi, shuningdek, jahondagi iqtisodiy, siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda o'z taraqqiyotida eksportni rag'batlantirishning turli uslublarini qo'llagan. Mamlakatlar xorijiy tajribalardan kelib chiqib, davlat aralashuvi orqali va shuningdek, ko'proq bozor mexanizmlariga tayangan holda o'z eksportchilarini rag'batlantirishgan. Shunday qilib, eksportni davlat aralashuvi vositasida rag'batlantirish, ayniqsa, ishlab chiqarishni tashkil etish va jahon bozoriga olib chiqish uchun salmoqli sarmoyalar sarfini talab qiladigan noan'anaviy eksport yoki zamonaviy texnik jihatdan murakkab mahsulotlar eksportida ijobiy natijalarini berdi. Ushbu vaziyatda davlatning moliyaviy ko'magi, uning xususiy sarmoyani safarbar qilishdagi harakatlari, infratuzilmalarga asos solish ulkan ahamiyat kasb etdi va eksport tuzilmalarining nisbatan qisqa muddatlarda mukammallashuvini ta'min etdi<sup>2</sup>.

Boshqa tomondan esa, bir qator boshqa davlatlar (Malayziya, Singapur, Tailand, Tayvan) ning tajribasi asosan bozor mexanizmlariga tayanishni o'zida aks ettiradi. Sanoati rivojlangan davlatlar sirasiga mansub eksportga yo'naltirilgan davlatlar (Tailand, Tayvan, Malayziya) ning ko'pchiligida hukumat eksport masalalariga deyarli aralashmagan<sup>3</sup>. Boshqa davlatlar esa, aksincha, eksportchilar uchun qulay makroiqtisodiy sharoitlarni yaratish bilan bir qatorda eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning maxsus shakllaridan ham foydalanishgan.

Mamlakatimizda eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalar hududlarning mintaqaviy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda, ichki imkoniyatlar doirasida eksport operatsiyalarini amalga oshirmoqda. Ammo hududlarda resurs, ishchi kuchi kabi imkoniyatlardan foydalanish darajasining pastligi kabi holatlar mavjudki, ulardan oqilona foydalanish ishlab chiqarishni yanada kengaytirib, mamlakatimiz korxonalari eksport salohiyatini keskin oshirish katta ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun

<sup>2</sup> [www.budgetrf.nsu.ru](http://www.budgetrf.nsu.ru)

<sup>3</sup> [www.budgetrf.nsu.ru](http://www.budgetrf.nsu.ru)

ilg'or mahalliy tajribalarni ommalashtirish bilan birga xorij tajribalarini ham o'zlashtirib, ularni korxonalarimiz salohiyatidan kelib chiqqan holda qo'llash imkoniyatlarini yanada kengaytirish lozim. Korxonalar eksport salohiyatini oshirish bilan bog'liq rivojlanish omillaridan biri iqtisodiyotda innovatsion-investitsion jarayonni jadallashtirish, ilmiy-texnikaviy rivojlanishga erishish hisoblanadi. Eksport salohiyati yuqori mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, aynan innovatsion-investitsion muhit rivojlangan davlatlarga iqtisodiy taraqqiyotining dastlabki davrida ishlab chiqarishining diversifikatsiyasiga erisha olishgan va keyingi rivojlanish bosqichida murakkab texnologiyaga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishgan. Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-texnik dasturlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash asosan ikkita shaklda amalga oshiriladi: bevosita davlat tomonidan moliyalashtirish hamda xususiy va davlat korxonalari uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratilishini rag'batlantirish, ular o'z navbatida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini kengaytiradi, ilg'or texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy qiladi. Birinchi shakl ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarishning eng yangi tarmoqlarini o'zlashtirish sohasida ko'p jihatdan ilmiy-texnik dasturlarning tezlashuviga ta'sir ko'rsatadi, ikkinchisi esa – texnika va texnologiyalar umumiy darajasining yuksalishiga olib keladi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda ushbu ikkita shakllar qo'llanib, ular o'rtasidagi nisbat turli mamlakatlarda va rivojlanishning turli bosqichlarida kuchli darajada o'zgarishlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Yaponiyada ilmiy-texnik dasturlarni davlat tomonidan rag'batlantirish bevosita byudjetdan moliyalashtirishdan tashqari bilvosita usullar: soliq imtiyozlari, tezlashtirilgan amortizatsiya asosida amalga oshiriladi.

Eksport subsidiyalari – ayrim mahsulotlarni chet mamlakatlarga eksport qilishda eksport qiluvchi tashkilotlarga davlat yoki mas'ul institutlar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy imtiyozlardir. Ko'plab vaziyatlarda nafaqat eksport, balki umuman mahsulot ishlab chiqarish ham yashirin proteksionistik to'siqlariga ishora qilingan holda subsidiya qilinadi. Subsidiyalar, ko'p mablag' sarflanadigan tovarlar bilan bir qatorda ayrim tayyor mahsulotlar eksportiga, ayniqsa, qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan keng tarzda ishlatiladi. Masalan, Janubiy Koreya hukumati 2001 yilda qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilishga 25,95 milliard vonni tashkil qiluvchi subsidiya ajratdi. Ushbu subsidiyalar mevalar, gullar, sabzavotlar, kimchi, jenshen va qora mol mahsulotlariga tegishli edi<sup>4</sup>.

Yevropaning qariyb barcha mamlakatlarida eksport qiluvchi firmalar faoliyatini konsalting va boshqa xizmatlar ko'rsatish orqali rag'batlantirish yo'lga qo'yilgan. Osiyo mamlakatlaridan ayrimlarida yirik milliy kompaniyalar o'zlarining savdo uylari orqali kichik korxonalariga mahsulotlari eksportini yo'lga qo'yishda amaliy yordam beradi.

<sup>4</sup> WTO Secretariat, «Trade Policy Review: South Korea», 2000, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)

Shuningdek, Jahon banki rivojlanayotgan mamlakatlar sanoat korxonalariga eksport operatsiyalarini amalga oshirishda amaliy yordam ko'rsatadi. Xususan, milliy kompaniyalar mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish muammolarini hal etish bo'yicha xorij ekspertlaridan konsultatsiya va maslahatlar olishni tashkil etadi. Maslahat berish doirasi menejment, injiniring, bugalteriya hisobi, bank, sug'urta ishi, sifatni nazorat qilish, mahsulotlarni sertifikatsiyalash kabi masalalarni qamrab oladi.

Eksport kreditlari asosan tayyor mahsulotlarga beriladi va uzoq va qisqa muddatli kreditlarni o'z ichiga oladi. Kreditlash qayta moliyalashtirish, subsidiyalash yoki sug'urtalash maxsus jamg'armalari orqali to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi. Maxsus kreditlash jamg'armalarini tuzish banklar va hukumatlararo bank tashkilotlari orqali amalga oshiriladi<sup>5</sup>.

Bugungi kunda Xitoy iqtisodiyotining 30 foizdan yuqoriroq o'sishi innovatsion loyihalarni amalga oshirishga ilmiy-texnik inqilobni joriy etishga imkon bermoqda. Mamlakat eksportida yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi tinimsiz o'sib bormoqda va ular ulushi ham 30 foizga yetgan. Tahlillarning ko'rsatishicha, bugungi kunda jahon bozorida ilm talab mahsulotlarning hajmi yuqori sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Savdo aylanmasi (eksport va import)da bir muncha yuqori ulush elektronika sanoatiga va hisoblash texnikalarini ishlab chiqarishga tegishli bo'lib ularning hajmi hozirgi kunda taxminan 30 va 35 foizga teng. Ilm talab mahsulotlar bozorida yetakchi o'rinlarni - Katta yettilik mamlakatlar egallagan bo'lib, ular butun dunyo bo'yicha ilm talab mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishning deyarli 2/3 qismini nazorat etishmoqda, shundan AQShning hissasi-20 foizdan ko'proqni, Yaponiyaniki 12-14 foiz atrofida va Germaniyaniki-10 foizdan ko'proqni tashkil etadi.

Eksportni sug'urtalash eksport kreditlariga davlat kafolatlarini taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Kafolatlar eksport kreditlarini taqdim qiluvchi banklarga beriladi. Sug'urta nafaqat an'anaviy tijoriy, balki siyosiy xavf-xatar (risk)larni ham qoplaydi. Hozirgi davrda u keng turdagi mahsulotlar va mamlakatlarga tarqalgan. Sug'urta muddatlari anchayin xilma-xil. Sug'urtalash Eksport-import banki (AQSh), Eksport kreditlarini kafolatlash departamenti (Buyuk Britaniya) kabi maxsus tashkilotlar yoki ushbu maqsadlar uchun davlat mablag'laridan foydalanish huquqiga ega bo'lgan xususiy sug'urta kompaniyalari (Olmoniya, Belgiya) orqali amalga oshiriladi<sup>6</sup>. Masalan, Braziliyada eksportni moliyalash, sug'urtalash va kafolatlash qishloq xo'jalik mahsulotlari, mashina asbob-ukunalari, uzoq vaqt foydalaniladigan tovarlar va xizmatlar singari ko'plab mahsulotlar uchun braziliyalik eksportchilarga kredit

<sup>5</sup> [www.budgetrf.nsu.ru](http://www.budgetrf.nsu.ru)

<sup>6</sup> <http://www.uzbearingpoint.com/files/1/a33.pdf>

ajratadigan maxsus Dastur (PROEX) vositasida amalga oshiriladi<sup>7</sup>. Malayziyada belgilangan foiz qiymati bilan qisqa muddatli moliyalash tijorat banklari orqali Malayziya Eksport-Import Banki (EIB) tomonidan moliyalashtiriladi va tartibga solib turiladi<sup>8</sup>.

Shunday qilib, qisqa muddatli moliyalashtirish sanoat ishlab chiqaruvchilari, savdo kompaniyalari va bilvosita eksportchilar (bevosita ishlab chiqaruvchilarning yetkazib beruvchilari) ga beriladi. Janubiy Koreyada EIB to'lovni amalga oshirmaslik xatari holatidagina ekport kreditlari va ularni sug'urtalashni taqdim etadi<sup>9</sup>.

Ta'kidlash joizki, davlat siyosatini shakllantirishga bo'lgan yondashuvlar har bir mamlakatda uning o'ziga xos milliy xususiyatlariga bog'liq ravishda farqlanadi: Finlyandiyada – iqtisodiyotni diversifikatsiyalash bilan; Fransiyada – anchayin kichik texnologik firmalarni yaratish bilan; AQShda – milliy iqtisodiyotning tarkibiy qayta tuzilishini qo'llab-quvvatlash bilan farqlanadi<sup>10</sup>.

Soliq va boj imtiyozlari eksportchilarni to'g'ri va aylanma soliqlarni to'lashdan ozod etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, xorijiy filiallar ochayotgan firmalarning soliq to'lovini kamaytirish, xorijda filial ochish uchun olib borilayotgan tadqiqotlarga sarflanayotgan xarajatlarni soliq to'lovidan istisno etish, eksportga yo'naltiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatiladigan materiallar va butlovchi qismlar tayyorlashda soliqdan ozod etish, eksportni rivojlantirish uchun soliqdan ozod etilgan pul jamg'armalarini tuzish, bojxona to'lovlarini kamaytirish va qaytarish ham mumkin<sup>11</sup>.

Masalan, Janubiy Koreyada eksport ishlab chiqarishda muntazam ishlatiladigan chet eldan olib kelinadigan xomashyolar bojxona to'lovlaridan ozod etilgan<sup>12</sup>.

Malayziyada mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalar, xomashyo va eksport uchun sanoat ishlab chiqarishning butlovchi qismlarini import qilish bojxona va soliq to'lovlaridan ozod qilingan. Agar eksport ishlab chiqarishda foydalanish uchun import qilingan mahsulotlar 12 oy ichida eksport qilinsa, 90 % bojxona to'lovlari va aylanma mablag'lardan to'langan soliq to'laligacha ishlab chiqaruvchiga qaytariladi<sup>13</sup>.

Singapurda xalqaro savdoga jalb etilgan kompaniyalarga hukumat tomonidan soliq imtiyozlari taqdim etiladi. AQShda soliq chegirmalariga erishish uchun eksportchilar chet mamlakatda o'z mahsulotlarni sotish bo'yicha xorijiy filial ochishlari zarur. Agar Amerika firmasi mahsulotlarini xorijiy filial vositasida eksport qilayotgan

<sup>7</sup> WTO Secretariat, "Trade Policy Review: Brazil", 2000, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)

<sup>8</sup> WTO Secretariat, "Trade Policy Review: Malaysia", 2001, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)

<sup>9</sup> WTO Secretariat, "Trade Policy Review: South Korea", 2000, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)

<sup>10</sup> Инновационная политика: учебник / Л.П. Гончаренко, Ю.А. Арутюнов. –М.: КНОРУС, 2009. -352 С.

<sup>11</sup> <http://www.uzbearingpoint.com/files/1/a33.pdf>

<sup>12</sup> WTO Secretariat, "Trade Policy Review: South Korea", 2001, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)

<sup>13</sup> WTO Secretariat, "Trade Policy Review: Malaysia", 2001, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)

bo'lsa, AQSh qonunchiligiga ko'ra foydaning bir qismi soliqlardan ozod etiladi. Shu tarzda amerikalik eksportchilar har yili 1,5 milliard AQSh dollarni<sup>14</sup> soliq chegirmalari tizimidagi qulayliklardan foydalangan holda tejab qolishadi. Valyuta qiymati mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini ta'minlash nuqtai nazaridan o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. O'z eksport salohiyatini jadal rivojlantirayotgan ko'pgina mamlakatlar (Chili, Kolumbiya, Meksika, Tayvan, Xitoy, Janubiy Koreya, Indoneziya)<sup>15</sup> eksportni rag'batlantirish uchun o'z milliy valyutalari qiymatini sun'iy tarzda past darajada ushlab turish yo'lidan bordilar. Ular ayni maqsadda milliy valyutani progressiv qadrsizlantirish dasturidan foydalandilar, buning uchun ba'zida «sudraluvchi bog'lanma» uslubidan (valyuta qiymati uning muayyan darajada doimiy o'zgarishi belgilab olinadigan sistema) foydalanadilar, yoki o'z valyutalarining keskin devalvatsiyasini o'tkazadilar. Bunda eksportning o'sishi zarur darajadagi qiymatsizlantirishning va shu bilan birga bunday siyosat samaradorligining asosiy o'lchovi hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, eksportni rag'batlantirishning asosiy vositalari quyidagilar: qulay makroiqtisodiy muhit va ishlab chiqaruvchilar uchun eksportga rag'bat yaratish. Bunda eksportni rag'batlantirishning asosiy vositalari sifatida quyidagilar namoyon bo'lishi mumkin: soliq va boj imtiyozlari; grantlar va imtiyozli kreditlar berish; valyuta kursini belgilash va nazorat qilish; eksportni jadallashtirish uchun mamlakatda va xorijda maxsus davlat jamg'armalari, tashkilotlar va markazlarni tuzish.

Yuqorida sanalgan eksportni rag'batlantirish chora-tadbirlarining hammasi u yoki bu darajada turli mamlakatlarning zamonaviy tajribasida qo'llaniladi. Biroq ushbu choralardan alohida birining muayyan bir vaqt davomida yoki turli taraqqiyot bosqichidagi ma'lum bir davlat tajribasidagi ahamiyati aslo teng qiymatga ega emas. Bu shu bilan izohlanadiki, bugungi kunga kelib, eksportni rag'batlantirishning shu paytgacha qo'llangan vositalarining ahamiyati xalqaro savdo sharoitidagi izchil o'zgarishlar va globalizatsiya natijalari oqibatida sezilarli darajada kamaygan. Misol uchun, bugunga kelib eksport kreditlarini sug'urtalash keng tarqalgan, vaholanki, bir necha o'n yillar muqaddam eksportni subsidiyalashning ahamiyati kattaroq edi<sup>16</sup>.

Ushbu jarayonlarga e'tiborni qaratgan holda qayd qilish lozimki, mamlakatimizda ham milliy mahsulotlar eksportini rivojlantirish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatning umumiy eksport salohiyati yanada kengayib, aholi turmush darajasi hududlar bo'ylab imkon qadar teng yuksalishi uchun asos yaratilmoqda. Eksportni rag'batlantirishning iqtisodiy zaruriyatini e'tiborga olib,

<sup>14</sup> [www.fkpi.ru/index.php?page=analytics\\_06](http://www.fkpi.ru/index.php?page=analytics_06)

<sup>15</sup> [www.budgetrf.nsu.ru](http://www.budgetrf.nsu.ru)

<sup>16</sup> <http://www.uzbearingpoint.com/files/1/a33.pdf>

O‘zbekiston Respublikasi hukumati eksport bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun raqobatbardosh shart-sharoitlarni tashkil etish siyosatini faol ravishda olib bormoqda. Bu siyosat soliq imtiyozlari, bevosita va bilvosita subsidiyalarni strategik muhim va istiqbolli soha va korxonalariga yetkazib berish, texnologik rivojlanishda yordam ko‘rsatish, mehnat va moliya resurslarini mustahkamlash jarayonlarida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu maqsadli siyosat natijasida yangi eksportyor sohalarning paydo bo‘lishi, ishlab chiqaruvchi eksportchilarning halqaro raqobatbardosh parametrlari kuchayishi, savdo geografiyasi va tovarlar tarkibining optimallashtirish jarayonlari kuzatilmoqda. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston ishlab chiqaruvchilari nafaqat import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga, balki jahon bozoridagi kuchli raqobat sharoitida tovarlarni eksport qilish mumkinligini isbotlashdi. Bunda zamonaviy chet el texnologiyalarini olib kelish, ishga tushirish yuqori samaraga olib keldi.

Davlatimizning uzoq muddatli hamkorlikka qaratilgan investitsiyalarni jalb qilish, import o‘rnini qoplash, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, mahsulotlarining tannarhini pasaytirish va yuqori ustama narxga erishish oqibatida, nafaqat yurtimizda, balki MDH mamlakatlari o‘rtasida biz avtomobilsozlik sohasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritdik, energetika sohasida mustaqillikka erishdik, kimyo sanoati va sanoatning boshqa tarmoqlariga juda katta investitsiyalar jalb qilindi.

Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, eksportning YaIMga nisbati ko‘proq tashqi savdo faoliyatining liberallik darajasiga emas, balki mamlakatning katta-kichikligi va tabiiy resurslar bilan ta‘minlanganlik darajasiga bog‘liq. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida (Hindiston, Braziliya va Xitoy kabi katta mamlakatlar bundan mustasno), jumladan tashqi savdoga nisbatan kuchli proteksiya rejimi o‘rnatilgan mamlakatlarda eksportning YaIMdagi ulushi 30% va undan ham ko‘proqdir<sup>17</sup>.

Keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan salbiy holatlar respublikamiz korxonalarini tomonidan eksport qilinadigan mahsulotlarga jahon bahosining pasayishi xavfini tug‘dirmoqda. Buning oqibatida mamlakat eksport salohiyatidan foydalanish darajasi pasayish xavfi ortib boradi. Natijada mamlakat eksporti tarkibida diversifikatsiya jarayoni sustlashib, eksport tovarlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mazkur muammolarni hal etish ko‘p jihatdan mamlakatimiz korxonalarini eksport ko‘lamini kengaytirishga o‘zining samarali ta‘sirini aks ettiruvchi loyihalardan foydalanish darajasiga bog‘liq.

---

<sup>17</sup> Н. Сиражидинов, «Проблемы повышения эффективности внешней торговли», монография, УМЭД, Ташкент, 2004.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Л.П. Гончаренко, Ю.А. Арутюнов. Инновационная политика: учебник. М.: КНОРУС, 2009. -352 С.
2. Н. Сиражиддинов, «Проблемы повышения эффективности внешней торговли», монография, УМЭД, Ташкент, 2004.
3. [www.budgetrf.nsu.ru](http://www.budgetrf.nsu.ru)
4. WTO Secretariat, «Trade Policy Review: South Korea», 2000, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)
5. <http://www.uzbearingpoint.com/files/1/a33.pdf>
6. WTO Secretariat, «Trade Policy Review: Brazil», 2000, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)
7. WTO Secretariat, «Trade Policy Review: Malaysia», 2001, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)
8. WTO Secretariat, «Trade Policy Review: South Korea», 2000, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)
9. WTO Secretariat, «Trade Policy Review: South Korea», 2001, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)
10. WTO Secretariat, «Trade Policy Review: Malaysia», 2001, in [www.wto.org/english/tratop\\_e/tpr\\_e/tp\\_rep\\_e.htm#bycountry](http://www.wto.org/english/tratop_e/tpr_e/tp_rep_e.htm#bycountry)
11. [www.fkpi.ru/index.php?page=analytics\\_06](http://www.fkpi.ru/index.php?page=analytics_06)



**ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA  
QISHLOQ XO'JALIK YERLARINI MONITORING QILISH VA ELEKTRON  
KARTALARINI TUZISH**

**Tursunov A.A. Ishmurodova S.Sh**

**“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti  
Stj.o'qituvchilari**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda qishloq xo'jalik yerlarini monitoring qilish va elektron kartalarini tuzish, qishloq xo'jaligi kartalarini yangilash bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekinlarni monitoring qilish yangi tizimini joriy etish, qishloq xo'jaligi yerlari talon-toroj qilinishi oldini olish, yer tuzish, masofadan zondlash va raqamlashtirish ishlarini yanada jadallashtirish, moddiy-texnika bazani mustahkamlash, malakali kadrlar bilan ta'minlash, xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish maqsad qilingan.

**Kalit so'zlar:** Respublikamizda qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish, 1:10000 masshtabdagi elektron raqamli kartalarini yangilash, yer tuzish, ball bonitet va konturlar .

Аннотация: В данной статье представлена информация по использованию современных технологий и мониторингу сельскохозяйственных земель и созданию электронных карт, обновлению сельскохозяйственных карт. Внедрение новой системы мониторинга сельскохозяйственных угодий и посевов, предотвращение разграбления сельскохозяйственных земель, дальнейшее ускорение землеустроительных работ, дистанционного зондирования и цифровизации, укрепление материально-технической базы, обеспечение квалифицированными кадрами Направлено на совершенствование системы снабжения и обслуживания.

Ключевые слова: Мониторинг земель сельскохозяйственного назначения в нашей республике, обновление электронных цифровых карт масштаба 1:10000, межевание, выставление оценок и контуров.

ABSTRACT: This article provides information on the use of modern technologies and the monitoring of agricultural land and creation of electronic cards, updating of agricultural cards. Introduction of a new system of monitoring agricultural land and

crops, prevention of agricultural land looting, further acceleration of land surveying, remote sensing and digitization, strengthening of the material and technical base, providing qualified personnel It is aimed to improve the provision and service system.

Keywords:Monitoring of agricultural land in our republic, updating electronic digital maps on a scale of 1:10000, land surveying, scoring and contours.

2022-yil 14-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 22-sonli qarori “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, qaroriga muvofiq

❖ qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringini O‘zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimidagi davlat yer kadastrining qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha yer turlari, maydoni, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlari asosida amalga oshirish;

❖ qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringining O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari va tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo‘jaligi bo‘limlari, shuningdek, “O‘zdaverloyiha” instituti va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi;

❖ qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringini davriy, joriy va tezkor monitoring shakllarida amalga oshirish;

❖ qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi davomida olingan ma‘lumotlardan qishloq xo‘jaligi yerlari holati va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlashda foydalanish belgilab berildi.

Shu sababdan keyingi yillarda respublikamizda qishloq xo‘jaligi kartalarini yangilash yoki yaratish ishlari yerni masofadan zondlash hamda raqamli aerofotoapparatlardan foydalanilgan holda amalga oshirilmoqda. Bu holat respublika hududi bo‘yicha ortofotoplanlarni yaratishda quyidagi noqulayliklarga olib kelgan:

❖ olingan aerosuratlar oq-qoraligi (rangsiz);

❖ hududni tasvirga tushirishda xarajatlarning yuqoriligi (samolyot, yoqilg‘i va boshqalar);

❖ kameral holda ishlarni bajarishda ko‘p vaqt sarflanishi (tasvirlar geobog‘lanmaganligi, dasturiy ta‘minotlarning eskiligi va boshqalar);

❖ qo‘l mehnatining ko‘pligi;

❖ planli va balandlik bo'yicha koordinatalarni bog'lash ishlariga ko'p vaqt va mablag'larning sarflanishi bilan baholangan.

Hozirda masofadan zondlashda uchuvchisiz uchish qurilmalari hukumatimiz topshirig'iga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi" hamda "O'zdaverloyiha" instituti tomonidan respublikamizga olib kelinib, tizim tashkilotlari tomonidan keng ko'lamdagi ishlarni bajarishda foydalanib kelinmoqda. Uchuvchisiz uchish qurilmalari parvozi havo kemalari parvozi uchun maxsus hududlarda qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Uchuvchisiz parvoz qiluvchi qurilmalar parvozi nazorati O'zbekiston Respublikasining parvozlarni xavfsizligi nazorat qilish bo'yicha Davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

"O'zdaverloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti geofazoviy ma'lumotlar infratuzilmasini takomillashtiradi.

"O'zdaverloyiha" davlat ilmiy-loyihalash institutining hududiy bo'linmalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish maqsadida o'quv-tajriba xo'jaliklarini tashkil etish hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va doimiy kuzatuv monitoringini amalga oshirish belgilab olingan.

O'zbekiston Respublikasi "Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi" 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, keyinchalik integratsiya qilgan holda muntazam ravishda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning yer turlari va maydoni to'g'risidagi ma'lumotlarni (yer egalari, yerdan foydalanuvchilari va ijarachilari kesimida) elektron ko'rinishda yer hisoboti bo'yicha Qishloq xo'jaligi vazirligiga taqdim etishlari zarur.

Uchuvchisiz parvoz qiluvchi qurilmadan quyidagi yo'nalishlarda foydalaniladi:

- ❖ kartografiya (kartalarni yirik masshtablarda tuzish va yangilash);
- ❖ monitoring (qishloq xo'jaligi ekin yer maydonlarini yo'qlamadan o'tkazishda);
- ❖ yaqin tasvir (xo'jalikda ichik yer tuzish ishlarini amalga oshirishda);
- ❖ qishloq xo'jaligida uchuvchisiz parvoz qiluvchi qurilmaning bajaradigan vazifalari:

- ❖ yerlarni joyida ko'rib chiqish va yo'qlamadan o'tkazish;
- ❖ meliorativ holati og'ir ahvoldagi yerlarni aniqlash;
- ❖ yerdan foydalanishda agrotexnika tadbirlarini qonun talab darajasida olib borish;

Uchuvchisiz parvoz qiluvchi qurilmalar nafaqat aerofotosyomka qilishda balki o'simliklarni kimyoviy himoyalashda ham bir qancha avfzalliklarga ega.

Agrodron afzalliklari:

- ❖ dala tuproq qatlamining zichligi oshmaydi, ekin payhon qilinmaydi;

- ❖ ekinning hosil, shox va elementlariga shikast yetkazilmaydi;
- ❖ ekin kasalliklari sun'iy tarqalishining oldi olinadi
- ❖ mevali daraxtlarga ishlov berish uchun qulaylik yaratiladi;
- ❖ samolyot va shamol yordamida purkagichlar yerdan borish imkoni mavjud bo'lmagan hududlarga ishlov berish uchun qulay sanaladi.

Uchuvchisiz uchish apparati qishloq xo'jaligida qo'llanishi natijasida dalaning elektron kartasini avtomatik tarzda aerosuratga olish orqali yaratish hamda ma'lumotlarga avtomatik tarzda qayta ishlov berish, qishloq xo'jalik ekinlarini inventarizatsiya qilish, bajarilgan ishlar hajmini baholash va ularning bajarilishini nazorat qilish, ekinlar holatini operativ monitoring qilish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini nazorat qilish, qishloq xo'jaligi ekinlarining unib chiqishini nazorat qilish, yerni haydash sifatini tekshirish, shuningdek, ma'lumotlarni tahlil uchun yuborish imkoniyatini beradi. Qishloq xo'jaligida uchuvchisiz uchish apparati yordamida o'tkazilgan monitoring ma'lumotlari Elektron raqamli kartalarni yangilash (yaratish)da innovatsion texnologiyalardan yana biri Koreya kompaniyasidan xarid qilingan sun'iy yo'ldoshlardan olingan kosmik suratlardan ortofotoplanlar yaratishda, ortofotoplanlarni kameral va dala sharoitida korxonada mutaxassislar tomonidan deshifrovkalashda keng ko'lamda foydalanish mumkin.

### **XULOSA**

1. So'nggi yillarda dunyo miqyosidagi ilm-fan taraqqiyoti barcha tarmoqlarda bo'lgani kabi iqtisodiyot tarmoqlarining turli sohalarida foydalanib kelinayotgan qishloq xo'jalik va boshqa ko'plab yo'nalishlarning kartalarini yaratish texnologiyalariga ham bir qator yangiliklar olib kirish mumkin.

2. Kosmik va aerosuratlardan keng ko'lamda foydalanilgan holda aniqlik darajasi yuqori bo'lgan elektron raqamli kartalarni tenglashtirish, transformatsiya qilish va yaratish texnologiyasi yo'lga qo'yish mumkin

3. Elektron raqamli kartalardan yer tanlash, yer ajratish, qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish va ularning monitoringini olib borish, yer tuzish, yer kadastri ishlarini amalga oshirish, yerlarning tuproq kartasini yaratish, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar, shuningdek, klaster hamda fermer xo'jaliklari tomonidan foydalanilayotgan yer maydonlarining joylashgan o'rni va chegaralarini aniq ko'rsatib berish, ularga belgilangan tartibda kadastr raqamlarini berish, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarning joylashuvini ko'rsatish va boshqa ko'plab yo'nalishlarda foydalanish uchun joriy etish mumkin.

4. 2022-yil 14-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 22-sonli qarori "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni

muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, qarorga asosan yerlarni doimiy nazorat qilish imkoni yaratildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.01.2022-yil 22-sonli qarori “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.04.2023-yil 169-sonli qarori “Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproqning unumdor qatlamini saqlash va undan oqilona foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
4. S.Avezbayev, S.N.Volkov Yer tuzishni loyihalash “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashryoti” Toshkent-2006.
5. R.A.Turayev, R.N.Sharopov Lalmi yerlar monitoringi “Lesson Press” Toshkent-2023
6. R.A.Turayev Yer monitoring “Lesson Press” Toshkent-2022
7. Lex.uz, Ziyonet.uz

## ЯЛЛИҒЛАНИШГА ҚАРШИ 2 ТУРДАГИ ДОРИ ВОСИТАЛАРИ ПОЛИПРАГМАЗИЯСИДА БУЙРАКЛАРНИНГ МОРФОМЕТРИК ПАРАМЕТРЛАРИНИНГ ЎРГАНИШ

**Мустафоев Зафаржон Мустафо ўғли**

Самарқанд Давлат тиббиёт Университети Анатомия кафедраси PhD, в.в.б доценти

**Сулейманов Ремзи Ибрагимович**

Самарқанд Давлат тиббиёт Университети Анатомия кафедраси ассистенти

**Калит сўзлар:** нефрон, проксимал эгри-бугри каналчалар, дистал эгри-бугри каналчалар, полипрагмазия.

### Аннотация

Каламушларда ўтказилган экспериментда каламушлар буйраги нефрони кисмларининг морфометрик ўзгаришларининг хусусиятлари ва яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазиясидаги ўзгаришлари солиштирилди. Яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазиясида буйрак нефрон кисмлари улчами кичраяди.

**Тадқиқотнинг мақсади** яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазияси шароитида буйракнинг морфометрик параметрлари ўзгаришларини ўрганишдан иборат.

Тажриба 250 та оқ зотсиз каламушларда меъёрий вивариум шароитида ўтказилди. Унда 5 ойликгача бўлган каламушлар жалб қилинган. Тажрибанинг бошида барча жинсий этук каламушлар бир ҳафта давомида карантинда бўлиб, соматик ёки юқумли касалликларни истисно қилингандан сўнг, кунига 3 маҳал овқатланиш билан одатдаги вивариум режимига ўтказилган.

Ҳайвонларнинг тажриба гуруҳларида полипрагмазия таъсирини ўрганиш учун қуйидаги яллиғланишга қарши дорилар қўлланилган: Аспирин (ЯҚД - салицил кислотаси ҳосилалари), Парацетамол (ЯҚД - анилидлар ҳосилалари), Ибупрофен (ЯҚД - пропион кислотаси ҳосилалари), Дексаметазон (синтетик гидрокортикостероид), Плаквинил сульфат (яллиғланишга қарши таъсирга эга безгакка қарши восита). Тажриба ҳайвонлари 5 гуруҳга бўлинди (n = 250): I - назорат гуруҳидаги (n = 50); II - гуруҳ - 2 турдаги яллиғланишга қарши дори воситаси, парацетамол 15 мг / кг, аспирин 5 мг / кг (n = 50) 2 турдаги яллиғланишга қарши дори-дармонларни қабул қилувчи каламушлар, парацетамол 15 мг / кг, аспирин 5 мг / кг. Ушбу дори дозалари эмпирик тарзда ҳисоблаб чиқилган ва 10 кун давомида ҳар куни интрагастрал эритма сифатида киритилган.


Назорат гуруҳидаги каламушларга 141 кундан бошлаб 150 кунгача 10 кун давомида ошқозон-ичак тракти орқали металл зонд билан 0,5 мл ҳажмдаги дистилланган сув киритилиб турилган.

Назорат гуруҳини 5 ойлик каламушларининг буйраклари зичлиги юқори бўлиб, ловиясимон шаклга эга орган. Буйраklar ташқи томондан зич коллаген тўқимадан ташкил топган фиброз капсула билан қопланган. Фиброз капсула буйрақдан осонгина ажралади.

Тадқиқот давомида, назорат гуруҳ 5 ойлик каламушлари буйраklarининг органометрик параметрларини ўрганишда, буйраklarнинг абсолют оғирлиги 1569,11 мг дан 1789,08 мг гача, ўртача  $1688,05 \pm 15,63$  мг, ўнг буйрақ узунлиги 16,23 мм дан 17,54 мм гача, ўртача  $16,84 \pm 0,31$  мм, кенглиги 8,31 мм дан 9,65 мм гача, ўртача  $8,88 \pm 0,09$  мм ва қалинлиги 7,34 мм дан 8,65 мм гача, ўртача -  $7,95 \pm 0,32$  ммни ташкил қилди.

Шу билан бирга, кузатув даврида ўнг буйрақ ҳажми  $1336,83 \text{ мм}^3$  дан  $1904,4 \text{ мм}^3$  гача, ўртача -  $1576,51 \pm 10,09 \text{ мм}^3$  ни ташкил қилади.

ЯҚДВ полипрагмазиясида каламушлар гуруҳи буйраklarини микроскопик текширишда томирлар коптокчаси капиллярларида қоннинг нотўғри тўлақонлилиги аломатлари борлиги аниқланган. Шу билан бирга, ушбу гуруҳ буйрақ таначаларининг ўлчамлари тажриба ҳайвонларнинг 1-гуруҳига нисбатан капсула бўшлиғи ва қон томир коптокчаси кичрайганлиги сабабли ҳажми кичрайган, бу унинг фильтрация жараёнларининг пасайганлигини кўрсатган (1-расм).



**1-расм.** Тажриба гуруҳлари (а-соғлом, б-икки хил турдаги яллиғланишга қарши дори воситаси қабул қилган) каламушлари буйрагининг пўстлоқ моддаси. 1-коптокча, 2-капсуланинг бўшлиғи, 3-проксимал эгри-бугри каналчалар, 4-дистал эгри-бугри каналчалар. Гематоксилин-эозин билан бўялган. Ок 10 х Ок 10

Ўтказилган гистоморфометрик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, кузатув даврида буйрак таначасининг умумий майдони  $2886,31 \text{ мкм}^2$  дан  $2977,58 \text{ мкм}^2$  гача, ўртача  $2937,62 \pm 36,79 \text{ мкм}^2$ , қон томирлари коптокчасининг майдони  $2553,78 \text{ мкм}^2$  дан  $2610,08 \text{ мкм}^2$  гача, ўртача  $2581,14 \pm 25,64 \text{ мкм}^2$  ва капсула бўшлиғи майдони  $462,27 \text{ мкм}^2$  дан  $485,23 \text{ мкм}^2$  гача, ўртача  $474,34 \pm 20,11 \text{ мкм}^2$  ни ташкил қилган.

Тажриба каламушлари буйрагининг проксимал эгри-бугри каналчалари гистоморфометрик текширувида кузатув давридан бошлаб проксимал эгри-бугри каналчалар диаметри  $36,16 \text{ мкм}$  дан  $37,78 \text{ мкм}$  гача, ўртача  $35,98 \pm 0,21 \text{ мкм}$ , найчалар бўшлиғи диаметри  $14,32 \text{ мкм}$  дан  $17,09 \text{ мкм}$ , ўртача  $15,24 \pm 0,21 \text{ мкм}$  ни ташкил қилган. Бу эса ушбу ёшдаги каламушларда реабсорбция жараёнларининг юқори фаоллигидан далолат берган.


Назорат гуруҳидаги 5 ойлик оқ каламушлар буйрагининг дистал эгри-бугри каналчалари морфометрик ўрганиш натижасида қуйидагилар аниқланди, дистал эгри-бугри каналчалар диаметри  $28,21 \text{ мкм}$  дан  $31,12 \text{ мкм}$  гача, ўртача  $29,96 \pm 0,05 \text{ мкм}$ , каналчалар бўшлиғининг диаметри  $15,05 \text{ мкм}$  дан  $16,23 \text{ мкм}$  гача, ўртача  $15,05 \pm 0,12 \text{ мкм}$  гачани ташкил қилган.

### **2-гуруҳ оқ каламушлар буйраги ва нефрон тузилмаларининг қиёсий морфологик ва морфометрик хусусиятлари.**

Бунда буйракларнинг мутлоқ оғирлиги  $1364,91 \text{ мг}$  дан  $1556,38 \text{ мг}$  гача, ўртача  $1468,43 \pm 22,12 \text{ мг}$  гача, тажрибанин 1-гуруҳидан  $12,61 \%$  га кам, ўнг буйракнинг узунлиги  $14,98 \text{ мм}$  дан  $15,92 \text{ мм}$  гача, ўртача  $15,48 \pm 0,76 \text{ мм}$ , экспериментнинг 1-гуруҳидан  $4,75\%$  га кам, кенглиги ўртача  $7,31 \text{ мм}$  дан  $8,28 \text{ мм}$  гача, ўртача  $7,79 \pm 0,17 \text{ мм}$ , экспериментнинг 1-гуруҳига нисбатан  $6,45\%$  га кам, қалинлиги  $6,65 \text{ мм}$  дан  $7,55 \text{ мм}$  гача, ўртача  $7,12 \pm 0,64 \text{ мм}$ , экспериментнинг 1-гуруҳига нисбатан  $4,04\%$  га камроқни ташкил қилган (2-расм).


Шу билан бирга, ўнг буйракнинг ҳажми  $1014,87 \text{ мм}^3$  дан  $1341,5 \text{ мм}^3$  гача, ўртача  $1175,25 \pm 20,16 \text{ мм}^3$  ни ташкил этган, бу эса тажрибанин 1-гуруҳидан  $8,36\%$  га камдир.





**2-расм.** Тажрибанинг барча гуруҳлари 5 ойлик каламушлари буйраги ҳажми (мкм<sup>3</sup>) солиштирма таҳлили.

Интракортикал нефронларнинг буйрак таначаларини гистоморфометрик ўрганиш шуни кўрсатдики, экспериментал гуруҳнинг 5 ойлик каламушлари буйрак таначасининг умумий майдони ўртача ҳисобда 684,97 мкм<sup>2</sup> дан 768,67 мкм<sup>2</sup> гача, ўртача-738,27 ± 6,65 мм<sup>2</sup>, экспериментнинг 1-гуруҳига нисбатан 7,02% га кам, томирлар коптокчасининг майдони 400,76 мкм<sup>2</sup> дан 454,34 мкм<sup>2</sup> гача, ўртача -427,08 ± 4,53 мкм<sup>2</sup>, тажрибанинг 1-гуруҳига нисбатан 4,68% кам ва капсула бўшлиғи майдони 102,81 мм<sup>2</sup> дан 222,83 мм<sup>2</sup> гача, ўртача -213,26 ± 2,09 мм<sup>2</sup>, тажрибанинг 1-гуруҳидан 11,73% га камлиги кўрилган (3-расм).



**3-расм.** Тажрибанинг барча гуруҳлари 5 ойлик каламушлари буйрак таначасининг умумий майдони (мкм<sup>2</sup>) солиштирма таҳлили.

Гистоморфометрик тадқиқотда, шунингдек тажрибанинг 2- гуруҳи 5 ойлик каламушларида таъсири тугагандан сўнг, проксимал эгри-бугри каналчаларининг диаметри 3,26 мкмдан 3,96 мкмгача ўзгаргани аниқланди, ўртача 3,18 ± 0,47 мкм, бу экспериментнинг 1-гуруҳига қараганда 7,28% га камроқ, проксимал эгри-бугри каналча бўшлиғи диаметри 2,31 мкмдан 2,87 мкмгача, ўртача - 2,64 ± 0,08 мкм, тажрибанинг 1-гуруҳи билан таққослаганда 14,47% га камни ташкил этган.

Ўтказилган гистоморфометрик тадқиқотлар шуни кўрсатдики, экспериментал гуруҳнинг 5 ойлик каламушларида дистал эгри-бугри каналча диаметри 2,24 мкмдан 2,67 мкмгача, ўртача  $2,46 \pm 0,48$  мкмни ташкил қилади, тажрибанинг 1-гуруҳидан 8,69% га кичик, дистал эгри-бугри каналча бўшлиғи диаметри 1,12 мкмдан 1,94 мкмгача, ўртача  $1,58 \pm 0,21$  мкм, экспериментнинг 1-гуруҳига нисбатан 17,29% га кам эканлиги аниқланган.

Яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазияси буйрак ички коллаген толаси тузилмаларига ҳам салбий таъсир кўрсатиб, коллаген толалар зичлашиши ҳисобига тутамлар ўлчамининг ингичкалашишига, оралик тўқималарнинг сийраклашуви ва коллаген толалар қовузлоқларининг кичрайишига олиб келади.

Полипрагмазия натижасида буйрак қон-томирлари диаметрларида сезиларли ўзгаришлар кузатилмаган бўлсада, томирлар тўлақонлиги ва нефрон томирли коптокчаси майдонининг катталаниши кузатилди.

#### АДАБИЙОТЛАР:

1. Мустафоев, З. М., Бахронов, Ж. Ж., Хидиров, З. Э. (2022). Яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазиясида буйрак нефронларида рўй берадиган морфометрик ўзгаришлар. Биология ва тиббиёт муаммолари.- Самарқанд–2022, 3, 177-181.

2. Oglu, M. Z. M., & Zokirovna, O. A. (2023). МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ ПЕЧЕНИ БЕЛЫХ БЕСПОРОДНЫХ КРЫС, ПЕРЕНЕСШИХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНУЮ ЧЕРЕПНО-МОЗГОВУЮ ТРАВМУ ПОСЛЕ МЕДИКАМЕНТОЗНОЙ КОРРЕКЦИИ. JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE, 8(1).

3. Мустафоев, З. М., Бахронов, Ж. Ж., & Хидиров, З. Э. (2022). Яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазиясида буйрак нефронларида рўй берадиган морфометрик ўзгаришлар. Биология ва тиббиёт муаммолари.- Самарқанд–2022, 3, 177-181.

4. ТЕШАЕВ, Ш., & МУСТАФОЕВ, З. (2022). ПОЧЕК ПРИ ПОЛИПРАГМАЗИИ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫМИ ПРЕПАРАТАМИ. ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ, 7(1).

5. Мустафоев, З. М. Ў. (2021). Сравнительная характеристика морфологических параметров почек при полипрагмазии противовоспалительными препаратами. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 622-630.

6. Мустафоев, З. М., & Бахронов, Ж. Ж. (2022). Морфометрическая характеристика частей нефрона почек крыс в норме и при полипрагмазии противовоспалительными препаратами. Вестник ТМА–2022, 2, 57-59.

7. Norbekovich, T. B., Oblakulovich, K. S. O. S., Sadinovich, U. S., Mustafievich, M. Z., & Akhmadjonovich, S. S. (2021). Polypragmasia as a risk factor causing complications in viral infection. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 2(2), 79-82.

8. Mustafiev, Z. M. (2021). Morphological Parameters Of Kidney In Polypragmasia With Anti-Inflammatory Drugs. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research, 3(10), 33-37.

9. Mustafiev, Z., & Qo'ldoshev, F. (2023). TIBBIYOTDA IT TEXNOLOGIYALARIDA FOYDALANIB JIGAR SERROZINI DAVOLASH. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5 Part 2), 8-10.

10. Mustafiev, Z. (2023). COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF THE MORPHOMETRIC PARAMETERS OF THE KIDNEY IN POLYPHARMACY WITH ANTI-INFLAMMATORY DRUGS. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(4), 75-80.

11. Mustafiev, Z. M., Teshiev, S. J., & Bakhrinov, J. J. (2022). Features Of Kidneys Exposed to Various Factors. Eurasian Scientific Herald, 5, 144-154.

12. Mustafiev, Z. (2023). COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF THE MORPHOMETRIC PARAMETERS OF THE KIDNEY IN POLYPHARMACY WITH ANTI-INFLAMMATORY DRUGS. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(4), 75-80.

13. Zafarjon, M. (2022). ANALYSIS OF POLYPRAGMASIA PREVALENCE AND MORPHOLOGICAL CHANGES OF KIDNEYS. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR, 105-108.

14. Мустафоев, З. М., & БАХРОНОВ, Ж. НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ. НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ Учредители: Бухарский государственный медицинский институт, ООО" Новый день в медицине", (1), 286-288.

15. Хидиров, Зиядулла Эркинович, Абдураимов Зафарджон. «Взгляды на «Постхолецистэктомический синдром». Центральное-Азиатский журнал медицинских и естественных наук 4.3 (2023): 200-206.

16.3 Абдураимов, З Хидиров - Евразийский журнал медицинских и ..., 2023 - in-academy.uz

В данной статье приведены сведения о восстановлении морфологических структур в стенке

тонкой кишки, атрофических процессах в мышечном слое кишечника, патологии тонкой кишки.

17. Абдураимович, А. З., и Эркинович, Н. З. (2023). МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТОНКОЙ КИШКИ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ХОЛЕЦИСТЭКТОМИИ И АНТИГИПОКСАНТНОЙ ТЕРАПИИ ПРИ ОСТРОЙ ТОНКОКИШЕЧНОЙ НЕПРОХОДИМОСТИ. Журнал универсальных научных исследований, 1(10), 222-229.

18. Абдураимов, Зафар и Зиядулла Хидировы. «ВОССТАНОВЛЕНИЕ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ СТРУКТУР В СТЕНКЕ ТОНКОЙ КИШКИ». Евразийский журнал медицинских и естественных наук 3.10 (2023): 103-107.

19. Абдураимович, А. З., и Эркинович, Н. З. (2023). МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТОНКОЙ КИШКИ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ХОЛЕЦИСТЭКТОМИИ И АНТИГИПОКСАНТНОЙ ТЕРАПИИ ПРИ ОСТРОЙ ТОНКОКИШЕЧНОЙ НЕПРОХОДИМОСТИ. Журнал универсальных научных исследований, 1(10), 222-229.

**OQ ZOTSIZ KALAMUSHLAR JIGARINING MORFOMETRIK  
KO'RSATGICHLARINI POLIPROGMAZIYADA YALLIG'LANISHGA  
QARSHI 3 HIL VOSITALAR TA'SIRI HOLATIDA ЎРГАНИШ**

**Усанов Санжар Садинович**

Самарқанд Давлат тиббиёт Университети Анатомия кафедраси PhD, в.в.б доценти

**Хидиров Немат Чоршанбиевич**

Самарқанд Давлат тиббиёт Университети Анатомия кафедраси ассистенти

**Аннотация.** Беморлар организмида даволаш самарадорлигини ошириш, беморга ўзида ривожланган барча касалликлардан қутулишга ёрдам бериш истаги муқаррар равишда кўплаб дори – дармонлар (дорилар) тайинлашга – бу эса, ўз навбатида беморда полипрагмазияга олиб келади.

Полипрагмазия соғлиқни сақлаш тизимининг жиддий муаммосидир, чунки у клиник жиҳатдан фармакотерапия самарадорлигининг пасайиши ва исталмаган салбий реакцияларнинг ривожланиши, шунингдек, соғлиқни сақлаш харажатларининг сезиларли ўсиши билан намоён бўлади.

"Полипрагмазия" атамаси кўпинча тиббий адабиётларда қўлланилади, аммо умумий қабул қилинган таъриф мавжуд эмас.

Шу мақсадда оқ зотсиз каламушлар жигарининг морфометрик кўрсаткичларини нормал ҳолатда ва полипрагмазияда яллиғланишга қарши дори воситалар таъсири ҳолатида солиштириш параметрлари ўрганиб чиқилди. Ишдан мақсад жигар тўқимасидаги морфологик ва морфометрик параметрлар бўйича маълумотларни тўлдириш ҳисобланди.

**Калит сўзлар:** полипрагмазия, морфометрия, морфология, яллиғланиш.

**Долзарблиги.**

Касалликларни даволашга қодир бўлган кўплаб дори-дармонларни яратиш ва амалиётга жорий этиш ишларининг шиддатли ўсиши кузатилмоқда, бу бир томондан беморнинг аҳволини яхшилаши, бошқа томондан саломатликка жиддий зарар етказиши сўнгги вақтларда ўз исботини топмоқда.

Рус адабий манбаларида полипрагмазия кўплаб дори-дармонларни, шу жумладан уларнинг асосиз ишлатилишини бир вақтнинг ўзида қўллаш деб таърифланади. Чет эл адабиётларида "полифармация" атамаси ишлатилади (polypharmacy, юнонча poly-кўп ва pharmacy - дори) Тиббий луғатларда полипрагмазия "бир рецептда бир нечта дорини аралаштириб ёзиш", "бир ёки бир нечта касалликларни даволаш учун бир нечта дорини ишлатиш"; бу ҳодиса

кўпинча кекса беморларда кузатилади " ва илмий нашрларда 20 дан ортик таърифлар келтирилади.

#### **Мақсад ва вазифалар.**

Дориларнинг ножўя таъсири, буйрак ва кардиоваскуляр патологиялар, бутун дунёда актуал муаммо бўлиб ҳисобланади.

Ушбу патологияларнинг ривожланишида етакчи ўринни ностероид яллиғланишга қарши дорилар (НЯҚД) эгаллайди, улар энг кўп ишлатиладиган дори воситаларидан биридир.

Жигарнинг морфофункционал ҳолатини таҳлил қилишнинг гистологик усуллари турли этиологияли жигар касалликларини ташхислаш ва дифференциал ташхислашда кенг қўлланилади. Бироқ, уларнинг натижалари ҳар доим ҳам бутун орган структурасининг бузилишини акс эттирмайди. Шунинг учун жигар тўқимасида ўзгаришларни ностероид яллиғланишга қарши дори воситаларидан полипрагамазия ҳолатидаги маълумотларини ўрганиш имкони пайдо бўлиши нуқтаи назаридан оқ зотсиз каламушлар жигари макроскопик ва микроскопик ўрганиш мақсад қилиб олинди ва 40 та оқ зотсиз каламуш жигари макроскопик ва микроскопик ўрганилди.

#### **Материал ва усуллар.**

Текшириш давомида жигар тўқималарини макроскопик ва микроскопик ўрганишларига асосланиб, жами 40 та жигар тўқимаси патогистологик ўрганиб чиқилди. Умумий морфология учун ҳар бир жигардан 2 та бўлак, яъни катта бўлаги ва ўрта қисмидан 1,5x1,5 см бўлаklar кесиб олиниб 10% ли нейтралланган формалинда қотирилди. Оқар сувда 2-4 соат ювилгандан сўнг концентрацияси ошиб борган спиртларда ва ксилолда сувсизлантирилди, кейин парафин қуйилиб, блоklar тайёрланди. Парафинли блоklarдан 5-8 мкмли кесмалар тайёрланиб, гематоксилин ва эозинда бўялди. Тажриба гуруҳидаги оқ зотсиз каламушларнинг экспериментал гуруҳларида полипрагамазиянинг таъсирини ўрганиш учун қуйидаги яллиғланишга қарши воситалар ишлатилган:

Аспирин (НЯҚД-салицил кислотасининг ҳосилалари), парацетамол (НЯҚД-анилидларнинг ҳосилалари), ибупрофен (НЯҚД-пропион кислотасининг ҳосилалари).

#### **Натижа ва хулосалар.**

Тажриба учун олинган оқ зотсиз каламушлар 2 гуруҳга ажратилди (n=40): I-гуруҳ – (интакт) контрол (n=20); II-гуруҳ – 3 хил ностероид яллиғланишга қарши дори қабул қилган оқ зотсиз каламушлар, парацетамол 15 мг/кг, аспирин 5 мг/кг, ибупрофен 6 мг/кг (n=20); Ушбу дори дозалари эмпирик тарзда ҳисоблаб

чиқилган ва ҳар кун ошқозон ичига 10 кун давомида эритма шаклида қўлланилган.

Ривожланишнинг 141 кундан бошлаб 150 кунгача бўлган оқ зотсиз каламушларнинг Назорат гуруҳидаги каламушларига 10 кун мобайнида метал зонд орқали ошқозон ичига 0.5 мл дистилланган сув юбориб турилди.

Оқ зотсиз каламушлар жигаридан олинган кесмалар морфометрик текширилиб, жигар паренхимаси, гепатоцитлар ўлчами окуляр микрометр ёрдамида ўлчанди, бунда биз Хитойда ишлаб чиқарилган тринокуляр микроскопдан фойдаландик. ДН-107т/ Model НЛСД-3076 (Roman, Хитой).

Тадқиқот давомида олинган морфологик маълумотларни математик қайта ишлаш тўғридан – тўғри Microsoft Office маълумотлар пакетининг умумий матрицасидан "Excel 7.0" Pentium-ИВ шахсий компютерида "СТТГРАФ 5.1" дастурининг имкониятларидан фойдаланиб, стандарт оғиш ва вакиллик хатолари аниқланди. Вариацион параметрик статистика усуллари ўрганилаётган кўрсаткичнинг ўрта арифметиғи (М), ўртача квадратик четланиш (м), ўртача стандарт хатолик (м), нисбий қийматлар (частота,%) ни ҳисоблаш билан қўлланилди. Ўлчамларни таққослашда олинган ўлчашларнинг статистик аҳамияти Стюдентнинг мезони (т) тақсимотнинг нормаллигини (kurtosis мезони бўйича) ва умумий вариациялар тенглигини текширишда хатолик эҳтимоли (П) ни ҳисоблаш билан аниқланди (ф – Fisher мезони). Ҳисобланган мезонларнинг статистик аҳамиятини баҳолаш учун мақбул муҳимлик даражалари (П) учун кўрсаткичлар ва танқидий қийматлар жадвалларидан фойдаланилди.

Муҳимликнинг тўртта асосий даражаси статистик жиҳатдан аҳамиятли ўзгаришлар сифатида қабул қилинди: юқори -  $P < 0.001$ , ўрта  $P < 0.010$ , паст (маргинал) –  $P < 0.050$ , аҳамиятсиз (ишончсиз) -  $P > 0.050$ .

Шундай қилиб, юқорида тавсифланганидек ностероид яллиғланишга қарши дори (НЯҚД) препаратлар мажмуасини қўллаш каламушларда жигар паренхимасида турли патоморфологик ўзгаришларнинг пайдо бўлишига олиб келди (расм 1,2). Баъзи сурункали касалликларни даволаш узоқ давом этадиган жараён дир ва айна пайтда беморларда токсик жигар патологияларини ривожланиш эҳтимоли юқори эканлигини ҳисобга олган ҳолда, даволанаётган беморларда гепатопротектив воситаларни даволаш режимларига киритиш тавсия этилади.


#### Хотима.

- Ушбу маълумотлар жигардаги нормал кўрсаткичларни билган ҳолда микроскоп ёрдамида патологияларни ажратиб олиш ва ҳужайраларни бир бири билан солиштириб кўриш имконини беради.


- Жигарнинг морфофункционал ҳолатини таҳлил қилишнинг гистологик усуллари турли этиологияли жигар касалликларини ташхислаш ва дифференциал ташхислашда кенг қўлланилади.

- Бу маълумотлардан тиббиёт муассасаларининг гистология, патанатомия кафедраларида талабаларга ўқув жараёнида микроскопик ва макроскопик маълумотларни тўлдиришда фойдаланиш мумкин.

- Оқ зотсиз каламушлар жигарининг морфометрик кўрсаткичларини нормал ҳолатда ва полипрагмазияда яллиғланишга қарши дори воситалар таъсири ҳолатида солиштириш параметрларини билган ҳолда патогистологик ташхис тузишни осонлаштиради.



Расм 1. Марказий вена, тўлақонли, атрофида лимфоцитар инфильтрация(1),бўлақлараро вена, тўлақонли, атрофида лейко- лимфоцитар инфильтрациялар(2), дегенератив ўзгарган гепатоцитлар(3).





Расм 2. Марказий вена тўлақонли, атрофида лимфо-лейкоцитар инфильтрацилар(1), бўлақлараро вена тўлақонли ҳолатда(2), дегенератив ўзгарган гепатоцитлар(3).

**ADABIYOTLAR:**

1. Norbekovich, T. B., Oblakulovich, K. S. O. S., Sadinovich, U. S., Mustafoevich, M. Z., & Akhmadjonovich, S. S. (2021). Polypragmasia as a risk factor causing complications in viral infection. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(2), 79-82.

2. Sadinovich, U. S., Oblakulovich, K. S., & Murodullaeva, K. L. (2023). Morphology and morphometric characteristics of liver tissue of group four white rats. *Journal of biomedicine and practice*, 8(3).

3. Usanov, S. S., & Tashaev, S. J. (2022). COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF THE LIVER MORPHOMETRIC PARAMETERS OF WHITE UNBORED RATS IN NORMALITY AND WITH THE ACTION OF 2 DIFFERENT ANTI-INFLAMMATORY PREPARATIONS IN POLYPRAGMASIA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 68-74.

4. Усанов, С. С. (2021). ХАРАКТЕРИСТИКА МОРФОМЕТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ ПЕЧЕНИ ПРИ ПОЛИПРАГМАЗИИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 613-621.

5. Sadinovich, U. S., & Ismoilovich, I. O. (2022). OQ ZOTSIZ KALAMUSHLAR JIGARINING MORFOMETRIK KO'RSATGICHLARINI POLIPROGMAZIYADA YALLIG'LANISHGA QARSHI 4 HIL VOSITALAR TA'SIRI HOLATIDA O'RGANISH. *JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE*, 7(5).

6. Usanov, S. S. (2022). Anatomical and Histological Parameters of the Liver of White Nonbored Rats in Normal. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 2(1), 123-128.

7. Usanov, S. S., & Zh, T. S. (2022). Study of Morphological Changes in the Liver of White Unbored Rats under the Influence of 3 Different Anti-Inflammatory Preparations. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 2(1), 129-132.

8. Usanov, S. S., Tashaev, S. J., & Sanoev, B. A. (2022). MORPHOLOGICAL AND MORPHOMETRIC PARAMETERS OF THE LIVER OF WHITE NONBORED RATS IN NORMAL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 75-81.

9. Sadinovich, U. S. (2021). Characteristic Of The Morphometric Parameters Of The Liver In Polypragmasia. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 3(10), 28-32.

10. Усанов, С., Хидиров, З., & Олимова, Ж. (2023). ОҚ ЗОТСИЗ КАЛАМУШЛАР ЖИГАРИНИНГ МЕЪЁРДАГИ МОРФОЛОГИК ВА МОРФОМЕТРИК ПАРАМЕТРЛАРИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(11), 101-107.

11. Sadinovich, U. S., Erkinovich, K. Z., & Abdurafikovich, D. H. (2023). Study Of The Morphometric Indicators Of The Liver Of Album Rats Under The Effect Of 3 Different Anti-Inflammatory Medicines In Polyprogramsis. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(6), 450-455.

12. Sanjar, U. (2022). MORPHOLOGICAL FEATURES OF THE LIVER IN POLYPRAGMASIA. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR*, 127-129.

13. Мустафоев, З. М., Абдураимов, З. А., & Мавлонкулова, Д. М. (2023). МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОТДЕЛОВ НЕФРОНА КРЫС И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ ЭФФЕКТА ПОЛИПРАГМАЗИИ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ. *Research Focus*, 2(11), 119-123.

14. Khidirov, Z. E., & Zafarjon, A. (2023). Views on " Postcholecystectomy Syndrome". *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(3), 200-206.

15. Zafarjon, A., & Khidirov, Z. E. (2023). MAIN CAUSES, DIAGNOSIS, AND EFFECTIVE TREATMENT OF POSTCHOLECYSTECTOMY SYNDROME. *World Bulletin of Public Health*, 21, 223-228.

16. Abduraimov, Z., & Khidirov, Z. (2023). RESTORATION OF MORPHOLOGICAL STRUCTURES IN THE WALL OF THE SMALL INTESTINE. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(10), 103-107.

17. Abduraimovich, A. Z., & Erkinovich, H. Z. (2023). MORPHOFUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF THE SMALL INTESTINE DURING EXPERIMENTAL CHOLECYSTECTOMY AND ANTIHYPOXANT THERAPY IN ACUTE SMALL INTESTINAL OBSTRUCTION. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 222-229.

18. Мустафоев, З. М., Абдураимов, З. А., & Мавлонкулова, Д. М. (2023). МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОТДЕЛОВ НЕФРОНА КРЫС И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ ЭФФЕКТА ПОЛИПРАГМАЗИИ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ. *Research Focus*, 2(11), 119-123.

19. Абдураимов, З. А., Коржавов, Ш. О., Шамсиева, Р. А., Шавкатуллаева, Д. Г., Хасанова, М. Б., & Негматов, Х. И. (2013). ПУТИ УСТРАНЕНИЯ ПОСЛЕОПЕРАЦИОННЫХ ОСЛОЖНЕНИЙ ПРИ ПЛАСТИКЕ ВЕНТРАЛЬНЫХ ГРЫЖ У БОЛЬНЫХ С СОПУТСТВУЮЩИМ ОЖИРЕНИЕМ. *SCIENCE AND WORLD*, 50.

20. Erdanovich, R. K., Sulaimanovich, D. S., Shukurillaevich, A. D., & Abduraimovich, A. Z. (2022). Criteria For Selecting Surgical Treatment Of Patients With Vental Hernias And Obesity. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 3, 40-46.

## ОҚ ЗОТСИЗ КАЛАМУШЛАР ЖИГАРИНИНГ МЕЪЁРДАГИ МОРФОЛОГИК ВА МОРФОМЕТРИК ПАРАМЕТРЛАРИ ЎРГАНИШ

**Усанов Санжар Садинович**

Самарқанд Давлат тиббиёт Университети Анатомия кафедраси PhD, в.в.б доценти

**Хидиров Зиядулла Эркинович**

Самарқанд Давлат тиббиёт Университети Анатомия кафедраси ассистенти

**Аннотация.** Инсон учун муҳим бўлган аъзолардан бири бу – жигар беши бўлиб, унга зарарли таъсир кўрсатадиган омиллардан метаболик, токсик, микробиологик, қон айланиши бузилиши ва неопластик факторларни санаб ўтиш мумкин. Ушбу муҳим органнинг патологияси ва унинг терапияси масалаларини ўрганишда лаборатория ва қишлоқ хўжалик ҳайвонларида кенг қамровли тадқиқотлар ўтказишни тақозо этади, чунки бу лаборатория шароитида экспериментдан кўра кўпроқ инсон ва ҳайвон касалликларида препарат воситаларининг таъсирини баҳолашда қулай, хавфсиз ва камиқтисод бўладиган шароитни яратиб беради.

Шу мақсадда оқ зотсиз каламушларнинг жигар тўқимасининг нормал параметрлари ўрганиб чиқилди. Ишдан мақсад жигар тўқимасидаги морфологик ва морфометрик параметрлар бўйича маълумотларни тўлдириш ҳисобланди.

**Калит сўзлар:** морфология, морфометрия, гистология, гепатоцит.

### Долзарблиги.

Ҳозирги вақтда жигарда патологик жараёнларни ўрганишга тавсифловчи ёндашув етарли эмас. Органлар ва тўқималарда ўзгаришларни аниқ ва объектив баҳолаш учун микроскопик, хусусан, морфометрик, тадқиқот усуллари ва олинган маълумотларнинг статистик таҳлилини кенг қўллаш керак, бу нафақат ўрганилаётган ҳодисаларнинг характерини ва тавсифини баҳолашнинг аниқлигини оширибгина қолмай, балки морфологик ташхисни ҳам объективлаштиради.

### Мақсад ва вазифалар.

Жигарнинг морфофункционал ҳолатини таҳлил қилишнинг гистологик усуллари турли этиологияли жигар касалликларини ташхислаш ва дифференциал ташхислашда кенг қўлланилади. Бироқ, уларнинг натижалари ҳар доим ҳам бутун орган структурасининг бузилишини акс эттирмайди. Буларнинг барчаси биргаликда тадқиқотчиларнинг жигар патологиясини баҳолашнинг янги усуллари излашга бўлган қизиқишини оширади, бу жигар патоморфологик тузилмаларидаги ўзгаришлар мезонларини микроскопик баҳолаш билан боғлиқ бўлиши мумкин, бир нечта яллиғланишга қарши воситалар, яъни полипрагмазия ҳолатида. Шунинг учун жигар

тўқимасининг нормадаги маълумотларини ўрганиш ва патологик жараёнлар билан солиштириш имкони пайдо бўлиши нуқтаи назаридан оқ зотсиз каламушлар жигари макроскопик ва микроскопик ўрганиш мақсад қилиб олинди ва 42 та оқ зотсиз каламуш жигари макроскопик ва микроскопик ўрганилди.

#### **Материал ва усуллар.**

Текшириш давомида жигар тўқималарини макроскопик ва микроскопик ўрганишларига асосланиб, жами 42 та жигар тўқимаси патогистологик ўрганиб чиқилди. Умумий морфология учун ҳар бир жигардан 2 та бўлак, яъни катта бўлаги ва ўрта қисмидан 1,5x1,5 см бўлақлар кесиб олиниб 10% ли нейтралланган формалинда қотирилди. Оқар сувда 2-4 соат ювилгандан сўнг концентрацияси ошиб борган спиртларда ва ксиллда сувсизлантирилди, кейин парафин қуйилиб, блоклар тайёрланди. Парафинли блоклардан 5-8 мкмли кесмалар тайёрланиб, гематоксилин ва эозинда бўялди.

#### **Натижа ва хулосалар.**

Назорат гуруҳи каламушларининг вазни 130г дан 140 г гача, ўртача -135 г гача бўлган. Каламушларнинг назорат гуруҳи жигар массаси 7,6 г дан 9,8 г гача, ўртача - 8,50 г гача, 0,36 г гача. ўртача масса коэффициенти -6,68 г гача, 0,20 г гача.

Жигар ташқи томондан бириктирувчи тўқима капсуласи билан қопланган бўлиб, у жигар паренхимасига кириб, бўлак ва бўлакча тузилиш ҳосил қилади. Фақат портал трактлари соҳасида бўлаккли кўриниш аниқ ажралиб туради. Одамларда бўлгани каби, каламушларда ҳам фиброз толали қатламлар билан ажралмайди. Бўлақларнинг чегаралари портал трактлари орасидаги шартли чизиклардир. Жигар ҳужайралари ва гепатоцитлар бўлақлар ичида нисбатан мунтазам қаторларга жойлаштирилади ва икки қаторли радиал жигар пластинкаларини ҳосил қилади.

Гепатоцитларнинг кўндаланг ўлчами (бир гепатоцит ядросининг марказидан бошқа гепатоцит ядросининг яқин ядросининг марказигача бўлган масофа) 21,0 дан 28,0 мкм гача, ўртача - 25,1 дан 0,45 мкм гача ўзгаради. Улар аниқ чегаралар билан кўпбурчак шаклга эга. Ситоплазмаси амфифил, донадор. Перинуклеар зонада ва синусоидал полюсининг ён томонида, нисбатан хира рангли ситоплазма фониди, донадор эндоплазматик тармоққа мос келадиган майда донали базофил модда мавжуд.

Гепатоцитлар ситоплазмасининг ўртача кўндаланг кесимининг кўрсаткичлари 403,0 мм<sup>2</sup> дан 731,0 мм<sup>2</sup> гача, ўртача - 594,5 дан 21,6 мм<sup>2</sup> гача бўлади. Гепатоцит ядролари марказлашган ҳолда жойлашган, бир ёки иккита яхши ажралиб турадиган нуклеолларни ўз ичига олади, катталиги ва шакли ўзгаради, кўпинча юмалоқ бўлади. Ядролар одатда жигар ҳужайраларининг марказида жойлашган, аммо уларнинг атрофига кўчирилиши мумкин. Гепатоцитларнинг катта қисми мононуклеар бўлиб,

улар билан бирга бинуклеар гепатоцитлар ҳам бор. Перипортал гепатоцитлар бирмунча кичик бўлиб, ядролари гиперхромик, ситоплазмаси эса базофилроқдир.

100 та гепатоцитларга бинуклеар гепатоцитларнинг сони 10-18 оралиғида бўлиб, ўртача 14,2 та гепатоцитларга нисбатан 0,72 га тенг. Каламушларнинг назорат гуруҳи гепатоцит ядроларининг кўндаланг кесими кўрсаткичлари 102,0 мм<sup>2</sup> дан 143,0 мм<sup>2</sup> гача, ўртача - 119,4% гача, 2,58 мм<sup>2</sup> гача.

Жигар бўлақларининг марказида жигар томирларининг дастлабки алоқаси бўлган марказий томирлар мавжуд. Марказий веналарнинг диаметри 48,0 дан 76,0 мкм гача, ўртача-60,55 дан 1,74 мкм гача. Портал трактлари артерия, вена ва ўт йўлини ўз ичига олган бўлақлар атрофида жойлашган.

Бўлақлараро веналар диаметри 22,0 дан 36,0 мкм гача, ўртача-30,1 дан 00,870 мкм гача.

Бу томирлар диаметри жуда кичик тармоқларни беради, натижада венулаларга ўтиб, жигар бўлагининг лабиринтга ўхшаш кичик қон томир тўплами ташкил этувчи синусоидал капиллярларнинг тармоқларига бўлинади. Бўлақлараро артериялар ўз тармоқларининг кўп қисмини ўт йўллариининг қон билан таъминланишига беради, перибилиар ўрамларнинг ҳосил бўлишида иштирок этади, уларнинг зичлиги ўт йўллариининг диаметри ошгани сайин ортади.

Бўлақлараро артерияларнинг диаметри 9,9 дан 16,3 мкм гача, ўртача 14,2 дан 0,40 мкм гача бўлади. Бўлақлараро артерияларнинг диаметри (2 марта ёки ундан кўп) бўлақлараро веналарнинг диаметридан камроқ бўлган артериолаларга ўтиб терминал артерияларнинг кичикроқ қисми синусоидал томирлар (капиллярлар) ҳосил бўлишида иштирок этади. Улар жигар бўлақчалари орасида жойлашади.


Синусоидал капиллярлар асосан радиал йўналишда бўлақларнинг марказига йўналтирилади, улар марказий томирларга оқиб ўтади. Бу гемокапиллярлар кўндаланг кесимда 9,0 дан 13,0 мкм гача катталиқка эга, ўртача - 11 мкм дан 0,26 мкм гача. Гепатоцитнинг бир томони синусоидга (синусоид томонга), бошқа томони эса сафро капиллярлари (сафро томонга) ҳосил бўлган қўшни гепатоцитга дуч келади.

Триаданинг ўт йўллари бир қаватли кубсимон эпителий билан қопланган бўлиб, баландлиги 4 дан 6 мкм гача, ўртача 4.77 мкм гача бўлиб, 0.17 мкм гача бўлади. Ўт йўллариининг катталиги 16,0 дан 35,0 мкм гача, ўртача-22,5 дан 1,18 мкм гача. Портал трактлар ва марказий томирлар орасидаги паренхима икки қатор жигар ҳужайраларидан иборат бўлақчалар билан ифодаланади.

#### **Хотима.**

-Ушбу маълумотлар жигардаги нормал кўрсаткичларни билган ҳолда микроскоп ёрдамида патологияларни ажратиш олиш ва ҳужайраларни бир бири билан солиштириб кўриш имконини беради.


-Бу маълумотлардан тиббиёт муассасаларининг гистология кафедраларида талабаларга ўқув жараёнида микроскопик ва макроскопик маълумотларни тўлдиришда фойдаланиш мумкин.




Расм 1. Оқ зотсиз каламуш жигар бўлаги марказий венаси. Микропрепарат. Бўёқ гематоксиллин-эозин.



Расм 2. Жигар марказий венаси ва триадаси кўриниши. Бўёқ гематоксиллин-эозин.



Расм 3. Синусоидли гемокapиллярлар тузилиши. Бўлакчалараро жойланиши. Бўёқ гематоксиллин-эозин.



Расм 4. Жигар паренхимасини ташкил этувчи гепатоцитлар тўшлами. Бўёқ гематоксиллин-эозин.

**ADABIYOTLAR:**

1. Norbekovich, T. B., Oblakulovich, K. S. O. S., Sadinovich, U. S., Mustafoevich, M. Z., & Akhmadjonovich, S. S. (2021). Polypragmasia as a risk factor causing complications in viral infection. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(2), 79-82.

2. Sadinovich, U. S., Oblakulovich, K. S., & Murodullaevna, K. L. (2023). Morphology and morphometric characteristics of liver tissue of group four white rats. *Journal of biomedicine and practice*, 8(3).

3. Usanov, S. S., & Teshae, S. J. (2022). COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF THE LIVER MORPHOMETRIC PARAMETERS OF WHITE UNBORED RATS IN NORMALITY AND WITH THE ACTION OF 2 DIFFERENT ANTI-INFLAMMATORY PREPARATIONS IN POLYPRAGMASIA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 68-74.

4. Усанов, С. С. (2021). ХАРАКТЕРИСТИКА МОРФОМЕТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ ПЕЧЕНИ ПРИ ПОЛИПРАГМАЗИИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 613-621.

5. Sadinovich, U. S., & Ismoilovich, I. O. (2022). OQ ZOTSIZ KALAMUSHLAR JIGARINING MORFOMETRIK KO'RSATGICHLARINI POLIPROGMAZIYADA YALLIG'LANISHGA QARSHI 4 HIL VOSITALAR TA'SIRI HOLATIDA O'RGANISH. *JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE*, 7(5).

6. Usanov, S. S. (2022). Anatomical and Histological Parameters of the Liver of White Nonbored Rats in Normal. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 123-128.

7. Usanov, S. S., & Zh, T. S. (2022). Study of Morphological Changes in the Liver of White Unbored Rats under the Influence of 3 Different Anti-Inflammatory Preparations. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 129-132.

8. Usanov, S. S., Teshae, S. J., & Sanoev, B. A. (2022). MORPHOLOGICAL AND MORPHOMETRIC PARAMETERS OF THE LIVER OF WHITE NONBORED RATS IN



NORMAL. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 75-81.

9. Sadinovich, U. S. (2021). Characteristic Of The Morphometric Parameters Of The Liver In Polypragmasia. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 3(10), 28-32.

10. Усанов, С., Хидиров, З., & Олимова, Ж. (2023). ОҚ ЗОТСИЗ КАЛАМУШЛАР ЖИГАРИНИНГ МЕЪЁРДАГИ МОРФОЛОГИК ВА МОРФОМЕТРИК ПАРАМЕТРЛАРИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(11), 101-107.

11. Sadinovich, U. S., Erkinovich, K. Z., & Abdurafikovich, D. H. (2023). Study Of The Morphometric Indicators Of The Liver Of Album Rats Under The Effect Of 3 Different Anti-Inflammatory Medicines In Polypragmasia. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(6), 450-455.

12. Sanjar, U. (2022). MORPHOLOGICAL FEATURES OF THE LIVER IN POLYPRAGMASIA. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR*, 127-129.

13. Мустафоев, З. М., Абдураимов, З. А., & Мавлонкулова, Д. М. (2023). МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОТДЕЛОВ НЕФРОНА КРЫС И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ ЭФФЕКТА ПОЛИПРАГМАЗИИ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ. *Research Focus*, 2(11), 119-123.

14. Khidirov, Z. E., & Zafarjon, A. (2023). Views on " Postcholecystectomy Syndrome". *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(3), 200-206.

15. Zafarjon, A., & Khidirov, Z. E. (2023). MAIN CAUSES, DIAGNOSIS, AND EFFECTIVE TREATMENT OF POSTCHOLECYSTECTOMY SYNDROME. *World Bulletin of Public Health*, 21, 223-228.

16. Abduraimov, Z., & Khidirov, Z. (2023). RESTORATION OF MORPHOLOGICAL STRUCTURES IN THE WALL OF THE SMALL INTESTINE. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(10), 103-107.

17. Abduraimovich, A. Z., & Erkinovich, H. Z. (2023). MORPHOFUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF THE SMALL INTESTINE DURING EXPERIMENTAL

CHOLECYSTECTOMY AND ANTIHYPOXANT THERAPY IN ACUTE SMALL INTESTINAL OBSTRUCTION. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 222-229.

18. Мустафоев, З. М., Абдураимов, З. А., & Мавлонкулова, Д. М. (2023). МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОТДЕЛОВ НЕФРОНА КРЫС И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ ЭФФЕКТА ПОЛИПРАГМАЗИИ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ. *Research Focus*, 2(11), 119-123.

19. Абдураимов, З. А., Коржавов, Ш. О., Шамсиева, Р. А., Шавкатуллаева, Д. Г., Хасанова, М. Б., & Негматов, Х. И. (2013). ПУТИ УСТРАНЕНИЯ ПОСЛЕОПЕРАЦИОННЫХ ОСЛОЖНЕНИЙ ПРИ ПЛАСТИКЕ ВЕНТРАЛЬНЫХ ГРЫЖ У БОЛЬНЫХ С СОПУТСТВУЮЩИМ ОЖИРЕНИЕМ. *SCIENCE AND WORLD*, 50.

20. Erdanovich, R. K., Sulaimanovich, D. S., Shukurillaevich, A. D., & Abduraimovich, A. Z. (2022). Criteria For Selecting Surgical Treatment Of Patients With Ventral Hernias And Obesity. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 3, 40-46.

21. Мустафоев, З. М., Бахронов, Ж. Ж., Хидиров, З. Э. (2022). Яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазиясида буйрак нефронларида рўй берадиган морфометрик ўзгаришлар. Биология ва тиббиёт муаммолари.-Самарқанд–2022, 3, 177-181.

22. Oglu, M. Z. M., & Zokirovna, O. A. (2023). МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ ПЕЧЕНИ БЕЛЫХ БЕСПОРОДНЫХ КРЫС, ПЕРЕНЕСШИХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНУЮ ЧЕРЕПНО-МОЗГОВУЮ ТРАВМУ ПОСЛЕ МЕДИКАМЕНТОЗНОЙ КОРРЕКЦИИ. *JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE*, 8(1).

23. Мустафоев, З. М., Бахронов, Ж. Ж., & Хидиров, З. Э. (2022). Яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазиясида буйрак нефронларида рўй берадиган морфометрик ўзгаришлар. Биология ва тиббиёт муаммолари.-Самарқанд–2022, 3, 177-181.

24. ТЕШАЕВ, Ш., & МУСТАФОЕВ, З. (2022). ПОЧЕК ПРИ ПОЛИПРАГМАЗИИ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫМИ ПРЕПАРАТАМИ. *ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ*, 7(1).

25. Мустафоев, З. М. Ў. (2021). Сравнительная характеристика морфологических параметров почек при полипрагмазии противовоспалительными препаратами. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 622-630.

26. Мустафоев, З. М., & Бахронов, Ж. Ж. (2022). Морфометрическая характеристика частей нефрона почек крыс в норме и при полипрагмазии противовоспалительными препаратами. Вестник ТМА–2022, 2, 57-59.

27. Norbekovich, T. B., Oblakulovich, K. S. O. S., Sadinovich, U. S., Mustafoevich, M. Z., & Akhmadjonovich, S. S. (2021). Polypragmasia as a risk factor causing complications in viral infection. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 2(2), 79-82.

28. Mustafoev, Z. M. (2021). Morphological Parameters Of Kidney In Polypragmasia With Anti-Inflammatory Drugs. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research, 3(10), 33-37.

29. Mustafoev, Z., & Qo'ldoshev, F. (2023). TIBBIYOTDA IT TEXNOLOGIYALARIDA FOYDALANIB JIGAR SERROZINI DAVOLASH. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5 Part 2), 8-10.

30. Mustafoev, Z. (2023). COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF THE MORPHOMETRIC PARAMETERS OF THE KIDNEY IN POLYPHARMACY WITH ANTI-INFLAMMATORY DRUGS. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(4), 75-80.

31. Mustafoev, Z. M., Teshae, S. J., & Bakhronov, J. J. (2022). Features Of Kidneys Exposed to Various Factors. Eurasian Scientific Herald, 5, 144-154.

32. Mustafoev, Z. (2023). COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF THE MORPHOMETRIC PARAMETERS OF THE KIDNEY IN POLYPHARMACY WITH ANTI-INFLAMMATORY DRUGS. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(4), 75-80.

33. Zafarjon, M. (2022). ANALYSIS OF POLYPRAGMASIA PREVALENCE AND MORPHOLOGICAL CHANGES OF KIDNEYS. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR, 105-108.

## ЭЛЕКТРОМОБИЛ ИМПОРТИ ЙИЛЛАР КЕСИМИДА

Тошкент давлат транспорт университети Автомобил транспорт муҳандислиги  
факултети ЕАМ 4 гуруҳ талабаси

**Янгиева Исмигул Илхомовна**

**Аннотатсия:** Статистик маълумотларга кўра, республикада электромобиль импорти 2022 йилда 1 629 тани ташкил қилган. Бугунги кунда республикадаги жами электромобиллар сони 2 620 тани, зарядлаш станциялари эса 70 тани ташкил қилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги ПҚ-3818-сон «Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолиятини янада тартибга солиш ҳамда божхона-тариф жиҳатдан тартибга солиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» қарори билан 2019 йил 1 январдан Ўзбекистонга электромобиль импорти учун бож тўлови бекор қилинган, ўша йил июль ойида акциз солиғи ҳам бекор қилинган.

**Калит сўзлар:** Норвегия тажрибаси Буюк Британия тажрибаси Қайта тикланувчи энергия манбалари электромобил ўсиш кўрсаткичлари Комбинацияланган зарядлаш тизими

### Кириш

Айни пайтда четдан енгил электромобиль олиб киришда 20 евро божхона йиғими ва 12 фоизлик қўшилган қиймат солиғи тўланади.

Масалан, Кореяда ишлаб чиқарилган “Hyundai Kona” электромобиллари Ўзбекистондаги автосалонларда 35 минг АҚШ доллар атрофида сотилмоқда. Яна бир мисол, Хитойда 15 минг АҚШ долларига баҳоланган машина, Ўзбекистонга етиб келгунча 28 минг АҚШ долларига айланади.

Ҳозирча электромобилларга техник хизмат кўрсатувчи марказлар етишмайди. Эҳтиёт қисмларини 1-2 ой кутиш керак.

Энергетика вазирлиги ҳузуридаги Қайта тикланувчи энергия манбалари миллий илмий-тадқиқот институти томонидан қуёш энергиясидан фойдаланган ҳолда электромобилларни юқори тезликда зарядловчи қурилмаларни яратиш ва ривожлантириш лойиҳаси ишлаб чиқилмоқда.

Ўзбекистон иқлим шароитини ҳисобга олган ҳолда энергия сақлаш тизимига эга бўлган қуёш фотоэлектр тизими орқали маҳаллий электр тармоғи билан параллел ҳолда ишлайдиган электромобилларни тез зарядлаш қурилмаси ишлаб чиқилмоқда.

Ҳар бир тизим йилига 32 минг кВт/соат электр энергияси ишлаб чиқариб, 950 та электромобилларни зарядлаш имконияти яратилади ҳамда 11,2 минг куб метр табиий газ тежалиб, атмосферага 19,8 тонна зарарли газлар чиқиши олди олинади.



Энергетика вазирлиги ҳузуридаги Қайта тикланувчи энергия манбалари миллий илмий-тадқиқот институти томонидан қуёш энергиясидан фойдаланган ҳолда электромобилларни юқори тезликда зарядловчи қурилмаларни яратиш ва ривожлантириш лойиҳаси ишлаб чиқилмоқда.

#### Асосий қисм

Ўзбекистон иқлим шароитини ҳисобга олган ҳолда энергия сақлаш тизимига эга бўлган қуёш фотоэлектр тизими орқали маҳаллий электр тармоғи билан параллел ҳолда ишлайдиган электромобилларни тез зарядлаш қурилмаси ишлаб чиқилмоқда.

Ҳар бир тизим йилига 32 минг кВт/соат электр энергияси ишлаб чиқариб, 950 та электромобилларни зарядлаш имконияти яратилади ҳамда 11,2 минг куб метр табиий газ тежалиб, атмосферага 19,8 тонна зарарли газлар чиқиши олди олинади.

Институтга Хитойнинг «Henan Suda Electric Vehicle Technology Co.,Ltd. компаниясининг техник кўмагида 20 дона электромобиль ажратилган бўлиб, улар асосида илмий тадқиқот таҳлиллари олиб борилади.

Ҳозирда, институт ҳудудида умумий қуввати 48 кВт.соатга тенг қуёш фотоэлектр станцияси ўрнатилган бўлиб, улар асосида ишлаб чиқарилган электр энергияси институтни электр узлуксиз таъминламоқда.

Ҳозирги кунда электромобиль транспорти ўртача юриш масофаси 300-400 кмни ташкил қилади, лекин доимий юриш масофасига таъсир қилувчи қуйидаги омиллар мавжуд:

1. батарея ҳажми - батарея сифими қанча кўп бўлса шунча юриш масофаси ортади;
2. ҳаракатланиш тезлиги - тезлик ортгани сари юриш масофаси қисқаради;
3. ҳаво ҳарорати – совуқ об-ҳаво шароитида батарея қуввати тезроқ сарф бўлади;

Электр қувватини кўп сарфланиши – электромобил салонини иситиш ва совутиш тизими, тормоз тизими ва бошқа функциялар.

Ҳозирги кунда қувват батареяларининг нархи 1 киловатт учун 130 АҚШ долларини ташкил қилади, ишлаб чиқариш кўрсаткичи шу суръатда давом этса 2025 йилга бориб 1 киловатт учун 50-60 АҚШ долларини ташкил этиши прогноз қилинмоқда.

Зарядлаш вақти электромобилларнинг асосий камчиликларидан биридир чунки зарядлаш қувват манбаига қараб, батареяни тўлиқ заряд қилиш учун 24 соат ёки бир неча дақиқа вақт кетиши мумкин.

Зарядлаш манбаларини қувват манбаига қараб 3 та даражага бўлинади;

Ишлатилган улагичлар: Ж1772, Тесла

Зарядлаш тезлиги: соатига 5-8 кмгача

Жойлар: Уй, иш жойи ва жамоат

1 даражали зарядлаш учун умумий 120 волтли маиший розеткадан фойдаланилади.

1 даражали зарядлаш плагинли гибрид электр транспорт воситалари учун яхши ишлайди, чунки улар кичикроқ (25 кВт/соатдан кам) батареяларга эга. Электромобиллар каттароқ батареяларга эга бўлганлиги сабабли, 1 даража кундалик зарядлаш учун жуда секин ҳисобланади.

Камчилиги зарядлаш вақти 24-40 соатгача, тезкор зарядлаш станцияларига нисбатан уйда зарядлаш арзонлиги кейинчалик электромобиллар улуши ортганида маҳаллий аҳоли электр тармоқларига ортиқча юклама бўлиши мумкин.

2 даражали зарядлаш: 208-240 волтгача

Ишлатилган улагичлар: Ж1772, Тесла

Зарядлаш тезлиги: соатига 20-80 кмгача

Жойлар: Уй, иш жойи ва жамоат

2 даража кундалик зарядлаш учун энг кўп ишлатиладиган даражадир. 2 даражали зарядлаш ускунаси уйда, иш жойида, шунингдек, савдо майдончалари, темир йўл вокзаллари ва бошқа йўналишлар каби жамоат жойларида ўрнатилиши мумкин.

Аксарият электромобиль эгалари 2 даражали зарядлаш ускунасини ўз турар жойларига ўрнатишни танлайдилар, чунки у электромобилни 1 даражали зарядлашдан 10 баробар тезроқ заряд қилади. 2 даражали манбадан зарядлаш, одатда, агар сиз деярли бўш батареяга уланган бўлсангиз ҳам, электромобиль бир кечада тўлиқ қувватланади.

Камчилиги зарядлаш вақти 12 соатгача, тезкор зарядлаш станцияларига нисбатан уйда зарядлаш арзонлиги кейинчалик электромобиллар улуши ортганида маҳалий аҳоли электр тармоқларига ортиқча юклама бўлиши мумкин

3 даражали зарядлаш: 400-900 вольтгача ( Тезкор зарядлаш)

Ишлатилган улагичлар: Комбинацияланган зарядлаш тизими (Сомбо),

Зарядлаш тезлиги: дақиқада 5-30 кмгача

Жойлар: оммавий

Ўзгарувчан токдан фойдаланадиган 1 даражали ва 2 даражали зарядлашдан фарқли ўлароқ, 3 даражали зарядлаш тўғридан-тўғри оқимдан фойдаланади. Кучланиш, 1 ва 2 даражали зарядлашдан анча юқори, шунинг учун 3 даражали зарядловчилар уйда ўрнатилмайди.

Хориж тажрибаси

### **Норвегия тажрибаси**

Норвегия электромобил транспортини ривожлантириш бўйича дунёнинг энг илғор давлати ҳисобланади. Электромобиль транспорти улуши 65 %ни ташкил қилади.

Норвегия парламенти 2025 йилгача сотиладиган барча янги автомобиллар нол эмиссия (электр ёки водород) бўлиши кераклиги ҳақидаги миллий мақсад тўғрисида қарор қабул қилди.

Таҳлил натижаларига кўра электр транспорти воситалари ва зарядлаш станциялари солиқ имтиёзлари ва божхона божларидан озод қилинган ва “ифлослантирувчи тўлайди” тамойили асосида нефт маҳсулотлари ёқилғисида ҳаракатланувчи транспорт воситаларига солиқлар жорий этилган шу орқали электр транспорти воситаларини ривожлантиришга эришилмоқда.

### **Буюк Британия тажрибаси**

Буюк Британияда электромобиллар учун 3 даражали зарядлаш станцияларини кўпайтириш ва уларнинг жойлашувига алоҳида эътибор қаратилганини кўриш мумкин. Тезкор зарядлаш станцияларини аҳоли мобиллигидан келиб чиқиб жойлаштирилган бунда ҳар қандай иқлим шароитларида электромобилларнинг ҳаракат жараёнига ташқи таъсирлар минималлаштирилган.

Ҳозирги кунда ривожланган давлатларда Хитойда ҳар 4 та электромобил учун 1 та, Жанубий Кореяда эса 2 та электромобилга 1 та тезкор зарядлаш станциялари тўғри келади. Бу орқали электромобилларнинг зарядлаш учун ортиқча кутиб қолишлар вақтини қисқартиради. Чунки тезкор зарядлаш станцияларида битта электромобилни тўлиқ қувватлаш учун ўртача 20 дақиқа вақт талаб этилади.

### Хулоса

Ўрганиш натижаларига кўра электромобиль транспортини ривожлантиришдаги асосий муаммолар сифатида дунёнинг санокли давлатларида ишлаб чиқарилиши, электромобиль тан нархининг нисбатан қимматлиги (бунда аккумулятор батареяларининг қимматлиги электромобил таннархининг 40-50 % ини ташкил қилиши), зарядлаш станциялари камлиги, аккумулятор батареяларининг зарядланиш вақтининг узунлиги, техник хизмат кўрсатиш ва сервис хизматларининг камлиги ҳисобланади.

Ўрганиш натижалари бўйича қуйдагиларни таклиф этилади.

- электромобиль транспорти учун ҚҚС ни қисқартириш ёки маълум имтиёзли давр учун олиб ташлаш;
- зарядлаш станцияларини жойлаштиришда транспорт оқимларини, ҳудудларда электромобиллар ўсиш кўрсаткичларини ва иқлим шароитларини, энергия балансини инобатга олиш;
- электромобил ўсиш кўрсаткичларига мувофиқ зарядлаш станцияларини балансини ушлаш;
- зарядлаш станцияларини ўрнатишда қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш;
- электромобиллар учун талаб этиладиган қувватга мос равишда электр энергияси ишлаб чиқаришни босқичма-босқич ошириб бориш;
- шаҳар ва қишлоқларни электр тизимини трансформация қилиш.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. “AVTOMOBIL TRANSPORTINING ATROF-MUHITGA TA’SIRINI KAMAYTIRISH YECHIMLARINING TAHLILI” Yangiyeva Ismigul Ilhomovna
2. ЗЕЛЕНЬЙ ТРАНСПОРТ – ПУТЬ К УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ Ю. Шодиметов. Д. Айрапетов
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 ноябрдаги “Энергия ресурсларидан оқилона фойдаланишни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-3379-сон Қарори.



**TREND MODELLARI YORDAMIDA ELEKTRON TIJORAT AYLANMASI  
HAJMINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH**

*M.K.Tuychiyeva* – Termiz davlat universiteti talabasi

*i.f.f.d. (PhD) B.E.Turayev* – Termiz davlat universiteti o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu havola etilayotgan maqolada Respublika miqyosida raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat aylanmasi hajmini modellashtirish va istiqbolda prognozi o`z aksini topgan.

**Kalit so`zlar:** trend modellari, tendensiyalar, polinom, eksponensial, elektron tijorat, chiziqli, logarifmik.

Trend asosiy tarkibiy qism xisoblanadi, ya`ni, trend – bu vaqt qatoridagi tasodifiy o`zgarib turishlardan ozmi-ko`pmi holi bo`lgan barqaror tendentsiya. Texnik tahlilda narxlar yoki indeks qiymatlarining harakat yo`nalishi nazarda tutiladi.<sup>18</sup>

Trend modellarining umumiy ko`rinishi quyidagicha:

- $y = a + bt$  - chiziqli trend modeli
- $y = ae^{bt}$ -eksponensial trend modeli
- $y = a + b_1x + b_2x^2$  -2-darajali polinom
- $y = at^b$  - darajali
- $y = a + blnt$ - logarifmik trend tenglamalari

O`zbekiston Respublikasi miqyosida raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat savdo aylanmasi hajmini eksponensial, chiziqli va 2-tartibli polinom modellari orqali modellashtirish uchun Microsoft Exel dasturiy ta`minotining “Анализ данных” paketidan foydalangan holda amalga oshiramiz. Buning uchun quyidagi 1-jadvaldagi ma`lumotlarni asos sifatida olamiz.

1-jadval.

**O`zbekiston Respublikasi miqyosida raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat aylanmasi hajmi (mlrd so`m)<sup>19</sup>**


Yillar	O`zbekiston Respublikasi
$t$	$Y$
1	6,0
2017	12,1
2018	40,9
2019	275,3

<sup>18</sup> Xodiev B.YU., SHodiev T.SH., Berkinov B.B. Ekonometrika: o`quv qo`llanma. –T.:IQTISODIYOT, 2018. –178 s.

<sup>19</sup>O`zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi <https://stat.uz/uz/>


2020	1 002,5
2021	5 978,7
2022	10 886,8

Buning uchun ma`lumotlarni MS Excelga yuklab olamiz. Ma`lumotlar oraliq`ini belgilab olib, “Вставка-Диаграмма-Точечная-Точечная” diagrammasini tanlaganimizdan so`ng quyidagicha natija hosil bo`ladi. (1-rasm)



1-rasm. Kordinatada nuqtalarning joylashuvi<sup>20</sup>.

“Добавить линию тренда” orqali turli modellarni tuzib olamiz.




2-rasm. Eksponentsial trend modeli<sup>21</sup>


Boshqa model turlarini tanlash orqali 3.2.2-3.2.5-rasmlardagi natijalarni hosil qilamiz.

<sup>20</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>21</sup> Muallif ishlanmasi




2-rasm. Chiziqli trend modeli<sup>22</sup>




3-rasm. Logarifmik trend modeli<sup>23</sup>

<sup>22</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>23</sup> Muallif ishlanmasi



4-rasm. 2-darajali polinom trend modeli<sup>24</sup>



5-rasm. Darajali trend modeli<sup>25</sup>

Tahlil qilinayotgan qatorlar dinamikasi har doim anchagina uzunroq qatorlarning tanlamasi hisoblanadi. Shuning uchun regerssion tahlil asosida olingan ekonometrik modellarning ishonchliligini har tomonlama tekshirib va baholab olamiz va tuzib olingan barcha turdagi modellarni sifatini va ahamiyatligini tekshirib natijani quyidagicha ifodalaymiz.

2-jadval

### Trend modellari verifikatsiya bosqichi natijalari<sup>26</sup>

<sup>24</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>25</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>26</sup> MS Excelda muallif tomonidan shakllantirildi

T/r	Model turi	Model tenglamasi	Determinatsiya koeffitsienti
1	Eksponentsial	$y = 1,0628e1,3606t$	0,9861
2	Chiziqli	$y = 1626,3t - 3905$	0,6856
3	Logarifmik	$y = 4185,5\ln(t) - 2497,1$	0,4563
4	2-darajali polinom	$y = 598,01t^2 - 3157,8t + 3271,2$	0,9637
5	Darajali	$y = 1,7146t^{4,0759}$	0,8893

Ushbu 2-jadvalimizdan ko`rinib turibdiki, eksponentsial trend modeli boshqa modellarga qaraganda determinatsiya koeffitsienti eng katta va model sifati yuqori. Ammo, modelning ahamiyatini Fisher mezoni bilan va parametrlari statistik ishonchliligini Student t mezoni bilan tekshirganimizda o`zgarmasi, ya`ni 1,0628 koeffitsienti Studentning t mezoni bo`yicha statistik ahamiyatga ega bo`lmadi.

Ma`lumot o`rnida, Fisherning F mezoni yordamida to`liq modelning adekvatligini, ya`ni real iqtisodiy jarayonga mosligini tekshirish mumkin bo`ladi. Modelning ahamiyatga ega ekanligini tekshirishda boshqa statistik usullaridan Student t mezonidan foydalaniladi.

Boshqa modellarda ham shunday holat kuzatildi. Shu sababli eksponentsial modelni o`zgarmassiz tajriba qildik. Buning uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirdik:

3-jadval

### Hisob-kitob natijalari<sup>27</sup>

t	y	lny	t
1	6,0	1,797264	1
2	12,1	2,495158	2
3	40,9	3,710177	3
4	275,3	5,6179	4
5	1 002,5	6,910233	5

<sup>27</sup> MS Excelda muallif tomonidan shakllantirildi

6	5 978,7	8,695952	6
7	10 886,8	9,295307	7

Natijada quyidagi modelga erishdik:

4-jadval

**Regression tahlil natijalari<sup>28</sup>**

ВЫВОД ИТОГОВ

<i>Регрессионная статистика</i>					
Множественный R		0,9986			
R-квадрат		0,9972			
Нормированный R-квадрат		0,8305			
Стандартная ошибка		0,3506			
Наблюдения		7			
<i>Дисперсионный анализ</i>					
	<i>df</i>	<i>SS</i>	<i>MS</i>	<i>F</i>	<i>Значимость F</i>
Регрессия	1	263,8	263,8	2146,8	8,84398E-08
Остаток	6	0,7	0,1		
Итого	7	264,6			
	<i>Коэффициенты</i>	<i>Стандартная ошибка</i>	<i>t-статистика</i>	<i>P-Значение</i>	<i>Нижние 95%</i>
Y-пересечение	0	#Н/Д	#Н/Д	#Н/Д	#Н/Д
T	1,37	0,03	46,33	0,00	1,30

4-jadvaldan ma`lumki, Respublika miqyosida elektron tijorat savdo aylanmasi hajmi modelining umumiy ko`rinishi quyidagicha bo`ladi:

<sup>28</sup> MS Excelda muallif tomonidan shakllantirildi

$$y = e^{1.37*t} \quad (1)$$

Modelning Fisher F mezoni qiymati 2146.8 va parametrlari Styudent t mezoni qiymati 46.33. Demak, model iqtisodiy jarayonga mos. Modelning approksimatsiya xatoligi 29,09% chiqdi.

Modeldan foydalanib 2025 yilga qadar elektron tijorat savdo aylanmasi hajmini prognoz qildik. Unga ko'ra 2023 yilda ko'rsatkich hajmi 58 801,82 mlrd so'm, 2024 yilda esa 232 040,95 mlrd so'm va 2025 yilda esa 915 668,94 mlrd so'm bo'lishi kutilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xodiev B.YU., SHodiev T.SH., Berkinov B.B. Ekonometrika: o'quv qo'llanma. – T.:IQTISODIYOT, 2018. –178 s.
2. O`zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi <https://stat.uz/uz/>

## HUDUD DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH HAJMINI TREND MODELLARI YORDAMIDA PROGNOZLASHTIRISH

*Sh.A. Xursanova - Termiz davlat universiteti talabasi*  
*i.f.f.d. (PhD) B.E. Turayev - Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada eksponentsial, chiziqli, logarifmik, polinom, darajali trend modellari yordamida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi prognoz qilingan.

**Kalit so'zlar:** eksponentsial, chiziqli, logarifmik, polinom, darajali, trend modellar, spetsifikatsiyalash, identifikatsiyalash, verifikatsiyalash.

Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi ham mikro, ham makroiqtisodiyotda tabiiy, zaruriy element sifatida matematik modellar va usullarni o'z ichiga oladi. Matematikadan iqtisodiyotda foydalanish - iqtisodiy o'zgaruvchilar va ob'ektlarning eng muhim, ahamiyatli bog'lanishlarini belgilashga va formal tasvirlashga, iqtisodiyot nazariyasining qoidalari, tushunchalari va xulosalarini aniq va lo'nda bayon qilishga imkon beradi. Bunda modellar va modellashtirish muhim o'rin tutadi.

**Model** - bu shunday moddiy yoki xayolan tasavvur qilinadigan ob'ekt, u tadqiqot jarayonida haqiqiy ob'ektning o'rnini shunday bosadiki, uni bevosita o'rganish haqiqiy ob'ekt haqida yangi bilimlar beradi. Modellar qurishda tadqiq qilinayotgan hodisani belgilovchi muhim omillar aniqlanadi va qo'yilgan masalani yechish uchun muhim bo'lgan qismlar chiqarib tashlanadi.

Ilmiy izlanishlarda modellashtirish qadimgi zamonlardan qo'llanila boshlandi va asta sekin ilmiy bilimlarning qurilish va arxitektura, astronomiya, fizika, ximiya, biologiya va paxoyat, ijtimoiy fanlar kabi tabora yangi sohalarini qamrab ola boshladi. Birinchi matematik modellar F.Kene, A.Smit (klassik makroiqtisodiy model), D.Rikardo (xalqaro savdo modeli) tomonidan ishlatilgan. XX asr zamonaviy fanning amalida barcha sohalarida modellashtirish usuliga katta muvaffaqiyatlar va obro'-e'tibor keltirdi<sup>29</sup>.

Tadqiqot mavzumiz doirasida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2028-yilga qadar prognoz qilamiz. Buning uchun trend modellaridan foydalanamiz.

Barchamizga ma'lumki, tajribalarda juda ko'p qo'llaniladigan eng oddiy prognozlash modellaridan biri trend modeli hisoblanadi. Trend - bu vaqt bo'yicha

<sup>29</sup> Фукина С.П. Трендовые модели в экономических исследованиях // Экономический анализ: теория и практика. 2011. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/trendovye-modeli-v-ekonomicheskix-issledovaniyah> (дата обращения: 28.11.2023).



qatorni barqaror tendentsiyasi bo'lib, ozmi-ko'pmi tasodifiy tebranishlardan ta'siridan ozoddir.

Unda natijaviy belgi sifatida o'rganayotgan ko'rsatkich, omil belgi sifatida esa kuzatuv davri soni olinadi. Umumiy olganda, trend modellari umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi<sup>30</sup>:

- $y = ae^{bt}$  - eksponentsial trend modeli
- $y = a + bt$  - chiziqli trend modeli
- $y = a + blnt$  - logarifmik trend tenglamalari
- $y = a + b_1x + b_2x^2$  - 2-darajali polinom
- $y = at^b$  - darajali

Modellashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Spetsifikatsiyalash bosqichi;
2. Identifikatsiyalash bosqichi;
3. Verifikatsiyalash bosqichi;
4. Prognozlash bosqichi;

Dastlabki bosqichda [www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz) Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy saytidan o'rganilayotgan ob'ekt bo'yicha 2010-2022-yillar ma'lumotlari olindi:

1-jadval

**Hudud dehqonchilik mahsulotlari hajmi (mlrd so'm)<sup>31</sup>**


Yillar	Dehqonchilik	Yillar	Dehqonchilik
2010	1310,8	2017	6810,8
2011	2588,1	2018	8173,7
2012	2910,0	2019	9718,3
2013	3095,9	2020	9696,2
2014	3762,8	2021	12171,2
2015	4892,9	2022	13963,4
2016	4707,3		

Keyingi bosqichda modelni parametrlashtiramiz. Buning uchun Microsoft Exceldan foydalanamiz. 1-jadvaldagi barcha raqamlarni excel dasturiga kiritib,

<sup>30</sup> Panjiyeva M.M., Turayev B.E. Surxondaryo viloyati asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini trend modellari orqali modellashtirish. //Journal of Universal Science Research. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 296-302.


<sup>31</sup> Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy sayti [www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz) ma'lumotlari.

Ma'lumotlar “Вставка – Диаграмма - Точечная” yo'li orqali koordinata o'qida joylashtiramiz:




1-rasm. Nuqtalar joylashuvi<sup>32</sup>

Istalgan nuqtaning ustida sichqonchanning o'ng tugmasini bosib, paydo bo'lgan menyudan “Добавить линию тренда” ni tanlaymiz. Natijada bir necha eksponensial, chiziqli, logarifmik, 2-darajali polinom va darajali trend modellarini tuzish imkoniga ega bo'lamiz:




<sup>32</sup> Muallif ishlanmasi.

2-rasm. Eksponentsial trend modeli<sup>33</sup>



3-rasm. Chiziqli trend modeli<sup>34</sup>




4-rasm Logarifmik trend modeli<sup>35</sup>


<sup>33</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>34</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>35</sup> MS Excelda muallif tomonidan shakllantirildi.



5-rasm. 2-darajali polinom trend modeli<sup>36</sup>



6-rasm. Darajali trend modeli<sup>37</sup>

Modellashtirishning uchinchi bosqichda ternd modellarini verifikatsiyalaymiz (2-jadval). **Modellarni verifikatsiyalash** – uning realligi, adekvatligini tekshirish tushiniladi. Model ma'lumotlari iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari va tendentsiyalarini hamda qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Shuning modelni qurish uchun olingan ma'lumotlarni tekshirish lozim bo'ladi. **Modelni verifikatsiyalash** – u yoki bu

<sup>36</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>37</sup> Muallif ishlanmasi

bu sabablar bilan modelning adekvatligini tekshirish imkoniyati bo'lmasa, barcha mavjud ma'lumotlardan foydalangan holda modelning ishonchligi va to'liqligi, funktsional aniqligi baholanadi. Modelning nazariy ma'lumotlari uning amaldagi ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

2-jadval

**Verifikatsiyalash natijalari.<sup>38</sup>**

T/r	Model turi	Model tenglamasi	Determinatsiya koeffitsienti
1	Eksponentsial	$y = 1532,6e^{0,1762t}$	0,9633
2	Chiziqli	$y = 997,71t - 537,69$	0,9471
3	Logarifmik	$y = 4508,5\ln(t) - 1374,9$	0,7471
4	2- Darajali Polinomli	$y = 60,994t^2 + 143,79t + 1597,1$	0,986
5	2- Darajali	$y = 1136t^{0,8835}$	0,9359

Determinatsiya koeffitsiyenti eng katta bo'lgan trend modeli bo'yicha regressiya tahlili natijalari 3-jadvalda keltirilgan:

3-jadval

**2-darajali polinom trend modeli bo'yicha regressiya tahlili natijalari<sup>39</sup>.**

ВЫВОД ИТОГОВ					
<i>Регрессионная статистика</i>					
Множественный R	0,99297				
R-квадрат	0,98599				
Нормированный	0,98319				

<sup>38</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>39</sup> MS Excelda muallif tomonidan shakllantirildi

R-квадрат					
Стандартная ошибка	517,61526				
Наблюдения	13				
Дисперсионный анализ					
	<i>df</i>	<i>SS</i>	<i>MS</i>	<i>F</i>	<i>Значимость F</i>
Регрессия	2	188614632	94307316,01	351,991	5,3897E-10
Остаток	10	2679255,557	267925,56		
Итого	12	191293887,6			
<i>Коэффициенты</i>		<i>Стандартная ошибка</i>	<i>t-статистика</i>	<i>P-значение</i>	<i>Нижние 95%</i>
Y-пересечение	1597,111888	506,6398	3,15	0,0103	468,248
t	143,786014	166,4410	0,86	0,4079	-227,068
t <sup>2</sup>	60,99440559	11,5684	5,27	0,0004	35,218

2-jadvaldan shu ma'lum bo'lmoqdaki, determinatsiya koeffitsiyentiga ko'ra eng maqbul model turi bu 2- darajali polinom. Biroq, 3-jadval modeldagi barcha koeffitsiyentlar ham statistik ahamiyatga ega emasligini ko'rsatmoqda. Shu sababli o'zgarmas qatnashmagan modelni tajriba qilishga qaror qildik va model ko'rinishi quyidagicha bo'ldi:

$$y = b_1t + b_2t^2 \quad (1)$$

(1) modelni eng kichik kvadratlar usuli bilan baholaganimizda uning parametrlari quyidagicha bo'ldi:

$$y = 615,92t + 31,85t^2 \quad (2)$$

Shuningdek, tajribada (2) model bo'yicha Fisherning F mezoni 747,67 ga teng bo'ldi. Student t mezoni qiymatlari 0,05 erkinlik darajasida ahamiyatli bo'ldi. Bundan tashqari, appromoksimatsiya xatoligi 13,8% ni tashkil etdi. Shunday qilib, Surxondaryo viloyati dehqonchilik mahsulotlari hajmini prognozlashtirish maqsadida tajribalarda 2-darajali polinom trend modeli iqtisodiy jarayonga mos bo'ldi.

4-jadval

Prognoz qiymatlar<sup>40</sup>


Yillar	$t$	$t^2$	$\hat{y}$
2023	14	196	14865,55
2024	15	225	16405,13
2025	16	256	18008,41
2026	17	289	19675,38
2027	18	324	21406,06
2028	19	361	23200,43

Modelga ko'ra 2028 yil kelib hudud dehqonchilik mahsulotlari hajmini hajmi 23200,43 mlrd so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bu esa 1,56 barobar oshishini bildiradi. 2024-2028 yillarda o'rtacha o'sish 109% foizni tashkil etadi.

<sup>40</sup> Muallif ishlanmasi

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Фукина С.П. Трендовые модели в экономических исследованиях // Экономический анализ: теория и практика. 2011. №11.
2. Panjiyeva M.M., Turayev B.E. Surxondaryo viloyati asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini trend modellari orqali modellashtirish. //Journal of Universal Science Research. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 296-302.
3. Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy sayti [www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz) ma'lumotlari.





## MAKTABGACHA TA'LIM- TARBIYALANUVCHILARIDA IQTISODIY TUSHUNCHALARNI SHAKILANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI.

SHahrisabz Davlat Pedagogika instituti

talabasi **Islomov Shohnur**

Ilmiy rahbar :**Hamroyeva Xolida**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalar va innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning, nazariy asoslari va innovatsion texnologiyalarni olib borish. Maktabgacha ta'limga olib kirish afzaliklari va metodlari.

**Tayanch so'zlar:** Iqtisod, bilim, tarbiya, inson, mehnat, innovatsiya, texnologiya.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ilk iqtisodiy bilimlarni berish asosan o'rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berish, ularning mantiqiy fikrlash doiralarini o'stirish, ishbilarmonlik, tejamkorlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

O'rta guruh bolalariga ilk iqtisodiy tushunchalarni berish quyidagi bo'limlar: Inson va uning asosiy ehtiyojlari, inson va iqtisod; Pul, maxsulotlarini sotib olish va ayirboshlash asosida tashkil etiladi. Inson va uning ehtiyojlari haqida tushuncha berishda, inson uchun zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojlar (kiyim- kechak, oziq - ovqat va hokazo) ,tejamkorlik haqida (suvni ,vaqtni tejash), maktabgacha ta'lim muassasalaridagi va uydagi jihozlardan (o'yinchoq kitob va hokazo) tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish vaqt haqida ilk tushuncha berish orqali vaqtni tejash haqida tushunchalar beriladi.

Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida "Non va suv biz uchun aziz " , "Uy-ro'zg'or buyumlari " , "Oshxona buyumlari" kabi mavzularda suhbatlar o'tkaziladi .

Inson va iqtisod haqida tushuncha berishda mehnat inson hayotidagi asosiy faoliyat ekanligi, kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash, o'zbek xalqining milliy hunarmandchiligi, duradgor mehnati, dehqon mehnati haqida qisqacha ma'lumot beradi. Bolalar o'z tarbiyachisi, enaga , oshpaz , haydovchi, bog'bon mehnati bilan tanishtirish jarayonida ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissi shakllantiriladi .

Mehnat qurollariga ehtiyot bo'lib tejamkorona munosabatda bo'lishga tarbiyalanadi. .Atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida

Quyidagi:

”Duradgor mehnatini kuzatish “,”Dehqonlar mehnati haqida “,”Quruvchi” mehnati haqida suhbatlar o’tkaziladi.

Pul-mahsulotlarini sotib olish va ayirboshlash bo’limida bolalarga bozor, uning turlari, sotuvchi, xaridor, bozorda oldi-sotdi ishlarini amalga oshiruvchi vosita -Pul to’g’risida tushuncha beriladi.

Inson va iqtisodiyot bu -Inson shaxsi, sog’liqni saqlash, kattalar mehnati, ularning dam olishlari uchun davlatimiz tomonidan qilinayotgan g’amxo’rliklari haqida tushuncha beriladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasi shifokori va hamshirasi mehnati bilan tanishtirib, bolalar sog’lig’i uchun barcha sharoitlar mavjudligi, fitobarlar tashkil etilganligi, bassen va sog’lomlashtiruvchi jihozlarning bolalar uchun, ularning sog’lom o’sishlari uchun yaratilganligi tushuntiriladi.

Ta’lim sohasidagi islohotlar mazmunida yosh avlodga ilmiy bilimlarni berish ularda keng dunyo qarashni shakllantirish va ma’naviy- ahloqiy sifatlarni tarbiyalashga nisbatan innovatsion uondasguvni qaror toptirish zarurligini ko’rsatmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim va ma’naviy-marifiy ishlarni yuqori samaradorlikka erishish shartlaridan biri - bu- ta’lim muassasalari faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni olib kirish va uni ta’lim jarayoniga olib kirish balki tarbiya jarayoniga olib kirish sanaladi.

Bularning hammasi Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev yaqin besh yildagi maktabgacha ta’lim- tarbiya sohasini isloh qilishga oid bir qator hujjatlarni tasdiqlab, uni amaliyotga tadbiiq berganliklaridan dalolat beradi. Keltirilgan fikrlarga asoslangan holda maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi innovatsion texnologiyalarni olib kirish va uni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatiga tadbiiq etish masalasi hozirgi kunda ham dolzarb masalalardan hisoblanadi.

“Innovatsiya” tushunchasining lug’aviy ma’nosi “ yangilik kiritish “ bo’lib, mantiqan “tizim ichki tuzilishini o’zgartirish” sifatida e’tirof etiladi. Innovatsiya amaliyot nazariyasining muhim qismi bo’lib, ijtimoiy- madaniy ob’yeht sifatlarini yaxshilashga yo’naltirilgan tizimidir. Yangi ijtimoiy munosabatlarning innovatsion xarakterdagi ta’lim dasturlarida aks etishi pedagoglar, o’quvchilar hamda ularning ota-onalari o’rtasida o’zaro hamkorlikning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi.

So'nggi yillarda pedagogik jamoatchilik orasida ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish vazifasini ijtimoiy institutlar

tomonidan amalga oshirishi maqsadga muvofiqligini ifodalovchi qarashlar shakllanadi. Bu esa ta'lim tizimining davlat organlari bilan ijtimoiy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida boshqarilishini anglatadi. Mazkur hamkorlik ijtimoiy tashkilotlarga davlat organlari bilan birgalikda ta'lim muassasalari faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi.

Bunday imkoniyat ta'lim loyihalarini qo'llab- quvvatlash ta'lim muassasalari uchun ajratilayotgan budget taqsimoti, ularning strategiyasini belgilash va ta'lim jarayoniga nisbatan ijtimoiy tasirning yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi. "Innovatsiya" va innovatsion faoliyat tadbiriq etiladi. Shu jihatdan qaraganda har qanday ilmiy- texnikaviy faoliyatni innovatsiya sifatida e'tirof etish mumkin.

Jumladan "Innovatsion faoliyatni ilmiy ijodiyot sohasidagi faoliyatga o'xshatib bo'lmaydi. Chunki har qanday ilmiy -texnikaviy faoliyat o'z tartibiga ko'ra innovatsion hisoblanadi. Aytish mumkinki, barcha yangilik ham ilg'or xususiyatga ega bo'lmaydi.

Ilg'orlik yangiliklarning samaradorligi ifoda etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda innovatsion tushunchalar berilib boriladi. Respublikamiz iqtisodiy mustaqilligini, uning ilmiy salohiyatini saqlab qolish, mustaqil ongli ravishda shaxsiy va ijtimoiy hayotda mas'uliyatli qaror qabul qila oladigan erkin shaxsni tarbiyalamasdan amalga oshirib bo'lmaydi.

Bugungi kunda siyosat va ta'limning o'zaro aloqasi hamda hamma uchun ochiq. Har qanday taraqqiy jamiyatning iqtisodiy, intellektual madaniy, ma'naviy , axloqiy salohiyati uning mazmuni va yo'nalishiga bog'liq.

Bozor iqtisodiyotini shakllanishi va zamonaviy o'zbek jamiyatining rivojlanishi sharoitida yosh avlodning iqtisodiy tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy yangi iqtisodiy sharoitlar maktabgacha yoshdagi mustaqil, faol , mehnatkash shaxslarni tarbiyalash zarurligini belgilaydi.


**Xulosa:** Mazkur iqtisodiy ta'lim darajasini maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda shakllantirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin : Interviyular, shaxsiy suhbatlar, kuzatish ularga odamlarga pul nima uchun kerak, reklama nima uchun qilinadi, nega kitob ,o'yinchoq buyumlar kerak

kabii savollar bilan murojat qilish orqali .Bolani iqtisodiy tafakkurini aniqlash mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki , bolaning kelajak hayotidagi faolligi ularning farovon va to'kin yashashi haqidagi tasavvurlari, bilim , malaka va ko'nikmalari kichik yoshdan shakllantirib borish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Mavlonov A. Barkamol inson tarbiyasi.-T.O'qituvchi, 1995.
- 2.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi .Nasaf, 2000
- 3.Internet ma'lumotlari.



## PEDAGOGNING TADBIR TASHKIL ETISH TEXNIKASI.

**G'aybullayev Ruslan Asliddinovich**

*Osiyo Xalqaro universiteti talabasi.*

### **Annotatsiya**

Jamiyat hayotida muhim o'rin egallagan ommaviy tadbirlar va bayramlar insonga ma'naviy ozuqa va ma'rifiy tarbiya beruvchi asosiy vositadir. Albatta har bir buyum va texnikani texnologiyasi bo'lgani singari ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ham o'ziga xos texnikasi mavjud.

**Kalit so'zlar:** Badiat, texnika, dekoratsiya, musiqiy jilo, ssenariy, auditoriya

Madaniy tadbirlar kishilarning ishdan bo'sh vaqtda ularga kerakli axborotlar berish, badiiy-estetik zavqlantirish, madaniy-ijodiy ishga jalb qilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun yordam beradi. Bu tadbirlar, asosan, og'zaki jurnal, klub kechalari, badiiy kompozitsiya, badiiy agitb rigada va disko klub programmalari, teatrlashtirilgan kontsert va tomoshalar, xalq an'analari, ommaviy bayramlar va sayllar kabi shakllardan tashkil topadi. Badiiy-ommaviy tadbirlar o'z ichiga madaniy-ma'rifiy muassasalarning asosiy va ko'p shakllarini qamrab oladi. Madaniy tadbirlarning eng afzallik tomoni shundaki, ular o'zida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini ko'proq mujassamlashtiradi. Jumladan, ularda agitatsiya va propaganda ishi, havaskorlik ijodi, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil qilish kabi faoliyatlar birlashib ketadi. Badiiy-ommaviy tadbirlarning har bir shakli ommaviy bayramlar, an'anaviy marosimlar, teatrlashtirilgan tomoshalar, murojaat ularda agitatsiya-propaganda xarakteridagi mazmunni, havaskorlik ijodining natijalarini, badiiy-estetik zavqlanish va hordiq chiqarish uchun yaratilgan qulayliklarni yaqqol sezish mumkin. SHu sababli, badiiy-ommaviy tadbir madaniy-ma'rifiy muassasalardagi barcha faoliyatning umumlashtirilgan ko'zgidir. Madaniy tadbirlarni amaliy tashkil qilish nazariya va metodika asosida konkret ish shakllarini ijodiy uyushtirishdir. Amaliy ishga kirishish – bu uchinchi jarayondir. Bilamizki hozirgi davrni texnikalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi, shu o'rinda ommaviy tadbirlarda ham qo'llaniladigan texnikalar ham muhim ahamiyatga ega. Har xil rangli chiroqli musiqalar, dizayn, ovoz kuchaytirgich moslamalari, suniy tutunlar, suniy olovlar, perotexnikalar tadbirning saviyasini oshirishga yordam beruvchi asosiy vositadir. Oddiy tadbirdan farqli o'laroq texnika qo'llangan tadbirda saviya yuqori bo'ladi. Ommaviy tadbir o'tkazilishini, jamoat tartibi, tomoshabinlar va qatnashchilarning xavfsizligi muhofazasi ta'minlanishini murakkablashtiruvchi hamda tadbir boshlangunga qadar bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar aniqlangan taqdirda ishchi guruhlar komissiyaga mazkur tadbirni o'tkazishni keyinroq muddatga qoldirish, uni tomoshabinlarsiz o'tkazish yoxud ommaviy tadbirni bekor qilish to'g'risida takliflar kiritadilar. Komissiya ommaviy

tadbir tashkilotchilari va obyekt ma'muriyati vakillari ishtirokida ommaviy tadbir o'tkazilishigacha o'ttiz olti soatdan kechikmay tegishli qaror qabul qiladi. Ommaviy tadbirlarni tashkil etishda xavfsizlik maqsadida tez yordam, yong'in xavfsizligi, qo'riqlash maqsadida milliy gvardiya xodimlarini, ichki ishlar xodimlarini chaqirtirish zarur bo'ladi. Ommaviy tadbirlar auditoriyasini munosib tashkil qilishdagi asosiy vosita piar va yani reklama hisoblanadi. Ommaviy tadbirlar bo'ladigan kundan kamida 1 oy oldin o'sha tadbirni reklama bannerlari chiqartirilib, online reklamalar ham qilish lozim. Bir qator ommaviy tadbirlar bir turdagi dastur bo'yicha aynan bitta ommaviy tadbirni o'tkazish obyektida aynan bitta ommaviy tadbirning tashkilotchisi tomonidan o'tkazilgan taqdirda (kinoseanslar, teatr spektakllari, sirk tomoshalari va shu kabilar) ommaviy tadbir ishtirokchisining arizasiga ko'ra vakolatli organ tomonidan ommaviy tadbirlarning umumiy sonini ko'rsatgan holda, bir yilgacha amal qilish muddati bilan, bir qator ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun yagona ruxsatnoma berilishi mumkin. Qonun bo'yicha bunday ommaviy tadbirlarda ruxsatnoma olinishi kerak. Ruxsatnoma olmasdan, shuningdek jamiyatning axloqiy asoslarini, umuminsoniy qadriyatlarni buzishga qaratilgan, konstitutsiyaviy tuzumni noqonuniy o'zgartirish yoki O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini buzish, urush, zo'ravonlik va shafqatsizlik, ijtimoiy, irqiy, millatchilik va diniy adovatni qo'zg'ash, qonunda taqiqlangan boshqa harakatlarni sodir etish maqsadidagi ommaviy tadbirlarni o'tkazish taqiqlanadi. Xulosa qilib aytganda tashkil etiladigan ommaviy tadbirlar reja asosida, qulay ssenariy asosida, qonun qoidalar asosida tashkil qilinsa bunday tadbirning saviyasi har tomonlama yuqori bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "O'zbekiston madaniyati" Usmon Qoraboyev, G'ayrat Soatov, Toshkent 2011
2. "Madaniyat va San'at sohasini boshqarish asoslari" A. Haydarov.
3. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali
4. Сайфуллаева, Н. Б. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ КЛАССНЫХ УРОКОВ. Вестник науки и образования, (15-3 (118)), 40-42.
5. Sobirovna, S. Y. (2023). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(4), 160-166.
6. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ. In НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 10-12).
7. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ КОМПЬЮТЕРНЫМ НАУКАМ. Universum: технические науки, (4-1 (109)), 41-43.

8. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ МАТЕМАТИКИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ: Сайфуллаева Нозима Баходировна, преподаватель кафедры “Теория начального образования”, Бухарский государственный университет. Город Бухара. Республика Узбекистан. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1), 305-307.
9. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). Методы Организации Уроков Математики В Начальных Классах С Использованием Цифровых Технологий. *Miasto Przyszłości*, 35, 388-390.
10. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). РОЛЬ МАТЕМАТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. *PEDAGOGS journali*, 1(1), 292-292.
11. Сайфуллаева, Н. Б. (2019). Роль дидактических игр в умственном развитии учащихся в математике начального класса. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILISOPHY, PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY* (pp. 102-106).
12. Сайфуллаева, Н. Б., & Марданова, Ф. Я. (2021). НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ВЫСШЕЙ МАТЕМАТИКЕ. *Проблемы науки*, 84.
13. Сайфуллаева, Н. Б. (2020). Важные особенности дидактических игр в процессе обучения математике в начальных школах. In *ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ* (pp. 60-62).
14. Сайфуллаева, Н. Б., & Мурадова, Я. М. (2020). Пути эффективного использования методов обучения математике в начальных классах. In *EUROPEAN RESEARCH* (pp. 121-123).
15. Сайфуллаева, Н. Б. (2022). Методы определения потребностей обучающихся в процессе использования облачных технологий в образовании. *Universum: технические науки*, (2-1 (95)), 57-59.
16. Сайфуллаева, Н. Б., & Саидова, Г. Э. (2019). Повышение эффективности занятий, используя интерактивные методы в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 101-102.
17. Bahodirovna, S. N. (2023). KINDERGARTEN, SCHOOL AND FAMILY PARTNERSHIP IN TEACHING CHILDREN IN MATHEMATICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 383-388.
18. Bahodirovna, S. N. (2023). FORMING CHILDREN'S IDEAS ABOUT THE SIZE OF OBJECTS AND THEIR MEASUREMENT. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 102-107.
19. Bahodirovna, S. N. (2023). Organization Forms of the Development of Primary Mathematical Concepts in Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 138-143.
20. Сайфуллаева, Н. Б. (2023). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *Проблемы педагогики*, (2 (63)), 15-17.

21. Ruziyeva, M. Y. (2020). About color symbols in folklore. *Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125 VOL, 7*.
22. Ruziyeva, M. Y., & Aslonova, S. S. (2021). Theoretical and Practical Foundations of Teaching Folklore In Primary School. *Middle European Scientific Bulletin, 10*.
23. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
24. Yoqubovna, R. M. (2017). Expression of Attitude to Colors in Turkic National Ritual Songs. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 6(1)*, 54-68.
25. Yokubovna, R. M. (2020). About color symbols in folklore. *JCR, 7(17)*, 461-466.
26. Ruziyeva, M. Y., & Lobar, S. (2023). Lyro-epic literary fairy tales in uzbek children's literature.
27. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(6)*, 47-51.
28. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). COLOR SYMBOLISM IN UZBEK FOLKLORE. *Theoretical & Applied Science, (5)*, 277-284.
29. Ruzieva, M. Y. (2022). SYMBOLISM OF MYTH, SYMBOL AND COLOR. *Ann. For. Res, 65(1)*, 2719-2722.
30. Ruzieva, M. (2016). Colour and its psychoanalytical interpretation in folklore. *Язык и культура (Новосибирск), (23)*, 127-130.
31. Ro'ziyeva, M. Y. (2020). Color symbolism in Uzbek folklore. *ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85)*, 277-284.
32. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(6)*, 47-51.
33. Ro'ziyeva, M. Y. (2021). O'qish darslarida fasllar bilan bog'liq matnlar va ularning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.86. 66.011 Ro 'ziyeva MY, Boshlang 'ich ta'lim nazariyasi kafedrası mudiri, fffd (PhD) Madinabonu Xayrulloeva, BuxDU, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi. In *Научно-практическая конференция* (pp. 23-24).
34. Ro'ziyeva, M. (2021). FOLKLORSHUNOSLIKDAGI YANGI BOSQICHLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI: Mohichehra Ro'ziyeva, BuxDu Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası mudiri, PhD, dotsent. In *Научно-практическая конференция* (pp. 21-22).
- 35.
36. Jalolov, T. S. (2023). MATH MODULES IN C++ PROGRAMMING LANGUAGE. *Journal of Universal Science Research, 1(12)*, 834-838.
37. Jalolov, T. (2023). UNDERSTANDING THE ROLE OF ATTENTION AND CONSCIOUSNESS IN COGNITIVE PSYCHOLOGY. *Journal of Universal Science Research, 1(12)*, 839-843.



38. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. *Modern Science and Research*, 2(9), 390-394.
39. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(6), 1223-1226.
40. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. *Modern Science and Research*, 2(5), 1009-1014.
41. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O'RNI. *Экономика и социум*, (12-2 (103)), 675-678.
42. Ikromova, S. A. (2023). SHAXS OG 'ISHGAN XULQINING KO 'RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO 'RINISHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 528-532.
43. Akbarovna, I. S. (2023). YOSHLARDA DESTRUKTIV G'OYALARGA QARSHI IMMUNITET HOSIL QILISH OMILLARI.
44. Akbarovna, I. S. (2023). TALABA YOSHLARDA MAFKURA TUSHUNCHASI VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH.
45. Akbarovna, I. S. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH.
46. Akbarovna, I. S. (2023). DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH IJTIMOY MUAMMO SIFATIDA. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 1(6), 26-29.
47. Akbarovna, I. S. (2023). MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.
48. Sitora Akbarovna Ikromova. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599), 1(9), 50-54.
49. Akbarovna, I. S. (2023). Study of the Formation of Ideological Immunity By Foreign and Russian Researchers. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 235-239.

**Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish (monolog nutqqa o'rgatish)**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

1-22-guruh talabasi

**Jo'rayeva Mohinur Yoqub qizi**

Tel: 90 745 33 27

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarni dunyoqarashini kengaytirish, ularni o'zi yashab turgan dunyo haqida ma'lumot berish uchun dastlab, ertak aytib berish. So'ng esa bolajonlarga hikoya tuzishni o'rgatish. Bolalarni fikrlash dunyosini kengaytirish, o'zi mustaqil fikr yuritishga, tengdoshlari oldida o'z fikrini bayon qilishga o'rgatish.

**Kalit so'zlar:** hikoya, ertak, monolog nutq, qayta hikoya qilib berish, qobi lyat, ta'lim-tarbiya

Hikoya qilib berishni o'rgatish vazifasi ilk yosh guruhlarida asta – sekin qiyinlashtirilib boriladi- yaxshi tanish ertaklar, hikoyalarni aytib berish, yangi o'qib chiqilgan asarlarni aytib berish, hikoyachi shaxsini o'zgartirgan holda (birinchi nomidan va aksincha) aytib berish, tarbiyachi rejasi asosida aytib berish, bolalar bilan birgalikda tuzilgan reja asosida aytib berish, o'xshashlik asosida (analogiya bo'yicha) aytib berish (qahramonni, mavsumni o'zgartirish va h. k.)

Sahnalashtirgan holda aytib berish (o'yinchoqlar siluetlar), bolalar tanlovi bo'yicha aytib berish. Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta guruhlarida bolalarning nutqi qay darajada shakllanganligini aniqlab, maxsus topshiriqlar ro'yxatini ishlab chiqiladi, har bir bola bilan yakka tartibda mashg'ulot olib boriladi.

1 – topshiriq bolaga tavsiya etilgan ertak yoki hikoyani qayta hikoya qilib bera olishini aniqlash. "Zumrad va Qimmat", "Bo'g'irsoq", "Ikki echki", "Ur to'qmoq", "Echki bolalari", "Toshbaqa bilan chayon" kabi ertak va hikoyalardan uchtasini taklif etiladi. Bola ertakni eslay olmasa, unga shu ertaklarga ishlangan rasmlar havola qilinadi.

Bolalar hikoyasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilanadi:

- hikoyani mustaqil bayon qilish (kattalarning yorsdamisiz):
- matn mazmunining to'liqligi:
- matnni bayon qilishda izchillik:
- ifoda vositalaridan foydalanish ko'nikmasi:
- nutqning ravonligi.

Tevarak –atrofdagi narsa –predmetlarga oid matnni qayta hikoya qilib berishda bolalar nutqida quyidagi kamchiliklar uchrashi mumkin:

-bolalar ertakni yordamchi savollar bermasdan turib mustaqil hikoya qila olmaydi;

- matndagi so'zlarga taqlid qilib so'zlaydi;
- ba'zi muhim voqealarni tushirib qoldiriladi;
- bir oz to'xtab –to'xtab hikoya qiladi, nutqda uzilish bo'ladi;
- nutqda ifodalilik yetishmaydi;
- bir xil tezlikda ,bir xil tovushda hikoya qiladi;
- o'zicha ba'zi so'zlarni qo'shib, ma'nosiz hikoya qiladi;
- kattalar yordami vositasida hikoya qiladi;
- hikoya qilish jarayonida matn ma'nosini o'zgartirib yuboradi;
- mantiqiy izchilikka rioya qilmaydi.

Bolalarga “ Mehmonda “,” Uycha”,” Maktabga yo'l” mavzulari va ularga ishlangan rasmlar tavsiya etiladi. Hikoya qilish jarayonida yo'l qo'ygan xatolari va yutuqlari aniqlanadi.

Mazkur bog'chalarda bolalarning nutqini kuzatganda quyidagilar asosiy mezon sifatida olinadi:

- Tavsiya etilgan matnni hikoya qilishda voqeani kattalarning yordamisiz , mustaqil bayon eta olishi;
- Matn mazmunini bayon qilishda izchilikka rioya qilishi;
- Ifoda vositalaridan foydalana olishi ;
- Nutqning ravonligi, tezligi;
- Jummalarning Grammatik jihatdan to'g'ri tuzilganligi ;
- Nutq madaniyatiga rioya etilishi.

Bolalar nutqini o'rganishning eng qulay usuli, shubhasiz, suhbat metodi hisoblanadi. Shuningdek, bolalarning tevarak -atrofda mavjud bo'lgan narsalarni kuzatish va ularni tahlil etish , ular haqida sayrlarda uyushtirilgan savol - javoblar ham muhimdir. Shu bilan birga , bolalarning bog'lanishli nutqni o'rganishda ularning tarjimai holi yuzasidan olib boriladigan kuzatishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Monolog nutq dialog nutqqa nisbatan ancha murakkab bo'lib, bu bitta odam tomonidan amalga oshiriladigan nutqdir. Monolog nutqda bitta kishi gapiradi, qolganlar esa tinglaydilar. Monolog nutq ko'pchilikka qarata aytiladigan nutq bo'lgani uchun , u har doim mantiqiy jihatdan izchil , Grammatik jihatdan shakllangan ,hammaga tushunarli va ravon bo'lishi kerak.

Monolog nutq yaxshi xotirani , nutqning shakl va mazmuniga diqqatni yo'naltirishni talab etadi. Shuning bilan birga bir vaqtda , monolog nutq tafakkurga tayanadi.

Monolog nutq lingvistik (tilshunoslik) tomonidan ham murakkab hisoblanadi. Monolog nutq tinglovchilarga tushunarli bo'lishi uchun yoyiq gaplardan, aniq lug'atdan foydalanishi kerak.

Hikoya qila olish qobiliyati kishilarning muloqotda bo'lish jarayonida katta rol o'ynaydi. Bola uchun esa qobilyat bilish vositasi , o'z bilimlarini , tasavvurlarini tekshirish vositasi hisoblanadi.

Bolalarda monolog nutqning shakllanishi ularda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari , bola nutqi monolog nutqqa aylanishi uchun u tilning lug'atini va Grammatik tomonini erkin egallagan bo'lishi kerak.

Ruhshunoslarning aytishicha , bolalar monolog nutq besh yoshdan boshlab paydo bo'ladi.

Ruhshunos D.B. Elkanin bu haqda shunday yozadi; Bola hayot tarzining o'zgarishi , kattalar bilan yangi munosabatlarning va yangi turdagi faoliyaning shakllanishi nutq shaklini va uning vazifasini (xizmatini ) farqlashga olib keladi. Muomalaning yangi vazifalari vujudga keladi, bola o'z taassurotlarini , kechinmlarini , rejalarini kattalarga yetkazishga harakat qiladi. Nutqning yangi shakli- monolog tarzida xabar qilish, ko'rgan va eshitganlari to'g'risida hikoya qilish paydo bo'ladi. Bolalarni hikoya qilishga o'rgatish jarayonida barkamol tarbiya berishning xilma-xil masalarini hal qiladi, aqliy rivojlanish rivojlanoshga yordam beradi. Hikoya qilib berishda mantiqiy tafakkur , diqqat rivojlanadi.

Nutq grammatik jihatdan shakllangan bo'lib, o'zini tutish, jamoa oldida so'zga chiqish malakasi hosil bo'ladi. Shu munosabat bilan bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish bo'yicha har bir yosh guruhlariga ish vazifalari va mazmuni belgilab berilgan. Bu guruh bolalarini tanish hikoya va ertaklarini (tarbiyachining savollari va kitobdagi rasmlar hamda mustaqil o'zlari so'zlab berishga o'rgatadi.

O'yinchoq, buyum va rasm mazmuni bo'yichabo'yicha gaplarni ( 3-4 ta gapdan iborat takrorlash ko'nikmasi hosil bo'ladi va shu orqali bolada turli xildagi hikoyalarni aytib berish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

O'rta guruhda hikoya qilishga o'rgatish vazifalari va mazmuni biroz murakkablashadi. Ushbu guruh bolalari bilan birinchi yarim yillikda aytilgan

hikoyalarini qayta so'zlab berishlari talab qilinadi va asar qahramonlarining so'zlarini ifodali qilib aytishlari o'rgatib boriladi.

Mashg'ulotlarda birinchi o'qib berilgan kichik ertak va hikoyalarning mazmunini qayta hikoya qilishlari, tengdoshlari hikoya qilayotganda tinglab o'tirishlari, bir - birlarini hurmat qilishlari undan tashqari turli xildagi buyum, narsa, o'yinchoqlar va yil fasllari haqida so'z borganda, (tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berib, shular asosida hikoya qilishlari o'rgatib boriladi.

Ikkinchi yarim yillikda esa bolalarga tanish ertak va hikoyalarni tinglashi, ularda ishtirok etuvchi qahramonlarning gaplariga, o'ziga xos xususiyatlarni tushunishga, asar mazmunini hikoya qilib berayotgan o'rtoqlarining nutqiga diqqat bilan e'tibor berishi asar mazmunini qayerini buzib aytayotganiniga e'tibor berishi davom ettirib boriladi. Katta va maktabgacha tayyorlov guruhidagi bolalar uchun "Nutq o'stirish" bo'limida bolalarni hikoya qilishga o'rgatish yuzasidagi olib boriladigan ishlar. Ularning mazmuni quyidagicha olib boriladi:

Birinchi yarim yillik. Badiiy asarni qayta hikoya qilish malakasini o'stirish. Adabiy asarlarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy, ifodali hikoya qilishga o'rgatish. Tarbiyachi qayta hikoya qilishni o'rgatayotganda bolalar diqqatini ayniqsa, ertakning boshlanmasi, qayta takrorlanib kelayotgan parchalarga, xulosa qismiga esa ertak qahramonlarning nutqiga alohida e'tibor berish lozim.

Bolalar asar voqealarni so'zlayotganda ovoz ohangining xilma-xili turlarini (xursand, iltimos, hayajonlanish, hayratlanish) kabi holatlariga e'tibor berishi lozim.

Bolalar o'yinchoq va buyumlar haqida hikoya tuzishni o'rgatayotganda o'yinchoqlarga ta'rif berib, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib, ularning (rangi, shakli va qanday o'ynalishi va boshlar) haqida aniq so'zlab berishlarini lozim bo'ladi.

#### Ijodiy hikoya qilish

Bolalarni tarbiyachi tomonidan belgilangan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, qisqa, lo'nda jumlar tuzishga, tasviriy faoliyatga o'rgatiladi.

Bolalarning shaxsiy tajribalari va tarbiyachi taklif etgan hayotiy voqealar asosida mantiqiy fikrlovchi kichik ertak va hikoya tuzishadi: "Bizning oila", "Dam olish kuni", "Mehmonda", "Dadamga qarashdim", "Eng yaqin o'rtog'im" va boshqalar.

Bolalar tuzayotgan ertak va hikoyalarda ishtirok etuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalarini bilishga o'rgatish: "Birinchi qor", "Yaxmalak", "Yangi yil bayrami", "Qorbobo", "Men sevgan fasl", "Tashqarida qor, uyimizda bahor", "Men onamga yordamchi" va boshqalar.

Bolalarga suratlar bo'yicha hikoya tuzishga o'rgatayotganda avvalo ularning mustaqil fikrlashga, suratda ko'rsatilgan mavzu bo'yicha fikr bildirishlariga, bundan

tashqari, rasmda aks etgan voqea asosida ilgari nima bo'lgan va keyin nima bo'ladi. Tabiat manzaralarini aks ettirilgan suratga qarab esa tabiatning qanday go'zalligini, nafisligini tashirin so'zlar orqali ifodalash, o'xshatish va sifatlash.

Xulosa

Biz endigina o'sib, unayotgan niholning asta-sekin o'sib unishi uchun uni yaxshilab parvarish qilishimiz lozim bo'ladi. Endigina o'sib kelayotgan yosh avlodni esa ularga yoshligidan e'tibor qaratishimiz lozim. Bu ishda esa maktabgacha ta'lim tashkiloti asosiy rol o'ynaydi. Ya'ni bunda bolajonlarimizga istalgan suratimizni ko'rsatib shu haqida hikoya tuzib ber desak, tuzib berolmasligi mumkin. Shu uchun asta-sekinlik bilan olib boriladi. Dastlab, ertak va kichik hikoyalar o'qib beriladi. So'ngra shu ertak va hikoyalarni qayta hikoya qilib berishlari talab qilinadi va o'rgatiladi. Shu asosida asta-sekin olib boriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari:.- 2018.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi " 2017-2021 " yillardagi maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ 2707 son qarori- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami"- 2018yil 16 yanvar.
- 3.Falsafa qomusiy lug'at. T. -Sharq. NMAK. 2004 -4921
- 4.O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbek milliy ensiklopediyasi".Davlat milliy nashriyoti. 2006 -3075.
- 5.Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi -konsepsiya :2030.

**ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALARNI TREND  
MODELLARI YORDAMIDA PROGNOZLASH  
(Surxondaryo viloyati misolida)**

**M.H.Tulaganova**

Termiz davlat universiteti talabasi

i.f.f.d. (PhD) **B.E.Turayev**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi eksponentsial, chiziqli, logarifmik, 2-darajali polinom, darajali trend modellari yordamida modellashtirilgan hamda 2028 yilga qadar prognoz qiymatlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** eksponentsial, chiziqli, logarifmik, 2-darajali polinom, darajali, trend, model.

Ma'lumki, modellashtirish deganda modellarni qurish, o'rganish va qo'llash jarayoni tushuniladi. Modellashtirish jarayoda quyidagi uch element ishtirok etadi:

- 1) sub'ekt (tadqiqotchi);
- 2) tadqiqot ob'ekti;
- 3) o'rganuvchi sub'ekt bilan o'rganilayotgan ob'ektning munosabatlarini vositalovchi model.

Ekonometrik model – bu ehtimollik - stoxastik model, tajribalarda keng foydalaniladigan prognozlash modellaridan biri hisoblanadi. Bu model yordamida iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zgarish qonuniyatlarini matematik ko'rinishida tenglamalar, tengsizliklar va tenglamalar tizimi ko'rinishda ifodalash mumkin. Umumiy ko'rinishida ekonometrik model quyidagicha yoziladi:

$$y = f(x_1, x_2, \dots, x_n)$$

Ekonometrik modelda  $Y$  – asosiy endogen ko'rsatkich, modelda  $Y$  o'zgarish qonuniyatlarini  $(x_1, x_2, \dots, x_n)$  yordamida o'rganish mumkin.  $(x_1, x_2, \dots, x_n)$  – ta'sir etuvchi, ekzogen ko'rsatkichlar.<sup>41</sup>

Odatda ekonometrik modellashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Birinchi bosqich - spetsifikatsiyalashtirish bosqichi – iqtisodiy muammoni qo'yilishi – asosiy omillar guruhi tanlanadi, iqtisodiy ma'lumot to'planadi, asosiy omil va ta'sir etuvchi omillar guruhi belgilanadi; korrelyatsion tahlil usuli yordamida ekonometrik modelda qatnashadigan omillar aniqlanadi.

<sup>41</sup> Axmedov R.M. Ekonometrika-2. O'quv-uslubiy majmua. Namangan, 2022

2. Ikkinchi bosqich - identifikatsiyalash bosqichi - «Eng kichik kvadratlar usuli» yordamida tuziladigan ekonometrik modelning parametrlari aniqlanadi.

3. Uchinchi bosqich - verifikatsiyalash bosqichi. Tuzilgan modelni ahamiyati to'rtta yo'nalish bo'yicha tekshiriladi:

- modelning sifati ko'plikdagi korrelyatsiya koeffitsienti va determinatsiya koeffitsienti yordamida baholanadi;

- modelning ahamiyati approksimatsiya xatoligi va Fisher mezoni yordamida baholanadi;

- modelning parametrlarini ishonchliligi Student mezoni bo'yicha baholanadi;

- Darbin-Uotson mezoni yordamida «Eng kichik kvadratlar usulining» bajarilish shartlari tekshiriladi.

4. To'rtinchi bosqich - prognozlash. Tuzilgan va baholangan ekonometrik model yordamida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar prognoz davriga hisoblanadi.<sup>42</sup>

Tadqiqot mavzumiz doirasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni 2023-2028 yilga uchun prognoz qiymatlarini aniqlaymiz. Buning uchun quyidagi trend modellari yordamida tadqiq etilayotgan ko'rsatkichlarni tajriba qilamiz<sup>43</sup>:

- $y = a + bt$  - chiziqli trend modeli;

- $y = ae^{bt}$  - eksponentsial trend modeli;

- $y = a + b_1x + b_2x^2$  - 2-darajali polinom;

- $y = at^b$  - darajali;

- $y = a + blnt$  - logarifmik trend tenglamalari.

Dastlabki bosqichda o'rganilayotgan ob'ekt ma'lumotlarni [www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz) Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy saytidan 2018-2022 yillar ma'lumotlari olindi. (1-jadval)

1-jadval

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (mlrd so'm).<sup>44</sup>**

Yillar	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
2018	1826,9
2019	2536
2020	2918,1

<sup>42</sup> Axmedov R.M. Ekonometrika-2. O'quv-uslubiy majmua. Namangan, 2022


<sup>43</sup> Panjiyeva M.M., Turayev B.E. Surxondaryo viloyati asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini trend modellari orqali modellashtirish. //Journal of Universal Science Research. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 296-302.

<sup>44</sup> Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy sayti [www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz) ma'lumotlari




2021	4050,4
2022	3766,6

Keyingi bosqichda modelni parametrlashtiramiz. Buning uchun Microsoft Exceldan foydalanamiz. 1-jadvaldagi barcha raqamlarni Excel dasturiga kiritib, “Вставка – Диаграмма – Точечная – Точечная” yo`li orqali nuqtalarni koordinatada joylashtiramiz (1-rasm).




1-rasm. Nuqtalar joylashuvi<sup>45</sup>.

Istalgan nuqtaning ustida sichqonchanning o`ng tugmasini bosib, paydo bo`lgan menyudan “Добавить линию тренда” ni tanlaymiz. Natijada bir necha eksponentsial, chiziqli, logarifmik, 2-darajali polinom va darajali trend modellarini tuzish imkoniga ega bo`lamiz.




2- rasm. Eksponensial trend modeli<sup>46</sup>.


<sup>45</sup> Muallif ishlanmasi.



3-rasm Chiziqli trend modeli<sup>47</sup>.



4-rasm Logarifmik trend modeli<sup>48</sup>.




<sup>46</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>47</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>48</sup> Muallif ishlanmasi.

5-rasm 2-darajali polinom trend modeli<sup>49</sup>.



6-rasm Darajali trend modellari<sup>50</sup>.

Shunday qilib, barcha turdagi modellarni tuzib oldik. Endi ularning sifatini va ahamiyatligini tekshirib ko'ramiz (2-jadval).

2-jadval

Regression tahlil natijalari.<sup>51</sup>

T/r	Model turi	Model tenglamasi	Determinatsiya koeffitsienti
1	Eksponentsial	$y = 1634,3e^{0,1915t}$	0,8914
2	Chiziqli	$y = 539,38t + 1401,5$	0,885
3	Logarifmik	$y = 1352,2\ln(t) + 1724,8$	0,8986
4	Polinomli	$y = -88,257t^2 + 1068,9t + 783,66$	0,9182
5	Darajali	$y = 1815t^{0,4906}$	0,9447

2-jadvaldan darajali trend modeli bo'yicha determinatsiya koeffitsienti eng katta. Demak, model sifati boshqalarga qaraganda yuqori. Modelning ahamiyatini Fisher mezoni bilan va parametrlari statistik ishonchligini Styudent t mezoni bilan tekshiramiz (3-jadval).

3-jadval

<sup>49</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>50</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>51</sup> Muallif ishlanmasi

**Regression tahlil natijalari.<sup>52</sup>**

ВЫВОД ИТОГОВ					
Регрессионная статистика					
Множественный R	0,971952662				
R-квадрат	0,944691978				
Нормированный R-квадрат	0,926255971				
Стандартная ошибка	0,087103978				
Наблюдения	5				
Дисперсионный анализ					
	<i>df</i>	<i>SS</i>	<i>MS</i>	<i>F</i>	<i>Значимость F</i>
Регрессия	1	0,388775899	0,388775899	51,24167932	0,005614819
Остаток	3	0,022761309	0,007587103		
Итого	4	0,411537208			

	<i>Коэф-фициенты</i>	<i>Стандартная ошибка</i>	<i>t-статистика</i>	<i>P-Значение</i>	<i>Ниж-ние 95%</i>	<i>Верхние 95%</i>
Y-пересечение	7,50386	0,076310	98,3344	2,318E-06	7,2610	7,74671
Int	0,49057	0,06853	7,15833	0,0056148	0,27247	0,70866

Verifikatsiyalashda Fisherning F mezoni qo'llaniladi. **Fisherning F mezoni** yordamida to'liq modelning adekvatligini, ya'ni real iqtisodiy jarayonga mosligini tekshirish mumkin:

$$F_{his} = \frac{\sum(\hat{y} - \bar{y})^2 / m}{\sum(y - \hat{y})^2 / (n - m - 1)} = \frac{R^2(n - m - 1)}{(1 - R^2)m}$$

3-jadvalga ko'ra, Fisher F mezoni qiymati 51,24167932. Bu qiymat jadval qiymatidan katta. Shuningdek, parametrlarining Student t mezoni bo'yicha qiymatlari esa 98,33 va 7,15 ga teng.

Studentning t mezoni: Mazkur mezon Student taxallusli ingliz matematigi Uilyam Gosset tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu taqsimot kichik tanlamalar uchun maxsus belgilangan.

4-jadval

**Prognoz qiymatlar.<sup>53</sup>**

<sup>52</sup> MS Excelda muallif tomonidan shakllantirildi

<sup>53</sup> MS Excelda muallif tomonidan shakllantirildi.

n	y	t	lny	lnt	$\hat{y}$	MAPE
2018	1826,9	1	7,5	0,0	1815,044	0,00649
2019	2536	2	7,8	0,7	2550,13	0,005572
2020	2918,1	3	8,0	1,1	3111,334	0,066219
2021	4050,4	4	8,3	1,4	3582,922	0,115415
2022	3766,6	5	8,2	1,6	3997,405	0,061277
2023		6			4371,413	
2024		7			4714,804	
2025		8			5033,992	
2026		9			5333,426	
2027		10			5616,339	
2028		11			5885,173	

**O'rtacha approksimatsiya xatoligi** quyidagi formula yordamida hisoblanadi (Mean Absolute Percentage Error):

$$MAPE = \frac{1}{n} \sum \left| \frac{y_i - \hat{y}_i}{y_i} \right| \cdot 100\%$$

Hisob-kitoblar natijasida MAPE=5,099% ga tengligi aniqlandi. Demak, model iqtisodiy jarayonga mos.

Appoksimatsiya xatoligi 10% gacha qabul qilinadi. 5-7% gacha bo'lgan approksimatsiya xatoligi modelning dastlabki ma'lumotlarga juda yaxshi mos kelishini ko'rsatadi. MAPE qiymatlari uchun ruxsat etilgan chegara 8-10% dan oshmaydi (8-15% ham ruxsat etiladi).

Agar  $MAPE < 10\%$  bo'lsa model yuqori aniqlikda,  $10\% < MAPE < 20\%$  - bo'lsa model yaxshi,  $20\% < MAPE < 50\%$  - bo'lsa model qoniqarli,  $MAPE > 50\%$  bo'lsa model qoniqarsiz o'rnatilgan bo'ladi.


Shunday qilib, Surxondaryo viloyati 2018-2022 yillar bo'yicha asosiy vositalarga kiritiladigan investitsiyalar tahlili bo'yicha trend modeli umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$\hat{y} = 1815t^{0,4906} \quad (1)$$

Bu modelga ko'ra 2028 yil kelib asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 5885,173 mlrd so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bu esa 1,56 barobar oshishini bildiradi. 2024-2028 yillarda o'rtacha o'sish 107,79% foizni tashkil etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov R.M. Ekonometrika-2. O`quv-uslubiy majmua. Namangan, 2022
2. Panjiyeva M.M., Turayev B.E. Surxondaryo viloyati asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini trend modellari orqali modellashtirish. //Journal of Universal Science Research. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 296-302.
3. Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy sayti [www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz) ma'lumotlari



## MAXSAR (*CARTHAMNUS TINCTORIUS* L.) O'SIMLIGI VA UNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

**Jo'rayeva Gulmira Shuhratjon qizi**

Chirchiq davlat pedagogika unversiteti biologiya yo'nalishi II-bosqich talabasi,

[gjurayeva83@gmail.com](mailto:gjurayeva83@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maxsar o'simligi oziq-ovqat sanoati va yengil sanoat uchun qimmatbaho xom ashyo manbai hisoblanadi, undan olinadigan moy kungaboqar moyidan mutlaqo farq qilmaydi. Bargi va novdasidan esa kartamin pigmenti borligi uchun sariq va qizil bo'yog' olish va chorva hayvonlari uchun oziqbob mahsulot olish mumkin. Kasmetalogiyada urug'i, yog'I va quruq mahsulotlari qo'llaniladi. Gul qismidan shikastlangan sochlar, quyoshdan himoya qilish, davolash va oldini olishda va terini lipid qatlamini tiklash uchun qarishga kurashda va antioksidant xususiyati ekanligi, gullariga ishlov berilganda tarkibida glikozidlarni mavjudligi glikozidlar qandli diabet uchun qo'llaniladi [1].

**Kalit so'zlar:** *Carthamnus tinctrius*, aglokon, genin modasi, glikozidlar, kartamin pigmenti, proinsulin, alifmoy, maxsar

### KIRISH

Dunyo aholisi oshib borar ekan, inson ehtiyojlari ham mos ravishda ortib boradi. Bu esa biologik muammolardan biri bo'lgan oziq-ovqatga bo'lgan talabning ham oshishiga olib keladi. Xususan, dukkakli va moyli ekinlarga, shuningdek, ozuqaviy qiymati yuqori bo'lgan o'simliklar sanoat miqyosida keng foydalaniladi. Misol uchun, kungaboqar, zig'ir, kinjut, soya, maxsar o'simliklaridan olingan va tayyorlaniladigan mahsulotlar (moy va boshqalar) katta ahamiyatga ega. Chunki jahon miqyosida ham inson organizmga foydali, sifatli, mineral va makro-mikroelementlarga, vitaminlarga, organik birikmalarga boy bo'lgan, va eng muhimi tabiiy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan oziq-ovqatlarga talab yuqori va keng ko'lamda savdoda ham, qishloq xo'jaligi va sanoatda ham o'z o'rniga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvadagi PQ-106-son "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini tubdan modernizatsiya qilish, sifatli va raqobatbardosh urug'lik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, urug'chilikda qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish, sohani raqamlashtirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni o'zaro integratsiya qilish va kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish hamda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida muhim vazifalardan biri etib

belgilangan. Qarorga asosan, sabzavot, poliz, dukkakli, ozuqa va moyli ekinlarning mahalliy seleksiya navlari urug'chiligini yo'lga qo'yish alohida belgilab berildi. Moyli ekinlar qatoriga kiruvchi hamda hozirgi kunda ko'p tarmoqlarda foydalaniladigan va eksport qilish ko'rsatkichlari ortib borayotgan o'simliklardan biri maxsar (*Carthamus tinctorius* L.) hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYASI

**Maxsar** (*Carthamnus tinctorius* L.) - murakkabguldoshlarga mansub bir, ikki va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, moyli ekin. Aksariyati O'rta dengiz atroflari, G'arbiy va O'rta Osiyoda o'sadigan 19 turi ma'lum. Dehqonchilikda *C.tinctorius* (bo'yokli M.) turi ekiladi. Maxsarni vatani - Efiopiya va Afgoniston. O'rta Osiyoda qadimdan, Misr, Hindiston, Xitoyda miloddan avvalgi, Yevropada XXVIII asrdan yetishtiriladi. Yovvoyi holda o'sishi kuzatilmagan. Hindiston, Turkiya, Eron, Xitoy, Yevropa mamlakatlari, AQSH va boshqa mamlakatlarda, shuningdek, O'rta Osiyoda faqat O'zbekistonda – Jizzax, Toshkent, Sirdaryo viloyatlarida (lalmi yerlarida) ekiladi. Bir yillik issiqsevar, qurg'oqchilikka juda chidamli ekin.



Maxsar o'simligini o'sish davri o'rtacha 130-150 kun tashkil etadi. Ildizi 2-3 metrgacha chuqurlikka kirib boradigan o'qildiz tuzilishiga ega bo'lib shoxlangan. Ildizlarning chuqurlikka yetib boorish xususiyati o'simlikka tuproqning kata qismidan suv va ozuqa moddalarini o'zlashtirish imkoniyatini yaratib beradi. Poyasi tuksiz sershox, baquvvat silindirsimon tuzilishga ega.

Bo'yi 60-120 sm, barglari bandsiz,tuksiz, lansetsimon, nashtarsimon, tikanli va tikansiz kengligi 2,5-5,0 sm uzunligi esa 10-15 sm atrofida o'zgaradi.Barglari tananing pastki qismida odatda katta bo'ladi. Gullarining atrofini o'rab olgan barglari tuxum shaklida va qattiq tuzilishga ega. Maxsarning gul tuzilishi kungaboqar o'simligiga o'xshaydi. Odatda gullari doirasimon, yassi savatcha shaklga ega. Gul savatchasi asosiy poya shoxlarning uch qismdan chiqadi. Birlamchi shoxlar ikkilamchi shoxlarga nisbatan erta gullaydi. O'simlikda jami gullash davri 10-40kun atrofida o'zgarib turadi [2].



To'pguli savatcha, sariq, jigarrang. Mevasi pista, urugi oqish. 1000 dona urugi vazni 25-50 g. Asosan chetdan changlanadi. Tuproqtanlamaydi. Urugi 1-2° da una boshlaydi, maysalari -6 -7° sovuqqa bardosh beradi. Urugi tarkibida 25-45% moy mavjud. Maxsar urug'i tarkibida oqsil va yog' mavjud.

Gullari tarkibida glikozidlar, magniy, temir, va boshqa minerallar o'z ichiga oladi. Guldagi bu rang moddalari ozuqa va mato bo'yashda ishlatiladi. Gullaridan glikozidlarni ajratib olishda 100-110 kunlik gullarni terib olinadi. Gullari tarkibida glikozidlar bo'lganligi sababli glukozani pasaytiruvchi aglokon va genin moddalari mavjud. Amerkalik olimlar maxsar gulini hujayralarini o'zgartirishga erishishdi. So'ngra guli insulinni asosi bo'lgan proinsulin ishlab chiqara boshladi. Proinsulinni kimyoviy ishlov berish orqali insulin olish mumkin. Maxsar o'simligidan insulinni olishdan asosiy maqsad insulinning arzonligi sabab bo'ladi [3].

Urug'ining tarkibida 17-37% yarim quriydigan oq-sariq rangli moy boladi. Po'sti tozalangan urug'dan olingan moy o'zining ta'm sifati bo'yicha kungaboqar moyidan qolishmaydi. Moyi oziq-ovqat uchun margarin tayyorlashda, shuningdek, u texnik ahamiyatga ega bo'lib, alifmoy, linoleum, sovun va boshqa mahsulotlar olinadi. Kunjarasi achchiq bo'ladi. Shuning uchun o'g'it sifatida ishlatiladi. Lalmi yerlarda pichan, ko'kat va silos uchun ekiladi, uni tuyalar, quylar va qoramol yaxshi yeydi. Maxsar ekilgan maydon qorako'l qo'ylari uchun yaxshi yaylov hisoblandi. Urug'i tikanli va tikansiz bo'ladi. O'zbekistonda tikansiz maxsar urug'I ekiladi. Maxsar urug'i dukkakli don ekinlaridan bo'shagan yerlarga ekiladi. Maxsar erta bahorgi don ekinlari bilan birga ekiladi. Maxsarni kuzda ham ekish mumkin, hosil kamroq bo'ladi [4].




**Xulosa.** Maxsar o'simligini yetishtirishdan maqsad xo'jalikdagi ahamiyati va uning dorivorlik xususiyati yuqori bo'lganligi sababli uning yetishtirish agrotexnologiyasini yaxshi o'rganish va O'zbekistonda katta plantatsiyalarni yaratish

kerak. Bundan tashqari undan dori preparatlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va aholi salomatligi uchun arzon va sifatli yetkazib berishni taminlash kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Atabayeva H.N. Xudayqulov J.B., "O'simlikshunoslik", /darslik/. Toshkent: "NIF MSH", 2020, 242-247-b.
2. Xudoyqulov J.B., Muxtorov F.A., "Soya va maxsar yetishtirish, Nashriyot uyi "Tasvir" -2021, 30-41-b.
3. Yormatova D,Yo. Xushvaqtova X.S "Moyli ekinlar" Zarafshon- 2008
4. Hamidjonova M.L. "Maxsar o'simligi va uni tibbiyotda qo'llash "Innovative Developments and research in education internatiol scientific-online conference 23.05.2022



## AVTOTRANSPORT VOSITALARINING ISH VAQTIDAN UNUMLI FOYDALANISHNI OSHIRTIRISH

**Muratov Abobakr Xolikberdievich**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, Termiz davlat universiteti, O'zbekiston  
[abubakr.muratov@mail.ru](mailto:abubakr.muratov@mail.ru), tel.: +998915743399

**Annotasiya:** Yuklarni iste'molchilarga yetkazib berish samaradorligini ta'minlash yuk tashish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Iste'molchilarni ehtiyojlarini to'la qondirish va yuk tashish hajmini oshirishda avtotransport korxonasi ish unumdorligiga ta'sir qiladigan ko'rsatgichlar qiymatlarini oqilona me'yorlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada yuk jo'natuvchi va iste'molchilarning yuk ortish-tushirish punktlari ish faoliyatini samarali tashkil etish hisobiga avtomobilga yuk ortish-tushirish va avtotransport hamda yuklash vositalarining unumsiz kutib turish vaqtlarini kamaytirish yo'llari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** avtotransport vositasi, yuk, iste'molchi, yuk jo'natuvchi, ortish-tushirish, ish vaqti.

## IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE USE OF WORKING TIME OF VEHICLES

**Muratov Abobakr Kholikberdievich**

Doctor of Philosophy in Technical Sciences, Termez State University, Uzbekistan  
[abubakr.muratov@mail.ru](mailto:abubakr.muratov@mail.ru), phone: +998915743399

**Abstract:** ensuring the efficiency of cargo delivery to consumers becomes important in the transportation process. Rational rationing of the values of indicators affecting the labor productivity of a motor transport enterprise also becomes important when fully satisfying the needs of consumers and increasing the volume of cargo transportation. The article considers ways to reduce the unproductive waiting time for vehicles and loading and unloading facilities in a car due to the effective organization of the work of loading and unloading points of the shipper and consumers.

**Keywords:** vehicle, cargo, consumer, shipper, loading and unloading, working hours.

Yuklarni iste'molchilarga yetkazib berish faoliyatni murakkab kompleks ko'rsatgichdir, ayniqsa yuklarni o'z vaqtida sifatli holda yetkazish.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan vaqt uni ishlab chiqarish uchun xomashyoni birinchi manbalar (hosil qiluvchi punkt)dan to ishlab chiqarishga, keyin esa tayyor mahsulot iste'molchisigacha bo'lgan harakatlanish vaqtining atigi 2% ni tashkil etadi. Umumiy vaqtning qolgan 98% esa turli logistik kanallardan o'tishga, shu jumladan transport vositalarida tashishga sarf bo'ladi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan [2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida amalga oshirishga oid davlat dasturida](#) qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga ko'paytirish, ixtisoslashtirilgan tuman (shahar)larda boshqa hududlar bilan sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'yish; yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish va boshqa qurilish xarajatlarini kamaytirish hisobiga qurilishga ketayotgan vaqtni 30 foizga kamaytirish hamda qurilish tannarxini 20 foizga arzonlashtirish vazifalari belgilangan. Dasturda hududlarda yuklar shakllanishining asosiy nuqtalarini hisobga olgan holda transport-logistika markazlari tarmog'ini tashkil etish va yuk tashish xarajatlarini **30 foizgacha** kamaytirish maqsad qilib qo'yilgan [2].

Sanoatning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun iqtisodiy jihatdan samarali, energiya-tejamkor va ishonchli yuk tashish tizimi muhim ahamiyatga ega [3].

Yuk tashishni optimallashtirish avtomobil va temir yo'l transportini o'z ichiga olgan transport tarmog'ini rivojlantirish muammosini ham hal qilish kerak [4, 5].

Qurilish yuklarni tashishni tashkil etish, yuk jo'natuvchi va yuk oluvchi punktlar ishini o'zaro muvofiqlashtirish hamda tashish samaradorligini oshirish yo'llari [6] keltirilgan.

Yuk tashish yo'nalishining yuk jo'natish yoki qabul qilish manzillarida yuz beradigan jarayonlar tizimli tahlil qilish, ularning tarkibi aniqlanib, avtomobilning unumsiz turib qolish vaqtini bartaraf etish va transport vositasining ish ko'rsatkichlarining shakllanilishini talab etilmoqda [7, 8].

Hoziri bozor iqtisodiyoti sharoitida yuklarni iste'molchilarga yetkazib berish samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda yuklarni iste'molchilarga yetkazib berish sifatini baholashda iste'molchilar asosan transport xarajatlariga e'tibor berishadi. Bunda yetkazib berish sifati bilan belgilanadigan boshqa xarajatlarga esa odatda ishlab chiqarish xarajatlari sifatida qaraladi. Yuklarni iste'molchilarga yetkazib berish sifat va samaradorligini oshirishdan nafaqat ishlab chiqarishning umumiy xarajatlarida balki transport xizmatiga ketayotgan xarajat qismi katta darajada bo'lgan iste'molchilar manfaatdor bo'ladi. Iste'molchilarga yuklarni yetkazib berishning turli xil variantlari samaradorligi birinchi navbatda transport

xizmati ya'ni yuk tashish narxi orqali belgilanadi. Chunki iste'molchilarning transportga bo'lgan xarajatini kamaytirish uning sarf-xarajat borasidagi muhim talablaridan biri bo'lib bunda, eng kam xarajat doirasida yoki xarajatlar ma'lum darajadan oshmaydigan transport xizmati varianti ma'qul deb topiladi. Iste'molchilarga yuklarni yetkazib berish xizmati narxi barcha transport operasialarini bajarishga ketgan xarajatlar hajmi bilan aniqlash mumkin.

Iste'molchilarni ehtiyojlarini to'la qondirish va yuk tashish hajmini boshqarishda avtotransport korxonasi ish unumdorligiga ta'sir qiladigan ko'rsatgichlar qiymatlarini oqilona me'yorlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yuk jo'natuvchi va iste'molchilarning yuk ortish-tushirish punktlari ish faoliyatini mukamallashtirish hisobiga yuk ortish-tushirish va avtotransport hamda yuklash vositalarining unumsiz kutib turish vaqtlarini kamaytirish maqsadga muvofiqdir [9, 10]. Bunda har bir yo'nalishda ishlash lozim bo'lgan avtotransport vositalarining soni, ularning ish ko'rsatgichlari, ya'ni yuk ortish-tushirish vaqti, punktlarda turib qolish vaqti, harakatdagi vaqt, o'rtacha kunlik qatnovlar soni, tonna va tonna kilometrdagi ish unumdorligi va shu kabilar aniqlanadi. Yuk jo'natish punktlari va iste'molchilarning ichki sharoitlaridan kelib chiqadigan kunlik yuk jo'natish va qabul qilish imkoniyatlari va ehtiyojlarining o'zgarib turishi, avtotransport korxonalarining yuk tashiy olish imkoniyatlarining vaqt mobaynida bir tekis taqsimlanmasligini ko'p hollarda yetarli darajada hisobga olinmaydi. Yuk tashishni rejalashtirish nisbatan katta muddatlarda amalga oshiriliyotgan bo'lsa, unda har kunlik real yuk tashish sharoitlari, imkoniyatlari va iste'molchilarning tashish hajmlariga bo'lgan ehtiyojlarini o'zgarib turishini amalda hisobga olib bo'lmaydi. Shu sababli yo'nalishlarda har kunlik, real tashish sharoitlarini, tashish hajmlariga bo'lgan ehtiyojlarni, avtotransport korxonasidan ishga chiqadigan avtotransport vositalarining soni va ularning yuk ko'taruvchanligi hamda ularning yuk tashib berish imkoniyatlarini o'zgarib turishini hisobga olgan holda avtotransport vositalari ish faoliyatini tezkor rejalashtirishga ehtiyoj tug'iladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy maqsad oldingi rejali iqtisodiyot davridagi rejalashtirilgan tashish ko'rsatgichlarini bajarish emas balki iste'molchilarning tashish hajmi va muddatiga bo'lgan o'zgaruvchan ehtiyojlarini turli tashish sharoitlarida to'la qondirishdan iborat. Yuk jo'natish va qabul qilish punktlarining tashish hajmlariga bo'lgan real ehtiyojlarini to'liq ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yuk tashish shartnomasiga aks etilgan, ya'ni rejalashtirilgan yuk tashish hajmlari aniq davr bir davr uchun mos kelmasligi mumkin. Masalan, ayrim sabablarga ko'ra yuk iste'molchisining yuk iste'moli hajmining susayshisi natijasida uning omborxonalaridagi iste'mol qilishga hali ulgurmagan xomashyo miqdorining ko'payib ketishi keyingi kunlardagi rejalashtirilgan tashish hajmlarini kamaytirishni taqozo etadi. Yoki ayrim yuk iste'molchilari o'zining ishlab

chiqarish rejalarini doimiy oshirib bajarilishi natijasida belgilangan o'rtacha kunlik yuk tashish hajmlari korxonalar ish faoliyatini uzluksiz ta'minlash uchun etishmasligi mumkin. Bunday korxonalar faoliyatini beto'xtov ishlashini va samaradorligini ta'minlash maqsadida birinchi holatda tashish hajmlari oldin rejalashtirilgan miqdoriga nisbatan birmuncha kamaytirilishi va ikkinchi holatda esa aksincha yuk tashish hajmlarini oshirtirish zarur. Ko'p hollarda yuk jo'natuvchi yoki yuk qabul qiluvchi korxonalarining tashish hajmlariga bo'lgan ehtiyojlari vaqt mobaynida notekis taqsimlanadi.

Yuqoridagi qiyinchiliklarga qaramasdan transport jarayonini hudud avtotransport vositalarining tashish imkoniyatlarini yuk iste'molchilari ehtiyojlariga maksimal moslashtirib borish maqsadga muvofiq.

Avtotransport korxonasining tashish imkoniyatlari etishmaydigan paytlarda avtotransport vositalari uchun rejalashtirilgan ish vaqtdan to'liq foydalanish kerak. Ko'p hollarda ish vaqtdan to'liq foydalanmaslik avtotransport vositalarining marshrutdagi aylanish vaqti ( $t_{avi}$ ) bilan belgilangan ish vaqti ( $T_{uu}$ ) o'rtasida butun son ko'rinishidagi nisbatning mavjud emasligidan kelib chiqadi. Ma'lumki, bu nisbatan harakatlanuvchi tarkibning kunlik aylanishlar sonini beradi. Amalda yo'nalishda bajariladigan kunlik aylanishlar soni butunlashtirib olinadi, ya'ni

$$Z_{avi} = \frac{T_{uu}}{t_{avi}} \approx Z'_{avi} \quad (1)$$

bu yerda  $Z_{avi}$  - avtotransport vositasining kunlik aylanishlar soni;  $t_{avi}$  - avtotransport vositasining bir aylanish vaqti, soat;  $T_{uu}$  - avtotransport vositasining kunlik ish vaqti, soat;  $Z'_{avi}$  - butunlashtirilgan avtotransport vositasining kunlik aylanishlar soni.

Marshrutda ishlash vaqti ( $T_m$ ) iste'molchilar ish rejimi va haydovchilarning ish vaqti fondlari asosida belgilangan bo'lib, butunlashtirilgan avtotransport vositasining kunlik aylanishlar soni ( $Z'_{avi}$ ) qiymati hamma vaqt avtotransport vositasining kunlik aylanishlar soni ( $Z_{avi}$ ) qiymatidan kichik songa butunlashtiriladi. Buning natijasida har bir avtotransport vositasi uchun kunlik ish vaqtdan ma'lum qismi yo'qotiladi yoki foydalanilmay qoladi. Bu yo'qotiladigan  $t_{uyx}$  vaqtlarni bilan belgilab uning qiymatini bitta avtotransport vositasi uchun bir kunligini quydagicha aniqlashimiz mumkin, ya'ni

$$t_{uyx} = T_{uu} - Z'_{avi} \cdot t_{avi} \quad \text{COAM} \quad (2)$$

Ushbu yo'qotilgan vaqt ( $t_{uyx}$ ) dan foydalanish maqsadida har bir avtotransport vositasidan ma'lum kun mobaynida turli yo'nalishlarda foydalanish imkoniyatini ham

ko'rish lozim. Avtotransport korxonasiidagi marshrutda faoliyat ko'rsatayotgan avtotransport vositalarning bir kunlik yo'qotiladigan vaqtlar yig'indisi ( $\sum t_{\text{korxonasi}}$ ) quydagicha aniqlanadi:


$$\sum t_{\text{korxonasi}} = t_{\text{korxonasi}} \cdot A_3; \quad \text{coam} \quad (3)$$

bu yerda  $A_3$ - marshrutdagi avtomobillar soni, avt.

Boshqacha qilib aytganda avtotransport korxonasiidagi har bir avtotransport vositasi ishini marshrutlararo shunday rejalashtirish keraki, bunda butun avtotransport korxonasi uchun yo'qotiladigan vaqtlar yig'indisi  $\sum t_{\text{korxonasi}}$  qiymati eng kam, ya'ni minimum qiymatga ega bo'lishi zarur.

Avtotransport korxonasiidagi mavjud avtotransport vositalarini yo'nalishlarga optimal taqsimlash, ya'ni har bir yo'nalishda ishlaydigan avtotransport vositalar sonini tashish hajmiga bo'lgan real imkoniyatlarga muvofiq kunlararo o'zgartirish hisobiga tashiladigan umumiy yuk miqdori yoki aylanishini oshirish yoki kamaytirish mumkin. Iste'molchilarga tashib kelingan yuk miqdori yo'nalishlarda bajariladigan umumiy yuk aylanishining kamaytirilishi yoki oshirilishi hisobiga bajariladi. Masalan, avtotransport korxonasiining nisbatan kichik tashish imkoniyatlaridan foydalanib katta hajmdagi yuk tashishni bajarish lozim bo'lsa, bunda yuk aylanishini kamaytirishga erishish kerak. Ishga chiqadigan avtomobillar soni ko'p bo'lsa berilgan tashish hajmini bajarish va ko'p sonli avtomobillardan to'la foydalanish uchun esa yuk aylanish hajmini oshirish shart.

Ko'p hollarda yuk iste'molchi punktlar ma'lum bir yukni bir nechta punktdan oladi yoki aksincha, bunda har bir jo'natuvchidan kunlik tashiladigan yuk miqdorini turli hajmda belgilash mumkin. Bunda asosiy maqsad iste'molchi punkti yuk hajmiga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat. Yuk jo'natuvchi punkt (A1) esa yuk iste'molchi (B1, ..., B4) manzillaridan har xil uzoqlikda joylashgan bo'lib (1-rasm), bu tashish hajmini o'rtacha yuk olib borish masofasi vositasi orqali boshqarishga imkon beradi.



### 1-rasm. Yuk jo'natuvchi va qabul qiluvchilarning joylashish sxemasi

Doimiy va hajmi katta bo'lgan yuk oqimini boshqarish lozim bo'lganda yaqin masofalarga ko'proq avtotransport vositalari ajratiladi, aksincha nisbatan kichik hajmda yuk tashish lozim bo'lganda esa uzoq masofalardan ko'proq tashish belgilanadi.

Shuningdek, avtotransport korxonasining real tashish imkoniyatlariga harakatlanuvchi tarkibni yuk ortish va tushirish punktlarida me'yorida ortiq turib qolish vaqtlari jiddiy ta'sir ko'rsatadi hamda avtotransport vositasining bir aylanishga ketgan vaqti oshadi. Ayniqsa yuk hosil etuvchi punktlarda bu masalani oqilona hal etilishi maqsadga muvofiqdir, chunki bunday manzillar bir qancha marshrutlarda yuk tashiyotgan avtotransport vositalarning yig'iladigan joyi bo'lib, ular yuqori ish unumdorligini ta'minlaydigan tushirish maydonchalariga ega bo'lmasa avtotransport vositalarini yuk tushirish yoki ortish jarayonida turib qolish vaqtlari me'yordan bir necha marta oshib ketadi. Bu esa har bir avtotransport vositalari uchun belgilangan kunlik qatnovlar (aylanishlar) sonini va ish unumdorligini etarli darajada bajaranmaslikka olib keladi.

Xulosa qilinganda, yuk jo'natish (qabul qilish) manziliga kelayotgan har bir avtotransport vositasiga xizmat ko'rsatish vaqti (yuk ortish, tushirish, manyovr qilish, hujjatlarni rasmiylashtirish va boshq.) yuk ortish-tushirish vositalarining va turli xil xizmat ko'rsatadigan punktlarning soniga, ularning o'rtacha ish unumdorligiga,



avtotransport vositalarining xizmatdan foydalanish maqsadida ketma-ket kelishidagi oraliq vaqti esa shu punktga mo'ljallangan tashish hajmiga va harakatlanuvchi tarkibning o'rtacha yuk ko'tara olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Yuk hosil qiluvchi (qabul qiluvchi) punktlarida avtotransport vositalariga xizmat ko'rsatish samaradorligi oshirish, optimallashtirish uchun bir tomondan xizmat ko'rsatadigan punktlarning sonini oqilona aniqlash, ikkinchi tomondan esa avtotransport vositalarining ketma-ket kelishidagi oraliq vaqtni o'rtacha xizmat ko'rsatish vaqtiga muvofiqlashtirish lozim.

### ADABIYOTLAR

1. Butaev Sh.A., Sidiknazarov Q.M., Murodov A.S., Kuziev A.U. (2012) Logistics (Management of flows in the supply chain).-Tashkent: Extremum-Press. - pp.577.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvarda PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

3. Devendra Kumar Pathak, Ravi Shankar, Alok Choudhary. Transportation Research Part D: Transport and Environment. Volume 90, January 2021, 102663. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1361920920308488>

4. Muratov Abobakr Kholikberdievich. (2023). Mathematical Model of the Process of Transportation of Construction Goods by Automobiles. *Genius Repository*, 24, 38–41. Retrieved from <https://geniusrepo.net/index.php/1/article/view/375>

5. Muratov Abobakr Kholikberdievich. (2023). Efficient organization of the process of servicing automobile flows arriving at the point of shipment. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 21, 236–240. Retrieved from <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/875>

6. Kuziev A.U., Muratov A.Kh. Improving the method of delivery of construction cargo in auto transport. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* Vol. 11, Issue 8, August 2021. pp.207-216. <https://indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=8&article=038>

7. Abobakr Kholikberdievich Muratov. (2022). Increasing The Efficiency of Cargo Delivery to Consumers. *Eurasian Journal of Engineering and Technology*, 12, 20–23. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/ejet/article/view/2688>

8. Muratov A.X. Statement and Mathematical Model of the Problem of General Service in the Transportation of Cargo by Motor Vehicle. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*. 6, (May 2022), pp.288–291. <https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/392>

9. Kuziyev A. U., Suyunov O. D., Xurramov K. B. Improving the quality of passenger service in city public transport //International bulletin of engineering and technology. – T. 2. – №. 12. – С. 157-161.

10. Suyunov O., Sherboyev A. Ptv vissim dasturi yordamida avtomobil yo‘llari va shahar ko‘chalarining harakat oqimini modellashtirish //Евразийский журнал академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 261-266.



## AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING BIOLOGIYA FANLARIGA TA'SIRI

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti "Tabiiy fanlar" kafedrası o`qituvchisi

**Kalendarova Dilnoza Samandarovna Tel:+998994495588;**

[Kalendarovad02@gmail.com](mailto:Kalendarovad02@gmail.com)

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti Biologiya ta'lim yo'nalishi III bosqich talabasi

**Karimov Diyorbek Toshtemir o'g'li Tel:+998904157535 [diyorbekk56@gmail.com](mailto:diyorbekk56@gmail.com)**

**Abstract:** This study aims to examine the impact of information technology on the biological sciences. Descriptive library-based studies have shown that information technology has had the following three effects in the biological sciences: IT will revolutionize the distance sciences. Later, the advent of computer and information technology has made such significant changes in all aspects of life that its importance cannot be described. Biological sciences are no exception to the benefits of IT. IT leads to significant improvement in biological simulation and modeling; and last but not least, Information Technology demonstrates excellence in laboratory research.

**Keywords:** IT, World Wide Web, tomography, MRI, Lander, bioinformatics, computational biology, pharmacogenomics, hypothesis, ecology, population biology, genomics, proteomics, transcriptomics, Genomic, expert systems, qualitative simulation, artificial neuron, bioscience, DNA, RNA, model-based.

**Annatotsiya:** Ushbu tadqiqot axborot texnologiyalarining biologiya fanlariga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tavsifiy kutubxonaga asoslangan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, axborot texnologiyalari biologiya fanlarida quyidagi uchta ta'sir ko'rsatdi: IT masofaviy fanlarda katta inqilob qiladi. Keyinchalik kompyuter va axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi hayotning barcha jabhalarida shu qadar sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirdiki, uning ahamiyatini ta'riflab bo'lmaydi. Biologiya fanlari ITdan olinadigan foydadan istisno emas. IT biologik simulyatsiya va modellashtirishda sezilarli yaxshilanishga olib keladi; va oxirgi, lekin eng muhimi, Axborot texnologiyalari laboratoriya tadqiqotlarida mukammallikni namoyon qiladi.

**Kalit so'zlar:** IT, World Wide Web, tomografiya, MRI, Lander, bioinformatika, hisoblash biologiyasi, farmakogenomika, gipoteza, ekologiya, populyatsiya biologiyasi, genomika, proteomika, transkriptomika, Genomik, ekspert tizimlar, sifatli simulyatsiya, sun'iy neyron, biofan, DNK, RNK, modelga asoslangan.

**Аннотация:** Целью данного исследования является изучение влияния информационных технологий на биологические науки. Описательные

исследования на базе библиотек показали, что информационные технологии оказали следующие три эффекта на биологические науки: ИТ произведут революцию в дистанционных науках. Позднее появление компьютеров и информационных технологий внесло настолько существенные изменения во все аспекты жизни, что их важность невозможно описать. Биологические науки не являются исключением из преимуществ информационных технологий. ИТ приводят к значительному улучшению биологического моделирования и моделирования; и, наконец, что не менее важно, информационные технологии демонстрируют превосходство в лабораторных исследованиях.

**Ключевые слова:** ИТ, Всемирная паутина, томография, МРТ, Лендер, биоинформатика, вычислительная биология, фармакогеномика, гипотеза, экология, популяционная биология, геномика, протеомика, транскриптомика, геномика, экспертные системы, качественное моделирование, искусственный нейрон, биологические науки, ДНК, РНК, на основе модели.

### Kirish

Kompyuter va internet inson hayotining barcha jabhalarida eng muhim rol o'ynaydi. Kompyuter bilan bog'liq texnologiyalar dunyoga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bular ko'plab talabalar va mutaxassislarni axborot texnologiyalari sohasiga jalb qildi. Minglab veb-saytlar va veb-xosting imkoniyatlari mavjud bo'lib, ular doimo o'sib bormoqda. Ilmiy ilovalar uchun eng qadimgi kompyuterlardan elektron pochta va Internetgacha bo'lgan ko'plab axborot texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Cheyne ta'kidlaganidek: “Axborot texnologiyalarining fan uchun rolini tushunish bugungi axborot jamiyatida fanning markaziy o'rni tufayli muhim ahamiyatga ega. Ilm-fan yutuqlari iqtisodiy ko'rsatkichlarga va sog'liqni saqlashdan milliy xavfsizlikka qadar ijtimoiy maqsadlarga erishishga ta'sir qiladi. Natijada, siyosatchilar uchun IT fan sifati va samaradorligiga qanday ta'sir qilishini tushunish muhimdir”.

Kuzatishlar va adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha, ITning fanga ta'sirini o'rganish uchun bir-birini to'ldiruvchi bir nechta yondashuvlar mavjud. Yondashuvlardan biri elektron pochta yoki **World Wide Web** kabi maxsus axborot texnologiyalarining rolini o'rganishdir. Yana bir yondashuv - ilmiy aloqa yoki ilmiy hamkorlik kabi ilmiy jarayonning o'ziga xos jihatlarida IT ning rolini o'rganishdir. Ushbu tadqiqotda IT ning joriy etilishi ko'rib chiqiladi. Biologiya o'zining asosini genetik kodga kiritilgan ma'lumotlarga asoslangan informatsion fandir. Molekulyar darajada, biologiyaning asosiy vazifasi genomlarda kodlangan ko'rsatmalar oqsillarning tuzilishi va funktsiyasiga, genlarning tartibga solinishi va ifodalanishiga qanday olib kelishini tushunishdir. IT ushbu sohalarda ishda ishlab chiqarilgan ma'lumotlar massasini

saqlash, boshqarish va shifrlash uchun juda muhimdir. Molekulyar darajadan yuqori tashkiliy darajalarda kompyuter modellari biologiyadagi munosabatlarning murakkabligini hal qilish uchun muhim vositadir.

### **IT biologiyada quyidagi rollarni o'ynashi ko'rsatilgan:**

- ma'lumotlar to'plash uchun gen sekvenserlari, DNK mikromassivlari va mikroskoplar kabi IT-yordamli asboblardan foydalaniladi.
- Gen va oqsil ma'lumotlar banklari kabi Internetga ulangan katta umumiy ma'lumotlar bazalari ko'plab tadqiqotchilarga ma'lumotlarni olish va katta muammolarga hissa qo'shish imkonini beradi.
- Gen ketma-ketligini yig'ish va qidirishda ma'lumotlarni tahlil qilish usullari qo'llaniladi.
- Magnit-rezonans tomografiya (MRI) va tomografiya kabi tasvirlash va vizualizatsiya biofanning bir qancha sohalarida muhim ahamiyatga ega.
- Modellashtirish va simulyatsiya oqsil qatlamlarini modellashtirish va hujayralar, to'qimalar, organizmlar va populyatsiyalar kabi murakkab biologik tizimlarni tushunishga yordam berish uchun ishlatiladi.
- Ilmiy axborot almashish va ilmiy hamkorlikka yordam berish uchun elektron aloqa texnologiyalaridan foydalaniladi. Ushbu tadqiqot asosan biofanda IT dan foydalanishni tavsiflovchi adabiyotlarni ko'rib chiqishga asoslangan.

### **Tegishli adabiyotlar sharhi**

- Yangi kichik sohalarining rivojlanishi yoki masofaviy ta'limdagi o'zgarishlar kabi asosiy ta'sir va ta'sirlar qanday?
- Ushbu sohada IT qanday qo'llanilgan va qaysi ilovalar (masalan, modellashtirish va simulyatsiya, umumiy ma'lumotlar bazalari)

Axborot texnologiyalari biofanlarda uzoq vaqtdan beri qo'llanilgan bo'lsa-da, biofanlar dastlab IT ning nisbatan oddiy foydalanuvchilari edi. 1966-1967 yillardagi hayot fanlarida kompyuterlardan foydalanishni o'z ichiga olgan so'rov shuni ko'rsatdiki, hayotshunos olimlarning foizi jismoniy kompyuterlarga qaraganda kamroq. Biroq, so'nggi yillarda biofanlarda IT dan foydalanish sezilarli darajada kengaydi. Lander va boshqalar so'nggi o'n yil davomida biologiya hisoblash tufayli katta o'zgarishlarni boshdan kechirganini kuzatdi. 1950-yillarda genetik ma'lumotlarning DNK da qanday kodlanganligi kashf etilganidan beri biofanlar IT ga tobora ko'proq qaram bo'lib qoldi. Hozirgi vaqtda biofanning ko'plab tadqiqotlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: genetik ketma-ketlikda saqlanadigan ma'lumotlarni dekodlash; bu ketma-ketliklar genlar va oqsillarni qanday kodlashini tushunish; va bu oqsillarning funktsiyasi va tuzilishini tushunish. Qaysidir ma'noda, biologiya genetik koddagi ma'lumotlarga asoslanadi va axborot texnologiyalari bu ma'lumotlarni yaratish va boshqarishda muhim ahamiyatga

ega. Axborot texnologiyalari ahamiyatining o'sishi biologiyaning bir qancha yangi fanlararo kichik sohalarining o'sishi bilan misol bo'la oladi. Ulardan biri "**bioinformatika**" bo'lib, biologik ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilish uchun kompyuterlar, ma'lumotlar bazalari va hisoblash usullarini qo'llash sifatida belgilanadi. Inson genomi loyihasi va boshqa organizmlardagi genomlar ketma-ketligi loyihalari gen ekspresyon naqshlarini tahlil qiluvchi yangi texnologiyalar bilan birgalikda katta hajmdagi ma'lumotlarni yaratdi. Bioinformatika zamonaviy biologiyada ma'lumotlarni boshqarishning deyarli barcha jihatlarini uchun muhim bo'lib qoldi. Yana bir kichik soha "**hisoblash biologiyasi**" bo'lib, u biologiyadagi nazariy va eksperimental savollarni hal qilish uchun matematik modellashtirish va hisoblash simulyatsiyasi texnikasi kabi matematik va hisoblash usullaridan foydalanadi.

Boshqa yangi kichik sohalar - "omiks" qo'shimchasi bo'lganlar - ular genomikani (organizmlarning to'liq DNK ketma-ketligini o'rganish, shu jumladan genlarning sekvensiyasi, xaritalash va funktsiyalarini aniqlash) o'z ichiga oladi; transkriptomika (RNK va gen ifodasi); proteomika (oqsil ifodasi); metabolizm (metabolitlar va metabolik tarmoqlar); farmakogenomika (genetika odamlarning dorilarga bo'lgan munosabatiga qanday ta'sir qiladi); va fiziomika (butun organizmlarning fiziologik dinamikasi va funktsiyalari). Ularning har biri murakkab biologik tizimlar va jarayonlarni tushunishni yaxshilash uchun miqdoriy, eksperimental va hisoblash yondashuvlarining kombinatsiyasini o'z ichiga oladi.

Ushbu ko'rib chiqish doirasi ingliz tilidagi adabiyotlar va maqolalar bilan cheklangan adabiyotlar sifatida belgilangan ilm-fan va fan ta'limi kabi tegishli fanlarni yuritishda foydalaniladigan IT-ga e'tibor qaratish.

Ushbu tadqiqot asosan biofanda IT dan foydalanishni tavsiflovchi adabiyotlarni ko'rib chiqishga asoslangan. Bu biroz torroq savollar to'plamiga oydinlik kiritadi:

- Ushbu sohada IT qanday qo'llanilgan va qaysi ilovalar (masalan, modellashtirish va simulyatsiya, umumiy ma'lumotlar bazalari, hamkorlik vositalari, masofaviy asboblari) eng ko'p qo'llanilgan?

- Yangi kichik sohalarining rivojlanishi yoki masofaviy ta'limdagi o'zgarishlar kabi asosiy ta'sir va ta'sirlar qanday?

- IT dan foydalanishda qanday asosiy muammolar bor?

Barcha adabiyotlar va hisobotlar IT biologiyaga jiddiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. Axborot texnologiyalari biologiya fanlarida quyidagi uchta ta'sir ko'rsatadi: IT masofaviy ta'limda katta inqilob qiladi; IT biologik simulyatsiyada sezilarli yaxshilanishga olib keladi; va oxirgi, lekin eng muhimi, Axborot texnologiyalari laboratoriya tadqiqotlarida ko'rinadigan qiladi.

Ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, IT biofanning turli xil ilovalarida qo'llaniladi. Bu ilovalar avtomatlashtirilgan ma'lumotlarni yig'ish, ma'lumotlarning statistik tahlili, Internetga kirish mumkin bo'lgan umumiy ma'lumotlar bazalari, modellashtirish va simulyatsiya, ma'lumotlar va tahlillarni tasvirlash va vizualizatsiya qilish, olimlar o'rtasida internet aloqasi va tadqiqot natijalarini elektron tarzda tarqatishni o'z ichiga oladi.

IT ning yana bir roli shundaki, biologiyada ilmiy sikl davomida. Ilmiy jarayon davomida IT ko'p jihatdan qo'llaniladi. Bu IT ni ilmiy jarayonning bir bosqichida, masalan, ma'lumotlarni yig'ishda qo'llaniladigan mikroskoplari yoki fizika tezlatgichlari kabi boshqa ko'plab ilmiy jihozlardan ajratib turadi. IT gipotezalarni shakllantirish, tadqiqot dizayni, ma'lumotlarni yig'ish, ma'lumotlarni tahlil qilish va ilmiy natijalarni etkazishda yordam beradi.

IT ning ilmiy jarayon bosqichlari bilan aloqasi ko'rsatilgan. IT ayniqsa bioinformatika va "omika" (genomika, proteomika, transkriptomika va boshqalar)da muhim ahamiyatga ega. Geologiya fanlarida IT yer osti tuzilmalarini tahlil qilish, xaritalash va murakkab tizimlarni modellashtirishda ayniqsa muhimdir. IT daxlsiz bo'lgan sohalar kam, agar mavjud bo'lsa. Birgalikda Internetga kirish mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazalari paleontologiyada muhim ahamiyatga ega; va modellar va ma'lumotlar bazalari populyatsiya biologiyasi va ekologiyasida muhim ahamiyatga ega; va genomika biologiyaning ko'plab sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Ma'lumotlarni boshqarish va mexanik modellarga integratsiyalash uchun ilg'or hisoblash vositalarisiz o'rganish uchun juda murakkab tizimlar mavjud. Tizimlar biologiyasi tirik jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam berish uchun turli xil tizimlarni modellashtirish va simulyatsiya qilish va natijalarni vizualizatsiya qilishga qaratilgan. Genomikaning ma'lumotlarga asoslangan yondashuvi o'rniga, biologik tizimlardagi tadqiqotlarni "**modelga asoslangan**" deb tavsiflash mumkin.

